3-son, 2025

INNOVATSION PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

Ilmiy jurnal

ISSN: 2181-4465

INNOVATIVE PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY

Scientific journal

INNOVATSION PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

Ilmiy jurnal

INNOVATIVE PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY

Scientific journal







ORIENTAL UNIVERSITETI

INNOVATSION PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

Ilmiy jurnal

(Uchinchi son)

Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2025-yil 24-sentyabrdagi 375/5-son qaroriga muvofiq pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga “Innovatsion pedagogika va psixologiya” ilmiy jurnali kiritilgan.

Toshkent – 2025

“Innovatsion pedagogika va psixologiya”
ilmiy jurnalining tahrir hay’ati:

Bosh muharrir:
Nishanova Z. T. – psixologiya fanlari doktori, professor,
Xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a’zosi (akademigi)

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Egamberdiyeva F.O. – pedagogika fanlari nomzodi, professor

Mas’ul muharrir:
Umarov B.M. – psixologiya fanlari doktori, professor

Musahhih:
Norkulova G.

Tahrir hay’ati a’zolari:

Kozlov V.V.	*Psixologiya fanlari doktori, akademik (Rossiya);*
Lekerova G.J.	*Psixologiya fanlari doktori, professor (Qozog‘iston);*
Sibel Sönmaz	*Pedagogika fanlari doktori, professor (Turkiya);*
Shafiyeva I.I.	*Psixologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon);*
Palatkina G.V.	*Pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya);*
Xazova S.A.	*Psixologiya fanlari doktori, dotsent (Rossiya);*
Ibragimov X.I.	*Pedagogika fanlari doktori, akademik;*
Mirqosimova M.	*Pedagogika fanlari doktori, akademik;*
Quchqorova N.M.	*Pedagogika fanlari doktori, professor;*
Niyozmetova R. X.	*Pedagogika fanlari doktori, professor;*
Muslimov N.A.	*Pedagogika fanlari doktori, professor;*
Xalilova Sh.T.	*Pedagogika fanlari doktori, professor;*
Xodjayev B.X.	*Pedagogika fanlari doktori, professor;*
Kadirova M.R.	*Pedagogika fanlari doktori, professor;*
Nazarova D.A.	*Pedagogika fanlari nomzodi, professor;*
Shoumarov G‘. B.	*Psixologiya fanlari doktori, akademik;*
Karimova V.M.	*Psixologiya fanlari doktori, professor;*
Atabaeva N.B.	*Psixologiya fanlari doktori, professor;*
Abdullaeva D.U.	*Psixologiya fanlari doktori, professor;*
Baykunusova G.Y.	*Psixologiya fanlari doktori, professor;*
Qarshieva D.S.	*Psixologiya fanlari doktori, professor;*
Alimbayeva Sh.T.	*Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent;*
Nishanov S.Y.	*Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA

Nasirov Kamiljon Jaylauyevich
“E’tirof” metodining mohiyati va pedagogik-psixologik imkoniyatlari 4
Egamberdiyeva Farida Oktamovna
Talabalarning kreativlik salohiyatini rivojlantirishda pedagogik imkoniyatlar 14
Nishanbekova Jadira O‘rinboy qizi
O‘quvchilarning musiqiy qiziqishlarini rivojlantirish 23
Egamberdiyeva Shahzoda Damirovna, Tursunaliyeva Muxlisa Baxtiyor qizi
Enhancing Cultural Competence Through Realia in Foreign Language Education: Didactic Potential 34
Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi
Boshlang‘ich ta’limning ona tili va o‘qish o‘quv dasturi mazmunini takomillashtirish bo‘yicha tahliliy takliflar va mulohazalar 43
Mirsagatova Nargiza Sayfullayevna
Bo‘lajak o‘qituvchilarda ijobiy fikrlash orqali ma’naviy-moddiy hayot uyg‘unligini rivojlantirish 50
Qodirova Mashxura Mirzaakbarovna
Audio-lingval metod orqali og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish: O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi talabalari misolida 58
Mamanazarov Uchqun Burxon o‘g‘li
Changes in the characteristics of moral self-awareness in adolescent students 65
Namozova Gulbahor Muzaffarovna
Bolalar adabiyotida folklor unsurlarining ifodasi 76

PSIXOLOGIYA

Muratxodjayeva Feruza Xotamovna
Inson ruhiyatini aks ettirishning milliy o‘ziga xosligi 87
Нишанов Сарвар Юлдибаевич
Психологические особенности лжецов: что отличает систематических обманщиков от случайных 95
Alimbayeva Shahlo Tursunovna
Mental xususiyatlarning til birliklarida namoyon bo‘lishi 104
Avazyazova Dilfuza Shovkatovna
Xorijiy talabalarda oliy ta’limga moslashish muammosi 116
Quyliyeva Orzigul Rajabboyevna
Bolalar va o‘smirlar uchun sxematerapiya: niqobli rol o‘yinlari va ifodali guruh mashqlarini qo‘llash 127

“E’TIROF” METODINING MOHIYATI VA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI

THE ESSENCE AND PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL POSSIBILITIES OF THE "E'TIROF" METHOD

СУЩНОСТЬ И ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ МЕТОДА «ЭТИРОФ»

Nasirov Kamiljon Jaylauyevich
Oriental universiteti
Uzluksiz ta’lim pedagogikasi kafedrasi professori
Tel.: +998 90 983-22-33
E-mail: knasirovj@gmail.com

Annotatsiya. Hozirgi kunda pedagogika fanining ahamiyati insoniyat oldidagi global muammolarni hal qilishda beqiyosdir. Ta’lim-tarbiya tizimidagi islohotlar zamonaviy talab va ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan bo‘lib, innovatsion texnologiyalardan foydalanish davr talabiga aylangan. Ushbu maqolada “E’tirof” metodi – o‘quvchi-talabalarning faolligini oshirish, bilimlarini mustahkamlash va o‘qishga qiziqishini rivojlantirish maqsadida ishlab chiqilgan pedagogik innovatsiya – markaziy o‘rin tutadi. Metodning mazmun-mohiyati, didaktik imkoniyatlari va qo‘llash shartlari ta’lim samaradorligini ta’minlashga yo‘naltirilgan. Kichik o‘quv guruhlarida faoliyat olib borishning afzalliklari, baholash tizimidagi muammolarni oqilona bartaraf etishning ijobiy ta’siri batafsil tahlil etilgan. Bugungi pedagogik talablar – mustaqil o‘zlashtirish, ilmiy fikrlashni rivojlantirish, kasbiy bilimlarni chuqurlashtirish va nazariy-amaliy mashg‘ulotlarda faollikni oshirish – ushbu metod orqali amalga oshirilishi ko‘rsatilgan. Maqolada ushbu masalalar batafsil yoritilib, amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: *pedagogika, ta’lim, tarbiya, shaxs, guruh, sardor, topshiriq, baholash, innovatsiya, xulosa, tavsiya, interfaol usullar.*

Annotation. In the contemporary era, pedagogical science plays an indispensable role in addressing global challenges facing humanity. Educational reforms are designed to meet modern demands and needs, making the integration of innovative technologies a imperative of the time. This article centers on the "E'tirof" (Acknowledgement) method – a pedagogical innovation developed to enhance student engagement, consolidate knowledge, and foster interest in learning. The method’s essence, didactic potential, and application conditions are oriented toward ensuring educational effectiveness. The advantages of small-group instruction and the positive impact of rationally resolving assessment issues are thoroughly analyzed. Current pedagogical

quirements – promoting independent learning, developing scientific thinking, deepening professional knowledge, and increasing activity in theoretical and practical sessions – are demonstrated through this method. The article provides detailed coverage of these issues, accompanied by practical recommendations.

Key words: *pedagogy, education, upbringing, personality, group, leader, task, assessment, innovation, conclusion, recommendation, interactive methods.*

Аннотация. В современную эпоху педагогическая наука играет незаменимую роль в решении глобальных проблем человечества. Реформы в системе образования направлены на удовлетворение актуальных требований и потребностей, делая интеграцию инновационных технологий императивом времени. В центре статьи – метод «Этироф» (Признание) – педагогическая инновация, разработанная для повышения вовлечённости учащихся, закрепления знаний и развития интереса к обучению. Суть метода, его дидактический потенциал и условия применения ориентированы на обеспечение эффективности образования. Тщательно анализируются преимущества работы в малых группах и позитивное влияние рационального устранения проблем в системе оценивания. Современные педагогические требования – содействие самостоятельному обучению, развитие научного мышления, углубление профессиональных знаний и повышение активности на теоретических и практических занятиях – демонстрируются через данный метод. В статье подробно освещены эти вопросы с практическими рекомендациями.

Ключевые слова: *педагогика, образование, воспитание, личность, группа, руководитель, задача, оценка, инновация, вывод, рекомендация, интерактивные методы.*

KIRISH

XXI asrda aqliy salohiyat va tafakkur rivoji natijasida insoniyat yangi cho‘qqilarni zabt etishi bilan bir vaqtda, ilgari ko‘rmagan va duch kelmagan ko‘plab katta muammolarga ro‘baro‘ kelmoqda. Shu sababli odamlar tez o‘zgarayotgan, dunyoda paydo bo‘layotgan muammolarning yechimini turli fan sohalaridan izlamoqdalar. Global muammolarni hal etishda dunyodagi barcha davlatlar qatorida O‘zbekiston Respublikasi ham faollik ko‘rsatmoqda.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish – xalqimizning asriy orzu-intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to‘la javob beradigan obyektiv zarurat. Bu yo‘ldagi islohotlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lgan jamiyatimiz a’zolarining bor bilim va salohiyati, kuch va imkoniyatlarini, butun azm-u shijoatini ishga solish davr talabidir. Shundagina Yangi O‘zbekiston jahon maydonida kuchli salohiyat,

munosib obro‘-e’tiborga ega bo‘lgan, har tomonlama obod va farovon mamlakatga aylanadi (Mirziyoyev Sh. M., 2021).

Hozirgi kunda eski an’anaviy uslubdagi darslar yoshlar ehtiyojini qondirolmayapti. Chunki, ularning fikrlashi va tafakkuri 10-15 yil avvalgi yoshlarga nisbatan ancha tez va yuqori darajada. Agar pedagog o‘zi ustida ishlamasa, yangi interfaol pedagogik metodlardan foydalanmasa va talabalarni o‘z faniga qiziqtira olmasa, uning ta’lim–tarbiya sohasidagi faoliyati samarasiz bo‘lib qoladi.

Pedagog olimlarning ta’kidlashiga ko‘ra, ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llaniladigan interfaol metodlarning orasida kichik guruhlar tarkibida o‘qish va shug‘ullanish juda samarali hisoblanadi. Shu bois ularga nisbatan qiziqish kun sayin ortib bormoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Pedagogik faoliyatda interfaol usullarni qo‘llash, ayniqsa, kichik guruhlarda mashg‘ulotlarni tashkil etish masalasi bo‘yicha bir qator olimlar tadqiqot ishlarini olib borganlar.

O‘zbekistonlik olimlardan R. Ishmuxamedov va M. Yuldashev pedagogik jarayonda interfaol metodlarni joriy qilish zamonaviy kadrlarni tayyorlash tizimining muhim omillaridan biri ekanligini, har bir jamiyatning kelajagi - uning ajralmas qismi hisoblangan va hayotiy zarurati bo‘lgan ta’lim-tarbiya tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanishini, ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish davr talabi sifatida qabul qilinishi lozimligini o‘z asarlarida qayd etishgan. Ularning fikriga ko‘ra, kichik guruhlar tarkibida shug‘ullanish o‘quvchi-talabalarning bilimlarini mustahkamlashda samarali usul hisoblanadi.

O. Raximov, O. Turg‘unov, Q. Mustafayev, H. Ro‘ziyev kabi pedagog olimlar zamonaviy ta’lim texnologiyalarini har tomonlama o‘rganib chiqishgan va O‘zbekistonning yangi ta’lim modelini yaratish g‘oyasini ilgari surishgan. Mazkur g‘oyaga asosan har bir pedagog o‘z ustida mukammal ishlashi, zamondan orqada qolmasligi, o‘qitishning innovatsion texnologiyalarini puxta bilishi va o‘z faoliyatida joriy etishi zarur.

D. Fayzullayeva va M. Ganiyeva o‘z tadqiqot ishlarida kichik guruhlar hamkorlikda ishlash uchun juda qulay ekanini ilmiy jihatdan asoslab berishgan hamda pedagogik imkoniyatlarini ta’kidlashgan.

Amerikalik psixolog olimlar R. Karnikau va F. Makelrouning ilmiy izlanishlarida shaxsning tabiiy fiziologik-psixologik imkoniyatlari muayyan shakllarda o‘zlashtirilgan bilimlarni turli darajada inson miyasida saqlanib qolishi foizlarda ko‘rsatilgan.

Rus olimlaridan N. Petrova o‘z tadqiqotlarida kichik guruhlarda ta’lim-tarbiya bilan shug‘ullanish jarayonini iqtisodiy jihatdan tahlil qilib, ushbu metodlardan foydalanish yuqori samaradorlikni ta’minlashga xizmat qilishini aniqlagan. S. Priobrajenskiy kichik guruhlarda o‘qitish va o‘rgatish metodi amaliy mashg‘ulotlarda o‘quvchi-talabalarning umumiy faolligini oshirish usuli ekanligini alohida qayd etgan.

Yuqorida berilgan tahlil natijalarini umumlashtirgan holda shuni alohida ta’kidlash joizki, kichik guruhlarda ta’lim-tarbiya bilan shug‘ullanish metodi o‘quvchi-talabalarning bilimini mustahkamlash va faolligini yanada oshirish uchun zamin yaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Har bir izlanishning ilmiy tadqiqot metodologiyasi mavjud bo‘lib, uning mazmunini ilmiy tadqiqotlarning asosiy tushunchalari, ta'riflari, usullari va bosqichlari haqidagi nazariy bilimlar tashkil etadi.

“E’tirof” metodini ishlab chiqishda mavzuga doir adabiyotlar puxta o‘rganildi. Kichik guruhlarda ishlash metodlari ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Shuningdek, tajriba-sinov ishlari va ularning natijalarini qiyoslash hamda umumlashtirish usullaridan keng foydalanildi. Ushbu metodni amaliyotga joriy etish va natijalarni oqilona baholash bo‘yicha tavsiyalar berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugun mamlakatimizda uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko‘tarish, unga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini tadbiq qilish hamda ta’lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

O‘zbekistonning yangi ta’lim modeli eng zamonaviy talablarga javob beradigan ta’lim muassasalarini barpo etish orqali sifatga, ya’ni o‘qituvchilar, o‘quvchilar, talabalar, o‘quv dasturlari va pirovard natijada bilimlar sifatini oshirishga asoslanganligi bilan ahamiyatlidir. U globallashuv jarayoni bilan bog‘liq ehtiyojlarni hisobga olish va yurtimizni jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallashini ta’minlash vositasi sanaladi.

Interaktiv metodlar zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayonining asosidir. Ular orasida kichik guruhlarga bo‘lingan holda shug‘ullanish o‘zining qamrovi va natijadorligi bilan ajralib turadi.

“Innovatsiya” (inglizcha: innovation) atamasi – pedagogikada “yangilik kiritish”, “nimanidir o‘zgartirish” ma’nolarida qo‘llaniladi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar deganda: ta’lim tizimi, pedagogic jarayon hamda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatiga yangilik kiritishni tushunamiz. Bu jarayonni amalga oshirishda asosan interaktiv usullardan foydalaniladi.

Interaktiv (“Inter” - o‘zaro, “act” - harakat qilmoq) so‘zi - o‘zaro harakat qilish ma’nosini anglatadi.

Interaktiv ta’limning mohiyati – o‘quvchi-talabalarning bilimlarni bir-birlaridan o‘rganishlariga yo‘naltirilgan ta’lim ekanligi ko‘pchilik olimlar tomonidan qayd etilgan.

Interfaol usullarning bosh maqsadi - muntazam muloqotni, o‘quvchi-talabalarning o‘zaro hamkorligi va faolligini ta’minlashdan iborat.

Interfaol usullar yordamida bilish va fikr almashish faoliyati tashkil etiladi, ta’lim oluvchilar to‘liq tarzda pedagogik jarayonga jalb etiladi, ular biladigan va o‘ylayotgan narsalar oydinlashadi, ularning tushunish va fikrlash imkoniyatlari kengayadi.

Hozir pedagogik texnologiyalar atamasi ham juda keng qo‘llanilmoqda. Uning eng asosiy negizini o‘qituvchi va o‘quvchining belgilangan maqsadlar yo‘lida kafolatlangan natijaga aniq ketma-ketlikda hamda hamkorlikda erishishlari tashkil etadi.

Ta’lim-tarbiya texnologiyalari yordamida:

- o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida hamkorlik vujudga keladi;
- har ikki tomon birdek ijobiy natijaga intiladi;
- o‘quvchi-talabalar mustaqil fikrlashni va ijodiy faoliyatni o‘rganadilar.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olib, 30 yillik pedagogik faoliyat va tajribaga tayangan holda “E’tirof” metodini e’tiboringizga havola qilishni lozim topdik.

“E’tirof” (اعتراف) so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, “tanish”, “tan olish” kabi ma’nolarni anglatadi. Metodning bunday nomlanishi u o‘quvchi-talabalar shaxsiga qaratilganligi va ularni shaxs sifatida qabul qilish sharti bilan bog‘liq.

“E’tirof” metodi asosan seminar va amaliy mashg‘ulotlarda foydalanish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, bilimlarni mustahkamlash va yanada boyitishni ta’minlaydi. Shuningdek, har bir ishtirokchini ta’lim-tarbiya jarayonida o‘zini to‘liq namoyon qilishi uchun yordam beradi.

Pedagog ushbu metoddan foydalanganida tashkilotchi va nazoratchi sifatida jarayonda ishtirok etadi. Uning asosiy vazifasi - talabalarni yangi usul yordamida kichik guruhlarga ajratish, vazifalarni taqsimlash, jarayonni kuzatish va tadbir so‘nggida guruh a’zolarini baholash hamda yutuq va kamchiliklarni e’lon qilishdan iborat bo‘ladi.

“E’tirof” metodini amalda qo‘llash uchun bir necha bosqich talab etiladi:

1-bosqich – kichik guruhlarni shakllantirish.

Pedagog guruhdagi o‘quvchi-talabalarning umumiy sonidan kelib chiqib, ularni 2, 3 yoki 4 ta kichik guruhga taqsimlashi lozim. Buning uchun u guruh a’zolari orasidan yoshi kattalarini kichik guruhning sardori sifatida tanlaydi. Sardorlar orasidan ham yoshi eng kattasini ajratib, unga auditoriyada o‘tirgan o‘quvchi-talabalardan birini o‘z kichik guruhiga a’zo qilish uchun tanlashini zarurligini aytadi. Keyin yoshi katta ikkinchi sardor, undan so‘ng navbatdagi uchinchi, to‘rtinchi sardorlar bittadan o‘z guruhlariga a’zolarni tanlaydilar. Shu tariqa kichik guruhlar tarkibi bittadan, navbati bilan o‘quvchi-talabalarni tanlash asosida jamlanadi.

2-bosqich – kichik guruhlarga o‘quv topshiriqlarini taqsimlash.

Kichik guruhlarning a’zolari alohida stol atrofida joylashadilar. Ularga kichik guruh sardorlari rahbarlik qiladi. Pedagog darsning maqsadi va mavzuning mazmunidan kelib chiqib, har bir guruhga o‘quv topshiriqlarini taqsimlab beradi. O‘quv topshiriqlari barcha guruhlar uchun bir xil yoki har xil bo‘lishi mumkin. Guruh a’zolari o‘quv topshiriqlarini oq qog‘ozda ifodalagan holda bajarishlari kerak. Buning uchun 20-30 daqiqa vaqt ajratiladi.

3-bosqich – o‘quv topshiriqlari ijrosini tekshirish.

Kichik guruhlar tomonidan bajarilgan barcha o‘quv-tarbiyaviy ishlar aks etgan qog‘ozlar doskaga joylashtiriladi.

Kichik guruhlarning a’zolari o‘zaro kelishgan holda oralaridan bitta o‘quvchi-talabani tanlaydilar. U doskaga chiqqan holda o‘z guruhi tomonidan bajarilgan ishlar to‘g‘risida axborot beradi. Buning uchun har bir kichik guruh vakiliga 5 daqiqagacha vaqt beriladi.

4-bosqich – kichik guruh mehnati va vakillari ma’ruzalarining muhokamasi.

Ushbu bosqich juda mas’uliyatli hisoblanadi. Mazkur jarayonda asosan o‘qituvchi, ba’zan esa maxsus hay’at hamda raqib kichik guruh a’zolari ma’ruzachilarga dars mavzusiga oid savollar bilan murojaat qilishi mumkin.

Maxsus hay’at tarkibi kichik guruhlarni tashkil qilish jarayonida guruhlar tarkibiga kirmay qolgan o‘quvchi-talabalardan tuziladi.

Kichik guruhlarning a’zolari soni o‘zaro teng miqdorda bo‘lishi shart. Shu sababli, ba’zan bitta, ikkita yoki uchta o‘quvchi-talaba kichik guruhga kirmay qoladi. Aynan o‘shalardan maxsus hay’at tuziladi va ularga:

1. O‘quv topshiriqlarini bajarish vaqtida kichik guruhning barcha a’zolari faolligi;

2. O‘quv topshiriqlarining to‘g‘ri, to‘liq, hayotiy misollar bilan va mukammal ravishda bajarilganligi;

3. Guruh vakillari ma’ruzalarining mazmunli, ifodali va kengqamrovli tarzda bayon etilgangi;

4. O‘quv topshiriqlarini belgilangan vaqt ichida bajarishga ulgurganligini qayd etgan holda har bir kichik guruhning yutuq hamda kamchiliklarini ko‘rsatgan holda baholash vazifasi beriladi.

Agar maxsus guruh tuzilmasa, yuqorida sanab o‘tilgan ishlarni pedagogning o‘zi amalga oshiriladi.

5-bosqich – kichik guruhlar faoliyatini baholash.

Ko‘pchilik pedagoglar ta’kidlashicha, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchi-talabalarning bilimini, savollarga bergan javobini va o‘quv topshiriqlarini qay darajada bajarganliklarini baholash qiyin amaliyot sanaladi. Chunki, baholanayotgan tomonlar har doim ham ularga qo‘yilgan baholardan rozi bo‘lavermaydilar. Shu sababli 5-bosqich pedagogga yoki maxsus hay’at a’zolariga biroz qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Baholash jarayonida doimo adolat va haqqoniylik tamoyili ustun bo‘lishi kerak. Shunda hech qachon kichik guruhlarda noroziliklar sodir bo‘lmaydi.

“E’tirof” metodini tahlil qilar ekanmiz, uning ko‘p yillik tajriba va olimlarning ilmiy xulosalariga asoslanishini alohida qayd etish lozim. Masalan, guruhlarda ishlash – bu o‘quv topshirig‘ini hamkorlikda bajarish uchun tashkil etilgan, 2 tadan – 8 tagacha faol ishtirokchilari bor kichik guruhlar faoliyati hisoblanadi. Ushbu ta’lim jarayoni va shaklidan ko‘zlangan asosiy maqsad: natija va o‘zaro hamkorlikdir (Fayzullayeva D.M., Ganiyeva M.A. 2013).

Har bir insonning tabiiy fiziologik-psixologik imkoniyatlari muayyan shakllarda o‘zlashtirilgan bilimlarni xotirada turli darajada saqlab qolishni ta’minlaydi. Jumladan, inson manbani o‘zi o‘qiganida - 10 %; ma’lumotni eshitganida - 20 %; sodir bo‘lgan voqea, hodisa yoki jarayonni ko‘rganida - 30 %; sodir bo‘lgan voqea, hodisa yoki jarayonni ko‘rib, ular to‘g‘risidagi ma’lumotlarni eshitganida - 50 %; ma’lumotlarni o‘zi uzatganida, ya’ni so‘zlaganida, bilimlarini namoyish etganida - 80 %; o‘zlashtirilgan bilimlarini o‘z faoliyatiga tatbiq etganida - 90 % hajmdagi ma’lumotlarni yodda saqlash imkoniyatiga ega bo‘ladi (Karnikau R., McElroy F. 1975).

“E’tirof” metodi yuqorida sanab o‘tilgan barcha dalillarga asoslangan holda o‘zining pedagogik va psixologik xususiyatlariga ham ega. Bu xususiyatlar:

A). Pedagog tomonidan yoshi ulug‘ o‘quvchi-talabalarni e’tirof etilishi va kichik guruh sardori etib tayinlashi;

B). Kichik guruh sardorlarining auditoriyadagi o‘quvchi-talabalarning bilimi va faolligini e’tirof etib, o‘z guruhiga qabul qilishi;

S). Har bir kichik guruhning boshqa kichik guruhlarni kuchli va salohiyatli raqib sifatida e’tirof etishi, ya’ni tan olishida namoyon bo‘ladi.

Bu e’tirof va tan olishlar insonning shaxs sifatida shakllanishi hamda rivojlanishida juda muhim omil hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kichik guruhlarda ta’lim-tarbiya jarayonini amalga oshirish muayyan qoidalarga amal qilishni talab etadi. Bular:

- xushmuomalalik bo‘lish;
- boshqa insonlarni tinglash odobi;
- insoniylik tamoyiliga amal qilish;
- faol bo‘lish va hamkorlikda ishlay olish;
- samimiy va adolatli bo‘lish hamda haqiqatni tan olish kabilar.

Yuqorida sanab o‘tilgan qoidalar pedagogik bilimlar sohasini ifodalaydi va metodning didaktik imkoniyatlarini ifodalaydi.

“E’tirof” metodining psixologik imkoniyatlarini esa:

- masalani tushunish va mushohada qilish;
- diqqatni jamlash va muammoning oqilona yechimini topish;
- muloqot madaniyati, jamoa bo‘lib faoliyat yuritish, odamlarni ishontirish hamda o‘z fikrini erkin va ochiq bayon eta olish qobiliyati kabilarni namoyon qiladi.

“E’tirof” metodi o‘quvchi-talabalarni bir kemada safarga chiqqan insonlardek o‘zlarini his qilishini ta’minlaydi. Chunki, yakuniy xulosa va baho guruh a’zolarining hammasiga tegishli bo‘lishi pedagog tomonidan darsning boshida yetkaziladi.

Baholash bosqichida ayrim muammolar vujudga kelishi mumkinligi haqida yuqorida fikr bildirilgan edi. “E’tirof” metodi o‘quv topshiriqlarini bajarish uchun barcha kichik guruh a’zolarini o‘zlarida bor bo‘lgan barcha imkoniyatlarini safarbar etishga undaydi. Ular mehnatini 5 ballik tizim asosida: “3”, “4” va “5” ga baholasangiz, bu ularning ayrimlarida shok va stress holatini keltirib chiqarishi mumkin. Ana shunday holatlarda biz baholarni hajmi bo‘yicha turli shaklda qo‘yishni tavsiya qilamiz. Masalan, g‘olib guruhga katta shakldagi “5” baho, qolganlariga o‘rtacha va kichik shakldagi “5” baho qo‘yiladi. Shunda vaziyat biroz yumshaydi va o‘quvchi-talabalarning fanga yoki bilim olishga bo‘lgan qiziqishlari so‘nmaydi.

Mashg‘ulot vaqtida “E'tirof” metodi qo‘llanilganida auditoriyadagi barcha o‘quvchi-talabalarning faolligi juda yuqori darajada bo‘lishi kuzatuvlar natijasida aniqlangan. Buning sababi quyidagi insoniy munosabatlar bilan izohlanadi:

Birinchidan, o‘qituvchi yoshi katta o‘quvchi-talabalarni kichik guruhlar uchun sardorlikka tayinlashi bilan ularga ishonch bildiradi;

Ikkinchidan, o‘z navbatida o‘quvchi-talabalar ham kichik guruh sardorlari tomonidan tanlanishi oqibatida ularga ham ishonch bildiriladi.

Insoniy munosabatlar psixologiyasiga ko‘ra, bildirilgan har qanday ishonch insonda mas’uliyat hissini uyg‘otadi. Ishonchni oqlash hissi insonni katta marralar sari yetaklaydi.

“E'tirof” metodi umuminsoniy qadriyat talabalariga ham to‘liq mos keladi va hozirgi kunda odamlar orasida yo‘qolib borayotgan “Kattaga hurmat, kichikka izzat” tamoyilini qaror toptirish uchun xizmat qiladi.

Zamonaviy pedagog o‘z mutaxassisligi bo‘yicha yangicha yondashuv bilan faoliyat yuritmas ekan, bilimga chanqoq o‘quvchi-talabalar qalbidan o‘zi ham, fani ham munosib joy ololmaydi. Shu sababli u doimo ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirishning eng maqbul yo‘li – mashg‘ulotlarni interfaol metodlar yordamida tashkil etishga harakat qilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Armstrong, J. S. (2012) Natural Learning in Higher Education. – New York: Springer.

2. D.M.Fayzullayeva, M.A. Ganiyeva (2013) Kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash pedagogik texnologiyalari to‘plami. Metodik qo‘llanma. – Toshkent. TDIU.

3. Karnikau R., McElroy F. (1975) Communication for the safety professional. – Chicago.

4. Корзюк Н.Н. (2013) Обучение в малых группах: теория и практика. – Минск: Центр БГУ.

5. Mirziyoyev Sh. M. (2021) Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent. O‘zbekiston.

6. Норпулатова Х.А. (2012) Активные методы обучения, направленные на развитие самостоятельного и творческого мышления студентов. // Молодой ученый. – Т. 2. № 1. – С. 112–116.

7. O.D. Raximov, O.M.Turg‘unov Q.O. Mustafayev, H.J. Ro‘ziyev (2013) Zamonaviy ta’lim texnologiyalari. – Toshkent. Fan va texnologiya nashriyoti.

8. P. Ishmuxamedov, M. Yuldashev (2013) Ta’lim va tarbiyada innovasion pedagogic texnologiyalar (ta’lim tizimi xodimlari, metodistlar, o‘qituvchilar, tarbiyachi va murabbiylar uchun o‘quv qo‘llanma). – Toshkent.

9. Петрова Н.В. (2008) Работа с малыми группами в процессе изучения дисциплины «Экономический анализ». // Среднее профессиональное образование. №6. – С. 27-28.

10. Приображенский С.В. (2016) Работа в малых группах как интерактивный метод на практических занятиях. // Современные образовательные технологии в мировом учебно-воспитательном пространстве. №5. – С. 66-71.

REFERENCES:

1. Armstrong, J. S. (2012) Natural Learning in Higher Education. – New York: Springer.

2. D.M.Fayzullayeva, M.A. Ganiyeva (2013) Kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash pedagogik texnologiyalari to‘plami. Metodik qo‘llanma. – Toshkent. TDIU. (In Uzbek)

3. Karnikau R., McElroy F. (1975) Communication for the safety professional. – Chicago.

4. Korzyuk N.N. (2013) Obucheniye v malix gruppax: teoriya i praktika. – Minsk: Syentr BGU. (In Russian)

5. Mirziyoyev Sh. M. (2021) Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent. O‘zbekiston. (In Uzbek)

6. Norpulatova X.A. (2012) Aktivniye metodi obucheniya, napravlenniye na razvitiye samostoyatelnogo i tvorcheskogo mishleniya studentov. // Molodoy ucheniy. – Moskva. T. 2. № 1. S. 112–116. (In Russian)

7. O.D.Raximov, O.M.Turg‘unov, Q.O.Mustafayev, H.J.Ro‘ziyev (2013) Zamonaviy ta’lim texnologiyalari. – Toshkent. Fan va texnologiya nashriyoti. (In Uzbek)

8. Petrova N.V. (2008) Rabota s malimi gruppami v prosesse izucheniya dissiplini «Ekonomicheskiy analiz». // Sredneye professionalnoye obrazovaniye. №6. S. 27-28. (In Russian)

9. P. Ishmuxamedov, M.Yuldashev (2013) Ta’lim va tarbiyada innovasion pedagogik texnologiyalar (ta’lim tizimi xodimlari, metodistlar, o‘qituvchilar, tarbiyachi va murabbiylar uchun o‘quv qo‘llanma). – Toshkent. (In Uzbek)

10. Priobrajenskiy S.V. (2016) Rabota v malix gruppax kak interaktivniy metod na prakticheskix zanyatiyax. // Sovremenniye obrazovatelniye texnologii v mirovom uchebno-vospitatelnom prostranstve. №5. S. 66-71. (In Russian)

TALABALARNING KREATIVLIK SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK IMKONIYATLAR

PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES FOR DEVELOPING STUDENTS' CREATIVE POTENTIAL

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОГО ПОТЕНЦИАЛА СТУДЕНТОВ

Egamberdiyeva Farida Oktamovna
Oriental universiteti professori
Pedagogika fanlari nomzodi
Тел.: +998 99 803-84-85
E-mail: faridaegamberdiyeva@gmail.com

Annotatsiya. Kreativlik shaxsning noodatiy fikrlash, yangi g‘oyalar yaratish va mavjud muammolarga innovatsion yondashuvlarni topish qobiliyati sifatida talqin qilinadi. Ushbu maqolada talabalarning kreativlik salohiyatini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari va uni ta’minlovchi pedagogik imkoniyatlar tizimli tahlil qilingan. Tadqiqotda kreativ pedagogika tushunchasi, uning inson haqidagi fanlar tizimidagi o‘rni, uzluksiz ta’lim jarayonida shaxsning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik sharoitlar va kreativ muhitni shakllantirish mexanizmlari yoritilgan. Metodologik jihatdan pedagogik hamrohlik, hamkorlik tamoyillari, muvaffaqiyat vaziyatlarini yaratish va o‘qituvchining shaxsiy kreativlik namunasidan foydalanish asos qilib olingan. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadi-ki, talabalarda kreativlikni rivojlantirish samarasi pedagog va o‘quvchi o‘rtasidagi ijodiy muloqot, interaktiv metodlar va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarini qo‘llash orqali ta’minlanadi. Maqola yakunida kreativ ta’limni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: *kreativ pedagogika, kreativlik, pedagogik sharoitlar, kreativ ta’lim muhiti, talabalar, pedagogik imkoniyatlar, ijodiy salohiyat, ta’lim metodlari.*

Abstract. Creativity is interpreted as an individual’s ability to think unconventionally, generate new ideas, and find innovative approaches to existing problems. The article presents a systematic analysis of the theoretical and methodological foundations for developing students’ creativity and the pedagogical opportunities that support it. The study covers the concept of creative pedagogy, its place within the system of human sciences, pedagogical conditions that foster the development of personal creative potential in the continuous education process, and mechanisms for creating a creative environment. Methodologically, the study is based on principles of pedagogical companionship, collaboration, creating situations of

success, and utilizing the teacher's personal creative examples. The analysis results indicate that the effectiveness of developing students' creativity is ensured through creative interaction between teacher and learner, the use of interactive methods, and student-centered educational technologies. The article concludes with proposals for improving creative education.

Key words: *creative pedagogy, creativity, pedagogical conditions, creative learning environment, students, pedagogical opportunities, creative potential, educational methods.*

Аннотация. Креативность рассматривается как способность личности к нестандартному мышлению, генерации новых идей и поиску инновационных подходов к решению существующих проблем. В статье представлен системный анализ теоретико-методологических основ развития креативности студентов и педагогических возможностей, обеспечивающих этот процесс. Исследование раскрывает понятие креативной педагогики, её место в системе гуманитарных наук, педагогические условия, способствующие развитию творческого потенциала личности в процессе непрерывного образования, а также механизмы формирования креативной среды. Методологически исследование опирается на принципы педагогического сопровождения, сотрудничества, создания ситуаций успеха и использования личного творческого примера преподавателя. Результаты анализа показывают, что эффективность развития креативности студентов обеспечивается через творческое взаимодействие педагога и обучающегося, применение интерактивных методов и технологий обучения, ориентированных на личность. В заключении статьи предложены рекомендации по совершенствованию креативного образования.

Ключевые слова: *креативная педагогика, креативность, педагогические условия, творческая образовательная среда, студенты, педагогические возможности, творческий потенциал, методы обучения.*

KIRISH

Zamonaviy jamiyat kreativ shaxslarga yuqori darajada ehtiyoj sezmoqda, chunki ular moslashuvchanlik va ijtimoiylashuv qobiliyatiga ega bo‘lib, doimiy o‘zgarib va yangilanib borayotgan dunyoda muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladi. Shu munosabat bilan turli soha olimlarining e’tibori ta’lim jarayonida o‘quvchilarning kreativ salohiyatini aniqlash va rivojlantirish masalasiga qaratilmoqda. Natijada, zamonaviy ta’lim muassasalarida pedagogik jarayonni tashkil etishning yangi paradigmalarni ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda.

Ijtimoiy buyurtma talablari, ilmiy izlanishlar va ta’lim amaliyotidagi o‘zgarishlar ta’sirida pedagogikada yangi yo‘nalish – kreativ pedagogika shakllandi. “Kreativ

pedagogika” zamonaviy ilmiy-pedagogik termin sifatida ko‘plab tadqiqotlarda qo‘llanilayotgan bo‘lsa-da, u hali mustaqil fan sohasi sifatida to‘liq shakllanmagan. Shu sababli uni o‘rganish ko‘p qirrali va murakkab masalalarni o‘z ichiga oladi. U pedagogikaning turli bo‘limlari, jumladan, pedagogika tarixi, ta’lim falsafasi, umumiy va kasbiy pedagogika, psixologiya, ta’lim metodikasi va texnologiyalari, shuningdek, kasbiy etika kabi sohalarga uzviy bog‘liqdir.

Ijod oddiy faoliyatdan farq qiladi. U faoliyat ichidagi o‘ziga xos jarayon sifatida talqin qilinadi va insonning ijodiy salohiyatini oshiradi. Muhimi, ijod jarayoni nafaqat tashqi ob’ektlarni yaratish yoki o‘zgartirish, balki ijodkorning o‘zini ham o‘zgartirish, uni yangi sifat darajasiga olib chiqishdir. Shu sababli, ijodiy faoliyat inson shaxsini shakllantirish va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Keng tarqalgan qarashga ko‘ra, ijodkorlik qobiliyati tug‘ma in’om bo‘lib, uni o‘rgatib bo‘lmaydi. Biroq olima M.M. Zinovkina bu fikrga qarshi chiqib, texnika va ixtirolar tarixi hamda buyuk olimlarning ijodiy faoliyatini tahlil qilib, ularning muvaffaqiyati nafaqat fundamental bilimlarga, balki o‘ziga xos tafakkur uslubi, evristik metodlar va maxsus bilimlar tizimiga bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Bu ijodiy qobiliyatni ma’lum metodlar yordamida rivojlantirish mumkinligini isbotlaydi (Zinovkina, 2007: 48-96).

Ijodkorlik, madaniyat singari, inson hayotining barcha jabhalarini qamrab olishi va ta’lim tizimining har bir bosqichida namoyon bo‘lishi lozim. Shu bois inson haqidagi fanlar tizimida kreativ pedagogika yangi tarmoq sifatida rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar mavjud.

Kasbiy shakllanish inson ontogenezining katta qismini – kasbiy niyatlar shakllanishidan (14-17 yosh) kasbiy faoliyat yakunlanishigacha (55-60 yosh) qamrab oladi. Doimiy o‘zgaruvchan tashqi va ichki dunyo, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va faoliyat mazmuniga mos keladigan ijodkor shaxsni shakllantirish jarayoni uzluksizlik, izchillik va inson ontogenezining barcha bosqichlarini qamrab olishni talab qiladi. Mahalliy pedagogikada insonning kasbiy-ijodiy faoliyat tajribasini uning kasbiy-ijodiy salohiyatini rivojlantirish asosida o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar deyarli mavjud emas.

An’anaviy yondashuvda kasbiy tajriba bilim, ko‘nikma va malakalarning integratsiyasi sifatida talqin qilinadi va tajriba faoliyatni egallash jarayonida o‘z-o‘zidan shakllanadi deb hisoblanadi. Shu sababli ijodiy faoliyat tajribasiga o‘rgatish masalasi ko‘pincha e’tibordan chetda qoladi (Zinovkina, 2007: 54, 78).

Kasbiy-ijodiy faoliyatni faol egallash nafaqat ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish va integratsiyalashni, balki individual usullar ishlab chiqish, kasbiy ijod metodologiyasini o‘zlashtirish, ijodiy tafakkur va kreativ shaxsiy sifatlarni

rivojlantirishni ham o‘z ichiga oladi. Kreativ shaxsning shakllanishi – bu ijodiy faoliyat va uning natijalariga mos keladigan shaxsning rivojlanish jarayonidir. Bu jarayon biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi, kreativ sifatlari, hayotiy voqealar va kasbiy shart-sharoitlar bilan belgilanadi (Chernilevskiy, 2001: 98).

Kreativ shaxsning shakllanishi va kreativ ta’lim o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjud. Shu sababli kreativ pedagogika inson haqidagi fanlar tizimida tobora muhim o‘rin egallamoqda. Insonning kasbiy-ijodiy faoliyat darajalari, erishilgan natijalar va kreativ tayyorgarlik darajasi o‘zaro chambarchas bog‘liqdir (Xoxlova, 2012: 297-301).

Umumiy va kasbiy ta’lim muammolari kreativ shaxsning kasbiy shakllanishi jarayonida bir butunlikni tashkil etadi. Bu esa ushbu muammolarni kreativ pedagogika doirasida integratsiyalash zarurligini ko‘rsatadi. Olimlar kreativ pedagogikani ijodiy ta’limning fani va san’ati sifatida talqin qilib, uni pedagogikaning alohida turi deb hisoblaydilar. U majburlash, hamkorlik yoki tanqidiy pedagogika kabi turlarga qarama-qarshi qo‘yiladi. V.V. Popov va Yu.G. Kruglovning ta’kidlashicha, kreativ pedagogika shaxsni va uning qobiliyatlarini faol rivojlantirishga qaratilgan maqsadli faoliyatni o‘rganadi. Uning ob’ekti alohida individ yoki uning psixikasi emas, balki uning rivojlanishi bilan bog‘liq pedagogik hodisalar tizimidir (Xoxlova, 2012: 297-301).

Kreativ pedagogika o‘quvchining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, har qanday pedagogika muayyan darajada kreativ yo‘nalishga ega. An’anaviy didaktikaga asoslangan pedagogika ham o‘ziga xos kreativlikka ega bo‘lib, ta’limni faktologik bilimlarni yetkazish orqali rivojlanish jarayoni sifatida qaraydi (Xoxlova, 2012: 299).

Kreativ yo‘nalishga erishish uchun quyidagi shartlar zarur:

- O‘quv jarayonida tor ixtisos doirasidan tashqariga yo‘naltirilgan, ijobiy tanqidni qabul qiluvchi va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi o‘zaro ta’sir muhitini yaratish;
- O‘quv jarayonini o‘quvchi ijodkor, o‘quv materiali esa ijodiy maqsadga xizmat qiladigan vosita sifatida qayta tashkil etish;
- Evristik usullarni tavsiflovchi va ularning amaliy qo‘llanilishini ko‘rsatuvchi qo‘shimcha o‘quv materiallarini kiritish. Muammoli vaziyatlar sharoitida o‘quvchi o‘z ijodiy qobiliyatlarini rivojlantira oladi (Xoxlova, 2012: 299).

M.M. Zinovkina fikriga ko‘ra, kreativ pedagogikaning predmeti uzluksiz ta’lim tizimida kreativ shaxsni shakllantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari, qonuniyatlari va mexanizmlaridir. Bu jarayon umumiy ta’lim, kasbiy o‘zlashtirish va o‘zini-o‘zi amalga oshirishni o‘z ichiga oladi. Ob’ekti esa ilmiy soha sifatida uzluksiz kreativ ta’lim tizimi, o‘quv fani sifatida esa ontogenezning barcha bosqichlaridagi kreativ shaxs hisoblanadi (Zinovkina, 2007: 89).

Kreativ pedagogika inson haqidagi fanlar tizimi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, umumiy va kasbiy pedagogika, psixologiya, ta’lim metodlari va texnologiyalari bilan yaqin aloqadadir. Shu bilan birga, u mustaqil ilmiy soha sifatida shakllanmoqda va shaxsda innovatsion intilishlar, kreativlik va raqobatbardoshlikni rivojlantirish imkoniyatiga ega.

Kreativlik shaxsning asl qadriyatlarni yaratish, noodatiy qarorlar qabul qilish va chegaralardan tashqariga chiqish qobiliyati sifatida qaraladi. Bu intuitsiya, fantaziya, o‘ylab topish, oldindan ko‘ra bilish, tashabbuskorlik, qat’iyat, o‘zini o‘zi tashkil etish va mehnatsevarlik kabi sifatlar bilan tavsiflanadi (Vygotskiy, 2005: 123). Bunday shaxslar uchun mamnuniyat manbai nafaqat maqsadga erishish, balki ijod jarayonining o‘zidir.

Zamonaviy ta’lim tizimini yangilash va gumanizatsiyalash har bir o‘quvchining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik sharoitlarni yaratishni talab qiladi. Pedagogik sharoitlar o‘quvchining shaxsiy o‘sishiga yordam beruvchi omillar, tamoyillar va tarbiyaviy choralar majmuini anglatadi. O‘quv-tarbiyaviy faoliyat esa o‘quvchi va pedagogning subyekt sifatidagi pozitsiyasini ta’minlovchi jarayon sifatida qaraladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kreativ muhitni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat quyidagi xususiyatlar bilan ajralib turadi: noodatiy savollar va g‘oyalarga e’tiborli munosabat, ularning qadri-qiymatini ko‘rsatish; o‘quvchilarga ko‘proq mustaqillik berish; erkin va samimiy o‘quv muhitini yaratish.

Shu nuqtai nazardan, ta’lim muassasasida kreativ muhitni shakllantirishga qaratilgan pedagogik hamrohlik tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon o‘quvchilarning manfaatlariga asoslanadi va maktab, gimnaziya yoki oliy ta’lim muassasasining ularning individual xususiyatlari va subyektiv ehtiyojlariga moslashishini ta’minlaydi.

Pedagogik hamrohlik ikki shaklda amalga oshirilishi mumkin: umumiy guruh shaklida va individual-shaxsiy shaklda. Birinchi holatda kreativ muhit pedagog va o‘quvchilar hamkorligi, dialogik ish shakllari va ijodiy faollikni talab qiluvchi topshiriqlar orqali ta’minlanadi. Ikkinchi yondashuv esa o‘quvchiga mustaqil qaror qabul qilish, ijod qilish, o‘qish va xulq-atvor mazmuni hamda usullarini tanlash erkinligini berish orqali uning individual rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Kreativlikni rivojlantirishga oid pedagogik hamrohlik quyidagi tamoyillar asosida tartibga solinadi:

- Hamroh qilinayotgan shaxs manfaatlarining ustuvorligi;
- Uzluksizlik;

- Multidissiplinarlik;
- O‘quvchiga nisbatan barcha hamrohlik ishtirokchilarining yagona munosabatini shakllantirish va doimiy axborot almashinuvi;
- O‘quvchining qadriyatlari ustuvorligini tan olish.

TAHLIL VA NATIJA

Pedagogik hamrohlik jarayonida pedagog o‘quvchiga o‘z imkoniyatlarini his qilishiga yordam beradi, unda o‘ziga ishonch va shaxsiy ahamiyat tuyg‘usini qo‘llab-quvvatlaydi. Buning uchun pedagog o‘quvchining betakrorligi va noyobligini tushunishi, uning individual psixologik portretini tasavvur qila olishi zarur. Shuningdek, u o‘quvchining yosh xususiyatlari, xatti-harakatlarini belgilovchi motivlar, ta’limga va tengdoshlari hamda kattalar bilan munosabatlariga bo‘lgan qarashlarini bilishi lozim. Pedagog o‘quv dasturi bilan o‘quvchining ijtimoiy-shaxsiy rivojlanish vazifalari o‘rtasidagi muvofiqlikni ta’minlashi kerak.

Ta’lim jarayonida pedagogik hamrohlik tamoyillari asosida olib boriladigan o‘qitishda asosiy e’tibor dasturiy materialni o‘zlashtirishga emas, balki individual bilish faoliyatini tashkil etishga qaratiladi. Pedagog nafaqat o‘zi tahlil qiladi, balki o‘quvchilarga bilim mazmunini, bilish mexanizmlarini, faoliyat turlarini tashkil etish prinsiplari va usullarini anglashga yordam beradi. O‘quv faoliyatini tashkil qilish bo‘yicha bilim alohida turdagi bilim bo‘lib, uni baholash son jihatdan (masalan, besh balli tizim bo‘yicha) emas, balki sifat jihatdan – o‘quvchining turli faoliyat sohalarida rivojlantirgan sifatlari darajasi bo‘yicha amalga oshirilishi kerak.

Ko‘plab tadqiqotchilar o‘qituvchining ijodiy entuziazmi, erkin fikrlash va o‘zini namoyon etish muhitini yaratishdagi rolini ta’kidlaydilar. Bunga erishish uchun turli usullar ishlab chiqilgan: o‘quvchining faoliyatiga qiziqish bildirish, turli javob variantlarini tan olish va rag‘batlantirish, tanish jarayon va hodisalarga boshqa nuqtai nazardan qarash.

Zamonaviy pedagogik hamrohlikni amalga oshiruvchi pedagog informator emas, balki koordinator, menejer, dialog tashkilotchisi va o‘quvchining individual qobiliyatlarini hisobga olgan holda maslahatchi bo‘lishi lozim. U bilimlarni egallashning samarali yo‘llarini izlashda o‘quvchini qo‘llab-quvvatlaydi, qiziqarli topilmalarni rag‘batlantiradi, muvaffaqiyatsiz urinishlarni tahlil qiladi va o‘quvchini o‘z yutuqlari va xatolarini anglashga undaydi.

Taqlid qilish uchun namunaga aylanuvchi narsa ma’lum harakatlar algoritmi emas, balki o‘qituvchining shaxsiy ijodiy yo‘nalishi va kreativ xulqidir. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, ijodkor shaxs faqat iste’dodli va ijodkor shaxs bilan hamkorlikda shakllanadi.

Mahalliy pedagogik va psixologik tadqiqotlarda ijodkorlik masalasi ko‘pincha hamkorlik g‘oyasi kontekstida o‘rganilgan. Biroq hamkorlik ijodkorlikning zaruriy sharti bo‘lsa-da, uning to‘liq mohiyatini ochib bermaydi. Ijodkorlik o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi muloqotda dialog shaklini ta’minlaydi, bu esa ishtirokchilarning o‘zaro boyishi va shaxsiy rivojlanishida namoyon bo‘ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yosh avlod pedagog tomonidan ijodiy tashkil etilgan sotsiokulturniy faoliyatning muallifiga aylanadi. Hamkorlik o‘quvchiga o‘quv materialini o‘zlashtirishda o‘z sur’atini tanlash, ijodiy imkoniyatlarini ishga solish va ularni amalga oshirish yo‘lini belgilash huquqini beradi.

V.I. Andreev, E.A. Gluxovskaya va boshqa tadqiqotchilar tomonidan o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi hamkorlikka asoslangan subyekt-subyekt munosabatlarini ta’minlovchi quyidagi shartlar ajratib ko‘rsatilgan:

- Har bir ishtirokchiga ijodiy jarayonda o‘z qarorini qabul qilish huquqini beruvchi subyekt-subyekt o‘zaro ta’siri;
- Ishtirokchilar tomonidan ijodiy muhitning yaratilishi va saqlanishi;
- Har bir subyektning ijodiy faoliyat va o‘zini ifoda etishning individual uslubini rag‘batlantirish;
- Pedagogning ijodiy imkoniyatlari va pedagogik mahoratini doimiy rivojlantirish.

Ijodiy faoliyatda subyekt pozitsiyasi quyidagi qobiliyatlarni shakllantiradi: mustaqil maqsad qo‘yish va motivatsiyani rivojlantirish, o‘zlashtirilgan harakat usullarini o‘zgaruvchan sharoitlarda qo‘llash, ijodiy faoliyat natijalarini mustaqil baholash, berilgan vaziyat chegarasidan chiqib, yangi vazifalarni variativ va ijodiy hal qilish.

Natijada o‘quvchilarda mustaqillik, mas’uliyat, tartiblilik, tashabbuskorlik va ijodiy yo‘nalganlik kabi shaxsiy sifatlar shakllanadi.

O‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatida ijodiy muhitni yaratish alohida ahamiyatga ega. Ijodiy muhitning muhim tarkibiy qismi – o‘qituvchi tomonidan tashkil etiladigan “muvaffaqiyat vaziyatlari”dir. Bu o‘quvchida ijodiy faoliyatga qo‘shilish istagini shakllantiruvchi va zarur shart-sharoitlarni ta’minlovchi pedagogik vaziyatdir. Bunday vaziyatlar noodatiy tafakkurni rivojlantiradi, ijodiy o‘zini namoyon etishga intilishni kuchaytiradi va o‘quvchida faoliyat subyekt sifatidagi pozitsiyani mustahkamlaydi.

Kreativlikni rivojlantirishga oid pedagogik sharoitlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Dars jarayonida maqsadli ravishda yaratilgan kreativ ta’lim muhiti;

- Pedagogning kreativ xulqi va shaxsiyati o‘quvchilarning ijodiy imkoniyatlarini personifikatsiya qiluvchi omil sifatida;
- O‘quvchilar va pedagoglarning hamkorligi;
- Ijodiy faoliyatdagi subyektlik pozitsiyasi;
- Ijodiy muhitni qo‘llab-quvvatlash va muvaffaqiyat vaziyatlarini yaratish.

O‘quvchilarda kreativlikni rivojlantirish uzluksiz kreativ ta’lim tizimi sharoitida, maqsadli va kompleks pedagogik ta’sir asosida eng samarali amalga oshiriladi. Kreativ pedagogika ushbu masalalarni ishlab chiqish orqali fundamental-amaliy pedagogik soha sifatida rivojlanishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Богоявленская Д. Б. (1995) О предмете и методе исследования творческих способностей // Психологический журнал. № 5.

2. Выготский Л. С. (2005) Избранные психологические исследования. – Москва.

3. Ермолаева Томина Л.Б. (2003) Исследование факторов, детерминирующих индивидуальные различия в проявлении творческой активности // Психология творчества. – Москва. – С. 117–130.

4. Зиновкина М.М. (2007) НФТМ-ТРИЗ: Креативное образование XXI века (Теория и практика): – Москва.

5. Козленко В.Н. (1990)Проблема креативности личности // Психология творчества. – Москва – С. 131–148.

6. Рубинштейн С.Л. (1992) Основы общей психологии. – Москва.

7. Хохлова Д. А. (2012) Актуализация статуса креативной педагогики в современном междисциплинарном знании // №15/ – С. 297–301.

8. Чернилевский Д. В., Морозов А. В. (2001) Креативная педагогика и психология.

REFERENCES

1. Bogoyavlenskaya D. B. (1995) On the Subject and Method of Studying Creative Abilities // *Psychological Journal*. № 5.

2. Vygotsky, L. S. (2005) Selected Psychological Research. – Moscow.

3. Ermolaeva-Tomina, L. B. (2003) Study of Factors Determining Individual Differences in the Manifestation of Creative Activity // *Psychology of Creativity*. Moscow. – pp. 117–130.

4. Zinovkina, M. M. (2007) NFTM-TRIZ: Creative Education of the 21st Century (Theory and Practice): Monograph. – Moscow.

5. Kozlenko, V. N. (1993) The Problem of Personality Creativity // *Psychology of Creativity*. – Moscow, – pp. 131–148.

6. Rubinstein, S. L. (1992) Fundamentals of General Psychology. Textbook. – Moscow.

7. Khokhlova, D. A. (2012) Actualization of the Status of Creative Pedagogy in Modern Interdisciplinary Knowledge // *University Bulletin (GUU)*. №15. – pp. 297-301.

8. Chernilevsky, D. V., & Morozov, A. V. (2001)Creative Pedagogy and Psychology: Textbook. – Moscow.

O‘QUVCHILARNING MUSIQIY QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISH

DEVELOPING STUDENTS' MUSICAL INTERESTS

РАЗВИТИЕ МУЗЫКАЛЬНЫХ ИНТЕРЕСОВ УЧАЩИХСЯ

Nishanbekova Jadira O‘rinboy qizi
Toshkent amaliy fanlar universiteti,
pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi,
pedagogika fanlari falsafa doktori PhD
Tel.: +998 99-335-33-61

Annotatsiya. Ushbu maqola umumta’lim maktablarida faoliyat yurituvchi to‘garaklarda o‘quvchilarning musiqiy-estetik kompetentligini shakllantirish borasidagi mavjud muammolarni tadqiq etadi. Mazkur muammoning dolzarbligini ochib berish maqsadida muallif tomonidan o‘quvchilar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazilgan bo‘lib, unda o‘quvchilarning musiqiy ta’limga bo‘lgan qiziqishi, to‘garak mashg‘ulotlarining samaradorligi, shuningdek, ularning musiqiy asarlar orqali estetik zavq olish darajasi kabi masalalar o‘rganilgan. Maqolada so‘rovnoma natijalari tahlil qilinib, o‘quvchilarning musiqiy-estetik kompetentligini rivojlantirish uchun to‘garaklarda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan pedagogik yechimlar taklif etiladi. Xususan, darsliklar va o‘quv-metodik qo‘llanmalarni takomillashtirish, o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, to‘garak mashg‘ulotlarini zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish kabi masalalarga e’tibor qaratilgan. Maqola soha mutaxassislari, o‘qituvchilar va talabalar uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: *kompetentlik, o‘quvchi, o‘quv jarayoni, kommunikativlik, musiqiy-estetik, rivojlantirish faoliyati, to‘garak mashg‘ulotlari, kasbiy mahorat.*

Annotation. This article examines the challenges in developing the musical-aesthetic competence of students in clubs operating in general education schools. To highlight the relevance of this issue, the author conducted a survey among students, exploring their interest in music education, the effectiveness of club activities, and the extent to which they derive aesthetic pleasure from musical works. The article analyzes the survey results and proposes pedagogical solutions that can be used in clubs to develop students' musical-aesthetic competence. In particular, it focuses on issues such as improving textbooks and teaching materials, enhancing teachers' professional skills, and organizing club activities based on modern technologies. This article may be useful for specialists in the field, teachers, and students.

Key words: *competence, student, educational process, communicative, musical-aesthetic, development activity, group training, professional expertise.*

Аннотация. В статье рассматриваются проблемы формирования музыкально-эстетической компетентности учащихся в кружках, действующих в общеобразовательных школах. С целью раскрытия актуальности данной проблемы автором был проведен опрос среди учащихся, в котором изучались такие вопросы, как интерес учащихся к музыкальному образованию, эффективность кружковых занятий, а также степень получения ими эстетического удовольствия от музыкальных произведений. В статье анализируются результаты опроса и предлагаются педагогические решения, которые могут быть использованы в кружках для развития музыкально-эстетической компетентности учащихся. В частности, внимание уделяется таким вопросам, как совершенствование учебников и учебно-методических пособий, повышение профессионального мастерства учителей, организация кружковых занятий на основе современных технологий. Статья может быть полезна специалистам в данной области, учителям и студентам.

Ключевые слова: *компетентность, учащийся, учебный процесс, коммуникативная, музыкально-эстетическая, развивающая деятельность, кружковые занятия, профессиональное мастерство*.

KIRISH

Yangi O‘zbekiston yoshlarining musiqiy-estetik kompetensiyasini shakllantirish zamonaviy dunyoda ularning raqobatbardoshligi va mobilligini ta’minlashning muhim ko‘rsatkichlaridan biridir. Shaxs ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan zamonaviy ta’lim paradigmasida insonning o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini anglash va o‘z-o‘zini namoyon etish muammolari alohida o‘rin egallaydi. Ta’limni insonparvarlashtirishning umumiy jarayonlari, pedagogik paradigmalarning o‘zgarishi, modellar va texnologiyalarning ustuvorligi oshib borayotganligi, pedagogik hamkorlikning subyekt-subyektga asoslangan jihatini dolzarblashtiruvchi partisipativlik g‘oyasi ushbu vazifasini yanada dolzarblashtirmoqda.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev: “Yangi O‘zbekiston maktab ostonasidan, ta’lim-tarbiya tizimidan boshlanadi”, degan g‘oya asosida keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshiramiz, degan edilar (Sh.M. Mirziyoyev, 2020-yil dekabr).

Darhaqiqat, kelajak avlod haqida qayg‘urish, sog‘lom, barkamol, komil insonni tarbiyalab, voyaga yetkazishga intilib yashash o‘zbek xalqining milliy xususiyatlaridan biridir.

Milliy va jahon musiqa madaniyatining eng yaxshi namunalarini targ‘ib qilish va ommalashtirish, yosh avlodni ma’naviy tarbiyalashning asosi bo‘lmog‘i kerak. Bu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan o‘quvchi-yoshlarning ijodkorligini shakllantirish, ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish,

musiqa va san’at turlari bo‘yicha o‘z iqtidorlarini namoyish etish borasida tavsiya etilgan 5 ta muhim tashabbusning birinchisida belgilangan. Yoshlarni musiqa, rassomlik, teatr va san’atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish, qobiliyatlarini namoyon qilishni ta’minlash choralari ko‘rilgan.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarni sinfdan tashqari ishlarida keng jalb etish maqsadida musiqa san’ati turlari bo‘yicha to‘garaklarning o‘rni katta ahamiyatga ega bo‘lib, sinfdan tashqari ta’lim-tarbiya ishlarini olib borishda ushbu to‘garaklardan foydalanish yaxshi natijalarni beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Har qanday yo‘nalishdagi mutaxassislarning musiqiy-estetik kompetensiyasini shakllantirish zamonaviy dunyoda ularning raqobatbardoshligi va mobilligini ta’minlashning muhim ko‘rsatkichlaridan biridir. Shaxs ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan zamonaviy ta’lim paradigmasida insonning o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini anglash va o‘z-o‘zini namoyon etish muammolari alohida o‘rin egallaydi. Shu munosabat bilan zamonaviy mutaxassisga qo‘yiladigan talablar ham o‘zgarib boradi va bu o‘z navbatida oliy ta’lim muassasasida talabalarni kasbiy tayyorgarligini tashkil etish, uning mazmuni, shakllari va usullarini musiqiy-estetik kompetensiyasini shakllantirish jihatidan qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Ta’limni insonparvarlashtirishning umumiy jarayonlari, pedagogik paradigmalarning o‘zgarishi, modellar va texnologiyalarning ustuvorligi oshib borayotganligi, pedagogik hamkorlikning subyekt-subyektga asoslangan jihatini dolzarblashtiruvchi partisipativlik g‘oyasi ushbu vazifasini yanada dolzarblashtirmoqda. Ijodiy ishda o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘z-o‘zini namoyon qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan shaxslarni tayyorlash uchun aniq ijtimoiy buyurtma alohida ahamiyatga ega.

“Kompetensiya” tushunchasi lotincha “competere” – qobiliyat so‘zidan olingan bo‘lib, “yaroqlilik, loyiqlik” degan ma’noni bildiradi. Ushbu so‘z keng ma’noda umumiy yoki muayyan masalalarni yechishda mavjud bilim va ko‘nikmalarni amaliy tajribada qo‘llay olishni ham anglatadi. Demak, kompetensiya – bu kutilgan natijaga olib keluvchi faoliyat, egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni amaliyotda qo‘llay olish layoqatidir.

Tilshunoslikda “kompetensiya” atamasi ilk bor XX asr o‘rtalarida N.Xomskiy tomonidan qo‘llanilgan bo‘lib, tildan foydalanish jarayonida faoliyatga yo‘naltirilgan bilim, ko‘nikma va malakalar majmui sifatida, uning izdoshlari tomonidan esa kompetensiyaviy yondashuv sifatida talqin etilgan. Bunda kompetentlik va kompetensiyaviy yondashuv tushunchalari ta’limda natijaviylikni ko‘rsatuvchi omillar sifatida qayd etiladi.

“Kompetentlik” – bu subyekt va uning faoliyatiga berilgan tavsif bo‘lib, u ko‘pincha turli ma’lumotlar beradigan lug‘at va ma’lumotnomalarda “biron-nima haqida fikr yuritish, o‘z fikr-mulohazasini bildirish imkonini beradigan bilimlarni chuqur egallash” deya ta’riflanadi. Boshqacha aytganda, kompetentlik – bu, avvalambor, ishni bajarish (maqsadga erishish) uchun nimalar zarur ekanligini tushunishning chuqur bilimlarga asoslangan darajasidir. Kasbiy kompetentlik esa kasbiy faoliyatga oid masalalarni hal etishda bilim va ko‘nikmalarni amaliy tajribada samarali qo‘llay olish mahoratidir.

Kompetensiya va kompetentlik tushunchasi qator tadqiqotlar predmetiga aylangan hamda har bir tadqiqotchi o‘z nuqtayi nazaridan izohlar bergan. Jumladan, Yu.V. Velichko “kompetensiya – bu inson tomonidan u yoki bu faoliyatning amalga oshirilishini ta’minlovchi uning maqsadlari, qadriyatlari, motivlari, shaxsiy sifatlari, bilimlari, ko‘nikmalari, malakalari, qobiliyatlari va tajribalari tizimi; kompetentlik esa, amaliyotda namoyon bo‘lgan va amalga oshgan insonning amaliy faoliyat texnologiyalarini egallash darajasi hamda shaxsning ijtimoiy-axloqiy sifatlari rivoji bilan tavsiflanuvchi kompetensiyasi” (Maxmudov A.X., 2012:12), T.Yu. Bazarov “kompetensiyani ta’lim jarayonida samarali faoliyat uchun zaruriy shart-sharoit yaratuvchi kasbiy vakolat, funksiyalar, kompetentlikni esa, kompetensiyani samarali amalga oshirishni ta’minlovchi kasbiy va shaxsiy sifatlar majmuasi sifatida ta’riflaganlar” (Bazarov T.Yu., 2014:180-182).

A.V.Xutorskiy “kompetentlik – bu mos faoliyatda samarali qarorlar qabul qilishga imkon beruvchi predmetli-o‘ziga xos bilimlarni tashkil etishning maxsus tipi” (Xutorskiy A.V., 2003:47), deb izohlagan bo‘lsa, N.A. Muslimov kompetentlikni: “Kompetentlik bu rahbarning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatining amalga oshirilishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallanishi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo‘llay olishi bilan ifodalanadi” (Muslimov N.A 2015:84-85), A.X. Maxmudov esa “kompetentlik bu doimiy o‘zgarib borayotgan sharoitlarda yoki mutaxassisning kasbiy faoliyatini samarali olib borishga imkon beruvchi shaxsga xos integrallashgan sifatlardir” (Maxmudov A.X., 2012:8-12), deb izohlagan.

Kompetensiya va kompetentlik tushunchalariga Oliy ta’limning Davlat ta’lim standartida quyidagicha ta’riflar berilgan:

Kompetensiya – bilim, malaka va shaxsiy sifatlarni ma’lum sohada muvaffaqiyatli faoliyat olib borish imkoniyatlar yig‘indisidir.

Kompetentlik – shaxsning muayyan ta’lim yo‘nalishi yoki mutaxassisligi bo‘yicha olgan bilim, malaka va ko‘nikmalari hamda shakllangan shaxsiy hislatlarini mehnat faoliyatida muvaffaqiyatli tadbiq etish qobiliyatidir.

V.G. Zarubin va A.V. Komarova o‘zining ilmiy izlanishlari asosida ilmiy manbalarda kompetentlik tushunchasiga berilgan ta’riflarni umumiy belgilariga ko‘ra quyidagi guruhlarga ajratgan:

1. Kompetentlikni shaxsni kasbiy talablarga mosligining individual darajasi sifatida izohlovchi ta’riflar (N.V. Kuz’mina, A.K. Markova, Yu.V. Vardanyan, A.A. Vorotnikova va boshqalar).

2. Kompetentlikni xodimning kasbiy faoliyat mazmuni va tavsifiga oid bilimlarga ega ekanligini tushuntiruvchi ta’riflar (V.A. Bolotov, A.B. Borovkov, L.P. Panina, A.V. Xutorskiy).

3. Kompetentlikni shaxsning o‘z kasbiy malaka va tajribalarini amaliy faoliyatda samarali qo‘llashga bo‘lgan qobiliyati sifatida izohlovchi ta’riflar (F.S. Ismagilova, E.F. Zeer, M.A. Choshanov).

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shunday xulosaga kelish mumkin. Demak, kompetentlik deganda shaxsning kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo‘llay olishi tushuniladi. Kompetentlik faoliyat tajribasini egallaganlik va o‘zlashtirishda o‘z aksini topadi. Shu sababli faoliyat tajribasini egallaganlik tayyorgarlikni ifodalaydi. Tayyorgarlik kategoriyasi esa salohiyat va qobiliyatning xususiyatlarini aniqlashtirishga xizmat qiladi.

To‘garak mashg‘ulotlari orqali o‘quvchilarda musiqiy-estetik kompetentlikni rivojlantirishda kompetensiyalarning tuzilishini aniqlashtirishga doir turli yondashuvlarni umumlashtirish asosida Yu.V. Velichko ko‘pchilik mualliflar kognitiv va individual-shaxsiy tarkibiy qismlarni ajratib ko‘rsatishini qayd etadi. Odatda, kognitiv komponent aksariyat mualliflar tomonidan bilishga doir, ya’ni ma’lum fan sohasining nazariy-metodologik asoslariga doir bilimlar tizimining shakllanganligi sifatida qaraladi, biroq kompetensiyaviy yondashuv nuqtayi nazaridan kognitiv tarkibiy qismni nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmasini baholashga imkon beruvchi malakalarning shakllanganligi, standart va nostandart vaziyatlarda qarorlar qabul qilish qobiliyati sifatida e’tirof etish maqsadga muvofiq.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning umumiy metodologik asosini ilmiy bilishning dialektik uslubiga xos tamoyillar (determinizm, umumiy aloqadorlik, taraqqiyot tamoyillari), xususiy metodologiyasini shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, gumanistik yondashuv, shuningdek, Sharq mutafakkirlarining inson aql zakovati va uning taraqqiyoti haqidagi ilmiy-falsafiy qarashlari, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun hamda 2019-yil 29- aprelda tasdiqlangan PF-5712-sonli “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, 2020 yil 6-

noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, Respublika Prezidenti va hukumatining barkamol avlod tarbiyasi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish yo‘lida qabul qilgan qarorlari, chiqarilgan farmon va farmoyishlari tashkil etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Biz o‘quvchilarning musiqiy qiziqishlarini aniqlash uchun ilmiy rahbarimiz bilan birgalikda “Musiqiy qiziqishlarni aniqlash so‘rovnomasi”ni tuzdik. So‘rovnoma Toshkent shahri Yashnobod tumani 155-maktabning 7-sinf o‘quvchilarida o‘tkazildi.

So‘rovnomaning birinchi savoliga o‘quvchilar quyidagicha javob berdilar.

1-jadval O‘quvchilarga musiqa darslari yoqishi haqida fikrlari (n=30)

Javob variantlari	Foiz (%)
Yoqadi	86,7
Yoqmaydi	13,3

Berilgan javoblardan aksariyat 86,7% o‘quvchilarga musiqa darslari yoqishini, 13,3% o‘quvchilarga yoqmasligini ko‘rish mumkin. Bu javoblardan musiqa darslari ko‘pchilik o‘quvchilarga yoqadi, degan xulosaga kelish mumkin. Biz o‘quvchilarning musiqa darslarining aynan nimasi yoqishi bilan ham qiziqdik, javoblar quyidagi 2-jadvalda keltirildi.

2-jadval O‘quvchilarga musiqa darslarining nimasi yoqishi haqida fikrlari (n=30)

Javob variantlari	Foiz (%)
Estetik zavq olaman	46,6
Qiziqarli	36,6
Rohatlanaman	16,8

Yuqoridagi javoblardan 46,6% o‘quvchilar estetik zavq olaman, 36,6% o‘quvchilar musiqa darsiga qiziqishini, 16,8% respondentlar esa musiqa darslarida rohatlanishini bildirishgan. Javoblarini qiyoslagan holda aksariyat o‘quvchilar musiqa darslaridan estetik zavq olishi aniqlandi.

Biz o‘quvchilarning dars mashg‘ulotlaridan yoki to‘garaklardan ko‘proq bilim va malaka olish mumkinligi haqidagi fikrlari bilan ham qiziqdik.

3-jadval Musiqa darslarida ko‘p bilim, malaka olish mumkinmi yoki to‘garaklarda mi savoliga o‘quvchilarning bergan javoblari (n=30)

Javob variantlari	Foiz (%)
Dars mashg‘ulotlarida	56,6
To‘garaklarda	43,4

Tadqiqot natijalaridan ma’lum bo‘lishicha, 56,6% o‘quvchilar dars mashg‘ulotlarida, 43,4% o‘quvchilar to‘garaklarda ko‘p bilim, malaka olish mumkin degan fikrni bildirishgan. Bu bilan aksariyat o‘quvchilar dars mashg‘ulotlarining to‘garaklarga qaraganda afzal bilishadi.

Shuningdek, biz tadqiqot davomida o‘quvchilarning to‘garaklarning qanday tashkil etilishi haqidagi fikrlari bilan ham qiziqdik.

4-jadval To‘garaklarning qanday tashkil etilishini istar eding savoliga o‘quvchilarning bergan javoblari (n=30)

Javob variantlari	Foiz (%)
Har haftada 1 marta	23,3
Har haftada 2 marta	70,0
Har oyda 2 marta	6,7

So‘rovnoma natijalaridan ma’lum bo‘lishicha, 23,3% o‘quvchilar har haftada bir marta, 70% o‘quvchilar har haftada 2 marta, 6,7% o‘quvchilar har oyda 2 marta to‘garak mashg‘ulotlari tashkil etilishini istashlarini bayon etishgan. Bu javoblardan shuni aniqlash mumkinki, o‘quvchilar to‘garak mashg‘ulotlarini hozirgidek haftada bir marta emas, har haftada 2 marta tashkil etilishi tarafdorlaridir.

Shu bilan bir qatorda to‘garaklarda aynan qanday mashg‘ulotlar o‘tkazilishi haqida o‘quvchilarning fikrlari ham qiziqish uyg‘otadi.

5-jadval Musiqa to‘garaklarida qanday mashg‘ulotlar o‘tkazilishini xohlardingiz savoliga o‘quvchilarning bergan javoblari (n=30)

Javob variantlari	Foiz (%)
Noan’anaviy mashg‘ulotlar	80,0
Musiqiy o‘yinlar tarzida	20,0

Bu savolga 80% o‘quvchilar noan’anaviy mashg‘ulotlar, 20% o‘quvchilar esa musiqiy o‘yinlar tarzida to‘garak mashg‘ulotlarini tashkil etish zarurligini ta’kidlagan. To‘garak mashg‘ulotlarida nafaqat musiqani, ashulani ijro etish, balki musiqa tarixini o‘rganish bo‘yicha ham qiziqarli dalillar olindi.

6-jadval Musiqa to‘garagimizda qanday musiqa tarixini o‘rganishni istar edingiz savoliga o‘quvchilarning bergan javoblari (n=30)

Javob variantlari	Foiz (%)
Mumtoz musiqa tarixi	36,6
Zamonaviy musiqa tarixi	63,4

36,6% o‘quvchilar mumtoz musiqa tarixini, 63,4% o‘quvchilar esa zamonaviy musiqa tarixini o‘rganishni istashlari aniqlandi.

7-jadval Musiqa to‘garaklarining inson salomatligi uchun qanday afzalliklari bor deb o‘ylaysiz savoliga o‘quvchilarning bergan javoblari (n=30)

Javob variantlari	Foiz (%)
Inson psixologiyasiga yaxshi ta’siri bor	83,3
Hech qanday ta’siri yo‘q	16,7

O‘quvchilarning musiqiy to‘garaklarning inson salomatligi uchun ahamiyati haqidagi fikrlari ham qiziqarlidir. 83,3% inson psixologiyasiga yaxshi ta’siri bor deb javob bergan bo‘lsalar, 16,7% hech qanday ta’siri yo‘q deb javob berishgan. Bu javoblardan shunday xulosaga kelish mumkin ki, o‘quvchilar musiqaning inson psixologiyasiga, uning kayfiyatini ko‘tarishga ijobiy ta’sirini ta’kidlagan. Hattoki og‘ir kasallarni Motsart, Chaykovskiy kabi jahon musiqasi durdonalarining asarlari bilan artterapevtik usullar bilan davolashgan.

So‘rovnomada o‘quvchilarning musiqa to‘garagi mashg‘ulotlarida mashhur musiqa bastakorlari bilan uchrashuvlar tashkil etish haqidagi savol bilan ham murojaat qildik, uning natijalari quyida keltirilgan.

8-jadval Musiqa to‘garagi mashg‘ulotlarida mashhur musiqa bastakorlari bilan uchrashuvlarni xohlaysizmi savoliga o‘quvchilarning bergan javoblari (n=30)

Javob variantlari	Foiz (%)
Ha	73,3
Yo‘q	16,6
Bilmayman	10,1

73,3% o‘quvchilar musiqa to‘garagi mashg‘ulotlarida mashhur musiqa bastakorlari bilan uchrashish istaklari borligini, 16,6% bunday uchrashuvni istamasliklarini, 10,1% o‘quvchilar esa bilmayman javobi bilan kifoyalanishgan. Demak, aksariyat o‘quvchilar mashhur kuy va qo‘shiqlar mualliflari bilan uchrashishni, ularning hayot va ijodi bilan yaqindan tanishishni, katta bo‘lganlarida ulardek mashhur inson bo‘lishni istashadi.

Shuningdek, savolnomada o‘quvchilarning musiqa to‘garaklarini nafaqat sinf xonalarida, balki tabiat qo‘ynida o‘tkazish haqidagi fikrlari bilan ham qiziqdik.

9-jadval Musiqa to‘garaklari tabiat qo‘ynida o‘tkazilsa estetik zavq olasizmi savoliga o‘quvchilarning bergan javoblari (n=30)

Javob variantlari	Foiz (%)
Ha	53,3
Yo‘q	46,7

53,3% o‘quvchilar musiqa to‘garaklari tabiat qo‘ynida o‘tkazilsa estetik zavq olishini, 46,7% o‘quvchilar esa rad javobini berishgan. O‘quvchilarning teng yarmisi musiqa darslarini tabiat qo‘ynida o‘tkazilishi tarafdorlaridir.

10-jadval Musiqa to‘garagiga ko‘p do‘stlaringizni taklif qilasizmi savoliga o‘quvchilarning bergan javoblari (n=30)

Javob variantlari	Foiz (%)
Ha	83,3
Yo‘q	16,7

83,3% o‘quvchilar musiqa to‘garagiga ko‘p do‘stlarini taklif qilishini, 16,7% o‘quvchilar esa rad javobini berishgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘quvchilarda musiqiy qiziqishlarni rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Kompetentlik – bu subyekt va uning faoliyatiga berilgan tavsif bo‘lib, u ko‘pincha turli ma’lumotlar beradigan lug‘aviy-me’yoriy adabiyotlarda “biror narsa haqida fikr yuritish, o‘z fikr-mulohazasini bildirish imkonini beradigan bilimlarni chuqur egallash” deya ta’riflanadi. Boshqacha aytganda, kompetentlik – bu, avvalambor, ishni bajarish (maqsadga erishish) uchun nimalar zarur ekanligini tushunishning chuqur bilimlarga asoslangan darajasidir. Kasbiy kompetentlik esa kasbiy faoliyatga oid masalalarni hal etishda bilim va ko‘nikmalarni amaliy tajribada samarali qo‘llay olish mahoratidir.

Tadqiqot doirasida o‘quvchilarda musiqiy-estetik kompetentlikni to‘garak mashg‘ulotlarida rivojlantirishdan jarayonlar, shu jumladan, musiqiy-estetik bilim, malaka, ko‘nikma, qadriyatlar, musiqiy-estetik yo‘nalish va motivatsiya, musiqiy-estetik vositalarni egallash, musiqiy-estetik holatlarni to‘g‘ri idrok etish, o‘quvchilar bilan musiqiy-estetik faoliyatni amalga oshirishga tayyorlikni ta’minlaydigan shaxsiy sifat va xususiyatlar majmuidir, degan xulosaga kelindi.

O‘tkazilgan so‘rovnoma natijalaridan aniqlanishicha, musiqa darslari ko‘pchilik o‘quvchilarga yoqadi, musiqa darslaridan estetik zavq olishi aniqlandi. Aksariyat o‘quvchilar dars mashg‘ulotlarining to‘garaklarga qaraganda afzal bilishadi. O‘quvchilar to‘garak mashg‘ulotlarini hozirgidek haftada bir marta emas, har haftada 2 marta tashkil etilishi tarafdorlaridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil dekabr.

2. Базаров Т.Ю. (2014) Коллективное определение понятия «компетенции»: попытка извлечения смысловых тенденций из размытого экспертного знания // Вестник Московского университета. Серия 14. №1. – С. 87-88.

3. Величко Ю.В. (2004) Формирование аудиовизуальной музыкальной культуры старших подростков гуманитарной гимназии: На материале факультативных и музыкальных занятий. Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – С.24

4. Maxmudov A.X. (2012) Uzluksiz ta’lim jarayoniga kompetentlik yondashuvini joriy qilishning didaktik asoslari // Uzluksiz ta’lim. №4. – B. 8-12.

5. N.A.Muslimov, M.H. Usmonboyeva, D.M.Sayfurov, A.B.To‘rayev (2015) Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. Toshkent. 95 b.

6. Хуторский А.В. (2003) Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. №2. С. 45-49.

7. Yusupova M.A. (2018) Musiqiy ta’limda o‘quvchilarning estetik qiziqishlarini shakllantirishning pedagogik asoslari // O‘zbekistonda ilm-fan va ta’lim. №3. – B. 45-50.

8. Zayniyev R.M. (2019) O‘quvchilarning musiqiy-estetik kompetensiyasini rivojlantirishda to‘garaklarning o‘rni // Ta’lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar. №2. – B. 32-37.

REFERENCES:

1. Mirziyoev Sh.M. Address of the President of the Republic of Uzbekistan Sh. Mirziyoev to the Supreme Assembly. December 2020 (in Uzbek)

2. Bazarov T.Yu. (2014) s saavt. Kollektivnoe opredelenie ponyatiya "kompetentisii": popytka izvlecheniya smyslovykh tendentsii iz razmytogo ekspertnogo znaniya. // Vestnik Moskovskogo universiteta. Series 14. #1. – P.87-88. (in Russian)

3. Velichko Yu.V. (2004) The formation of audiovisual musical culture of the senior junior high school humanities gymnasium: Both the material is facultative and the musical is professional. Autoref. dis..... k.ped.n. 24 p. (in Russian)

4. Makhmudov A.Kh. (2012) Didactic foundations of introducing the competence approach to the continuous education process // Continuous education. №. 4. – P.8-12 (in Uzbek)

5. N.A.Muslimov, M.H.Usmonboeva, D.M.Sayfurov, A.B.Torayev (2015) "Basics of pedagogical competence and creativity". – Tashkent. 95 p (in Uzbek)

6. Khutorsky A.V. (2003) Klyuchevye kompetentnosti kak component lichnostno-orientirovannoy paradigm obrazovanie // Narodnoe obrazovanie. №. 2. – P. 45-49. (in Russian)

7. Yusupova M.A. (2018) Musiqiy ta’limda o‘quvchilarning estetik qiziqishlarini shakllantirishning pedagogik asoslari // O‘zbekistonda ilm-fan va ta’lim. №3. – B. 45-50.

8. Zayniyev R.M. (2019) O‘quvchilarning musiqiy-estetik kompetensiyasini rivojlantirishda to‘garaklarning o‘rni // Ta’lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar. №2. – B. 32-37.

ENHANCING CULTURAL COMPETENCE THROUGH REALIA IN FOREIGN LANGUAGE EDUCATION: DIDACTIC POTENTIAL
XORIJIY TIL TA'LIMIDA REALIYLAR ORQALI MADANIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH: DIDAKTIK IMKONIYATLAR
ФОРМИРОВАНИЕ КУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ЧЕРЕЗ РЕАЛИИ В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ: ДИДАКТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ

Egamberdiyeva Shahzoda Damirovna
Oriental Universiteti dotsenti,
Pedagogika fanlari nomzodi PhD
Tel.:+998998495575
E-mail: egamberdiyevash@mail.ru
Tursunaliyeva Muxlisa Baxtiyor qizi
Oriental Universiteti, Filologiya yo'nalishi
4-bosqich talabasi

Abstract. This article explores the pedagogical significance of using realia in developing cultural competence in foreign language education. Realia—authentic cultural objects, expressions, and symbols—create a tangible link between linguistic forms and their cultural contexts. Integrating realia into instruction provides learners with authentic exposure to the target language's sociocultural realities, transforming abstract vocabulary and grammar into meaningful communicative experiences. The study demonstrates that realia-based methodology enhances motivation, intercultural sensitivity, and pragmatic language understanding. As cognitive and affective tools, realia foster cultural awareness, empathy, and contextual learning—essential for holistic communicative competence. Findings affirm that incorporating realia promotes a dynamic, culture-oriented, and learner-centered approach to modern language teaching.

Keywords: *realia, cultural competence, intercultural communication, methodology, language teaching, contextual learning.*

Аннотация. В статье рассматривается педагогическая значимость использования реалий в развитии культурной компетенции при обучении иностранным языкам. Реалии – аутентичные культурные объекты, выражения и символы – создают осязаемую связь между языковыми формами и культурным контекстом их функционирования. Интеграция реалий в учебный процесс обеспечивает учащимся аутентичное знакомство с социокультурной реальностью целевого языка, превращая абстрактные знания в осмысленный коммуникативный опыт. Исследование демонстрирует, что методика на основе

реалий повышает мотивацию, межкультурную чувствительность и прагматическое понимание языка в контексте. Реалии выступают когнитивными и аффективными инструментами, формируя культурную осведомлённость, эмпатию и контекстное восприятие, необходимые для целостной коммуникативной компетенции. Результаты подтверждают, что включение реалий способствует более динамичному, культурно ориентированному и личностно-центрированному подходу к современному языковому обучению.

Ключевые слова: *реалии, культурная компетенция, межкультурная коммуникация, методика, обучение языку, контекстное обучение.*

Annotatsiya. Maqolada xorijiy tillar ta’limida madaniy kompetensiyani rivojlantirishda realiylardan foydalanishning pedagogik ahamiyati yoritilgan. Realiylar – haqiqiy madaniy ob’ektlar, iboralar va ramzlar – til shakllari bilan ularning madaniy konteksti o‘rtasida bevosita bog‘liqlik yaratadi. Dars jarayoniga realiylarni kiritish o‘quvchilarga o‘rganilayotgan tilning ijtimoiy-madaniy haqiqatlari bilan tanishish imkonini beradi, nazariy bilimlarni amaliy kommunikativ tajribaga aylantiradi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, realiylarga asoslangan metodika talabalar motivatsiyasini, madaniyatlararo sezgirligini va tilning kontekstda qo‘llanilishini chuqurroq anglashini rivojlantiradi. Realiylar kognitiv va affektiv vosita sifatida madaniy ongni, empatiyani va kontekstual o‘rganishni rag‘batlantiradi – bular butunlay kommunikativ kompetensiyani shakllantirish uchun zarur. Natijalar shuni tasdiqlaydi ki, realiylarni qo‘llash zamonaviy til o‘qitishda dinamik, madaniyatga yo‘naltirilgan va o‘quvchiga asoslangan yondashuvni ta’minlaydi.

Kalit so‘zlar: *realiya, madaniy kompetensiya, madaniyatlararo muloqot, metodika, til o‘qitish, kontekstual o‘rganish.*

INTRODUCTION

In the era of globalization and intensified intercultural exchange, foreign language education has undergone a profound transformation from a purely linguistic discipline into a multidimensional process that integrates linguistic, cognitive, and cultural development. The communicative paradigm of teaching emphasizes that language is not merely a system of grammatical rules but a living social phenomenon that embodies the worldview, mentality, and cultural identity of its speakers (Kramsch, 1993: 21). Consequently, modern pedagogy views linguistic competence and cultural competence as inseparable components of communicative proficiency, where meaning arises through interaction within a specific sociocultural context.

Within this framework, *realia* – authentic cultural objects, symbols, and phenomena representing the material and spiritual heritage of a nation – serve as a valuable pedagogical resource for bridging the gap between linguistic knowledge and lived cultural experience. The inclusion of realia in language instruction enables

learners to encounter the target culture directly rather than through abstract description, fostering deeper semantic understanding and intercultural empathy (Joseph, 2000: 403). Through the use of realia, students can observe how language reflects social behavior, values, traditions, and patterns of thought, which in turn promotes a more holistic and humanistic approach to language learning.

Moreover, the application of realia supports the principles of experiential learning and constructivist theory, according to which knowledge is acquired through active engagement with authentic contexts (Kolb, 1984: 41; Vygotsky, 1978: 56). By engaging with tangible cultural materials – such as literature, artifacts, idiomatic expressions, or digital representations – learners are not only exposed to linguistic input but also to the semiotic systems underlying cultural communication. This multidimensional exposure cultivates intercultural awareness, empathy, and tolerance – qualities regarded as essential for the development of communicative competence in the 21st-century educational paradigm (Byram, 1997: 72).

Thus, the integration of realia into the process of foreign language teaching represents a methodological shift from formal language training to culturally contextualized education. It transforms the classroom into a microcosm of intercultural dialogue where linguistic and cultural codes interact dynamically, preparing learners to function effectively in a multicultural world.

LITERATURE REVIEW

The interrelation between language and culture has been one of the most recurrent themes in linguistic and pedagogical research. Kramsch (1993: 21) argues that language functions as a symbolic system through which individuals construct cultural identity and social reality. Therefore, language learning must be understood as a process of cultural participation rather than mechanical acquisition of grammar and vocabulary. This view is supported by Byram (1997: 72), who conceptualizes *intercultural communicative competence* as an integration of linguistic skills, sociocultural awareness, and reflective attitudes that enable learners to communicate meaningfully across cultures.

Tomalin and Stempleski (1993: 45) emphasize the pedagogical value of authentic materials, noting that the inclusion of *realia* – everyday cultural artifacts, expressions, and texts – stimulates emotional engagement and contextualized understanding. Their research demonstrates that learners exposed to authentic cultural content develop stronger motivation and deeper semantic awareness. Joseph (2000: 403) extends this perspective by asserting that realia help students perceive language as a social and ideological practice embedded in the cultural fabric of a community.

Vygotsky's (1978: 56) socio-cultural theory further substantiates this approach by viewing learning as a process mediated through culturally meaningful tools and social interaction. Within this theoretical framework, realia function as mediators that facilitate cognitive development and cultural internalization. Recent studies, such as Liddicoat (2011: 134), expand the notion of realia into the digital sphere, where virtual tours, multimedia resources, and online archives simulate authentic intercultural experiences.

Taken together, these contributions demonstrate that realia-based teaching aligns with the principles of constructivist pedagogy and experiential learning. It not only enhances language proficiency but also fosters intercultural empathy and critical cultural reflection, thereby serving as a bridge between linguistic competence and cultural literacy.

RESEARCH METHODOLOGY

This study adopts a qualitative-descriptive methodology supported by classroom observation to explore how realia enhance cultural competence in foreign language education. The design follows an interpretive paradigm focusing on meaning, interaction, and authentic experience rather than numerical generalization.

ANALYSIS AND RESULTS

Participants and Setting

The research was conducted at *Oriental University* among 42 undergraduate linguistics students (aged 19–22) with B1–B2 English proficiency levels. The context of the study was the course *Communicative Competence and Cultural Awareness*, where realia-based instruction could be effectively implemented.

Table 1. Overview of Research Design

Stage	Focus of Instruction	Type of Realia Used	Main Learning Activity	Expected Outcome
Stage 1 Presentation	Introduction to cultural material	Visual (pictures, artifacts, maps)	Observation, description	Initial cultural recognition
Stage 2 Interpretation	Analysis of meanings and values	Verbal (idioms, proverbs, authentic texts)	Group discussion, comparison	Cultural understanding, empathy

Stage 3 Application	Contextual language use	Digital (videos, virtual tours, online archives)	Role plays, debates, written reflection	Pragmatic and communicative competence

Data were collected using three complementary instruments: classroom observation protocols, reflective journals, and semi-structured interviews. The triangulation of these tools allowed cross-validation of results and ensured methodological reliability.

Table 2. Data Collection Instruments and Purpose

Instrument	Description	Purpose of Use	Data Type
Observation Protocols	Teacher records of classroom engagement	To assess behavioral indicators of motivation and participation	Qualitative notes
Reflective Journals	Student narratives about cultural learning experiences	To capture self-reported growth in cultural awareness	Descriptive texts
Semi-Structured Interviews	End-of-course discussions with selected participants	To explore attitudes toward realia-based learning	Transcribed responses

The six-week instruction cycle followed the stages presented in Table 1. Thematic coding was applied to analyze textual data, focusing on patterns such as *cultural empathy*, *contextual understanding*, and *intercultural adaptability*. Following the grounded-theory approach (Strauss & Corbin, 1998: 67), categories emerged inductively from the corpus of observations and reflections.

This methodological framework ensured both the credibility and transferability of findings by integrating multiple sources of evidence and maintaining coherence between theoretical premises and pedagogical practice.

The chosen methodological framework proved appropriate for the aims of the study, as it combined theoretical rigor with pedagogical practicality. The triangulation of observation, reflection, and interview data allowed for a holistic understanding of how students interacted with realia and how these interactions influenced their cultural development. The inductive analysis revealed consistent evidence that students engaged more deeply when cultural materials were embedded in communicative activities rather than presented as isolated linguistic content.

Moreover, the multi-stage instructional design ensured that learners progressed from simple recognition of cultural symbols to critical interpretation and, finally, to creative application in authentic communicative tasks. This progression reflects the dynamic nature of intercultural learning, which evolves through exposure, reflection,

and experiential practice. Consequently, the collected data provided a solid empirical basis for analyzing the pedagogical effects of realia in foreign language education.

The analysis of data obtained from classroom observations, reflective journals, and interviews demonstrated a clear pedagogical impact of realia-based instruction on students' cultural competence and communicative engagement. Thematic coding identified three recurring dimensions – motivation, cultural awareness, and pragmatic competence – which collectively describe the transformation of learners' attitudes and behaviors during the six-week instructional cycle.

1. Development of Motivation

At the initial stage, many students perceived culture-related content as supplementary to linguistic learning. However, as realia were incorporated into classroom tasks – through authentic objects, idiomatic expressions, and visual media – students exhibited greater emotional involvement and intrinsic motivation. Observation protocols noted increased participation, curiosity about cultural nuances, and spontaneous use of new vocabulary in communicative contexts. Interviews confirmed that learners felt "closer to the language" when encountering tangible cultural realities rather than abstract explanations.

2. Growth of Cultural Awareness

Reflective journals revealed significant progress in students' ability to interpret cultural meanings and compare them with their own sociocultural background. Learners moved from superficial recognition of cultural symbols to critical reflection on values, behaviors, and communication styles. This transition supports Byram's (1997: 72) notion that intercultural competence involves both knowledge *of* culture and awareness *about* cultural difference. Students demonstrated an improved capacity to identify stereotypes, express empathy, and discuss cultural identity issues in English, suggesting a shift toward a more tolerant and reflective mindset.

3. Enhancement of Pragmatic Competence

The pragmatic dimension of communication also showed notable improvement. Through the use of verbal and digital realia – such as dialogues, authentic advertisements, and video excerpts – students became more adept at selecting language forms appropriate to social context. They learned to interpret implied meanings, humor, and politeness strategies typical of native speech. Classroom discussions revealed that students could adjust their communicative behavior according to situational norms, thus bridging linguistic competence with real-world communication skills.

Table 3. Comparative Summary of Learners' Development

Competence Dimension	Before Instruction	After Realia-Based Instruction	Observed Change
Motivation	Low to moderate interest; passive participation	High engagement; active participation; curiosity about culture	Increased intrinsic motivation and positive learning attitude
Cultural Awareness	Limited understanding of cultural symbols and values	Ability to interpret, compare, and evaluate cultural phenomena	Deepened intercultural understanding and empathy
Pragmatic Competence	Literal translation; limited contextual awareness	Appropriate use of language in sociocultural situations	Improved communicative adaptability and contextual accuracy

The data collectively confirm that the integration of realia transforms the classroom into an intercultural learning environment. Learners develop not only linguistic proficiency but also socio-cultural intelligence, enabling them to function effectively in multicultural contexts. The emotional and cognitive engagement observed corresponds to Vygotsky's (1978: 56) principle of *mediated learning*, where cultural tools facilitate intellectual growth.

Furthermore, the findings suggest that realia act as semiotic bridges linking linguistic signs with cultural meaning, thereby enhancing memory retention and contextual comprehension. This aligns with constructivist theories emphasizing that knowledge is best internalized through meaningful experience rather than rote memorization (Kolb, 1984: 41). Overall, the results demonstrate that realia-based methodology significantly contributes to the holistic formation of intercultural communicative competence.

CONCLUSION

The findings of this study indicate that realia constitute a robust pedagogical medium for developing cultural competence within foreign language education. By mediating between linguistic form and sociocultural meaning, realia enable learners to experience language as a set of culturally embedded practices rather than as decontextualized structures. The six-week instructional cycle demonstrated consistent gains across three interrelated dimensions – motivation, cultural awareness, and pragmatic competence – showing that authentic cultural materials foster deeper engagement, nuanced interpretation of cultural phenomena, and contextually appropriate language use. In this sense, realia function as semiotic bridges that transform classroom input into lived communicative experience.

Methodologically, the triangulation of observations, reflective journals, and semi-structured interviews proved effective for capturing the qualitative shifts in learners' attitudes and behaviors. The inductive, grounded-theory analysis revealed that progress

unfolds as a sequence: initial recognition of cultural symbols, subsequent interpretive reflection, and finally, creative application in communicative tasks. This experiential trajectory resonates with socio-constructivist accounts of learning, where knowledge is co-constructed through interaction with meaningful cultural tools. The coherence between theoretical premises and pedagogical practice strengthens the credibility and transferability of the results to comparable higher-education contexts.

Pedagogically, the study underscores several actionable implications. First, systematic integration of visual, verbal, and digital realia should be planned as a staged progression – presentation, interpretation, application – to scaffold intercultural learning. Second, tasks must require learners to compare cultural frames, negotiate meaning, and adopt appropriate discourse practices, thus aligning linguistic outcomes with intercultural objectives. Third, assessment should move beyond discrete-point testing to include reflective writing, performance-based evaluation, and pragmatic tasks that evidence contextual appropriateness. Collectively, these measures support a learner-centered, culture-oriented curriculum that treats cultural competence as integral to communicative proficiency.

At the institutional level, the results advocate for targeted teacher development in designing and curating realia (including ethical and accurate representation of cultures), as well as for curricular guidelines that allocate time and credit to intercultural outcomes. Libraries and digital repositories can play a pivotal role by providing access to curated collections – virtual museum tours, community archives, authentic media – that expand the range of "technological realia." Embedding such resources within learning management systems would normalize authentic cultural engagement across courses and semesters.

The study has limitations typical of qualitative classroom research: a single-site setting, a relatively small cohort, and reliance on self-reported reflections alongside observation. Future research should triangulate these insights with longitudinal designs, mixed-methods measures, and comparative studies across proficiency levels and cultural contexts. Investigations into the differential efficacy of specific types of realia (e.g., folklore artifacts vs. contemporary social media texts), as well as into scalable digital simulations (VR/AR), would refine our understanding of how authenticity and immersion interact with learning outcomes. Despite these constraints, the present evidence substantiates the claim that realia-based instruction is not ancillary but foundational to cultivating holistic intercultural communicative competence in modern language education.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI/REFERENCES:

1. Byram M. (1997). Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. Clevedon: Multilingual Matters.

2. Creswell J. W. (2012). Educational Research: Planning, Conducting, and Evaluating Quantitative and Qualitative Research. Boston: Pearson Education.

3. Joseph P. (2000). The American Heritage Dictionary of English Language. Boston: Houghton Mifflin.

4. Kolb D. A. (1984). Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall.

5. Kramsch C. (1993). Context and Culture in Language Teaching. Oxford: Oxford University Press.

6. Seelye H. N. (1993). Teaching Culture: Strategies for Intercultural Communication. Lincolnwood, IL: National Textbook Company.

7. A.Strauss J. Corbin (1998). Basics of Qualitative Research: Techniques and Procedures for Developing Grounded Theory. Thousand Oaks, CA: Sage Publications.

8. Liddicoat A. J. (2011). Intercultural Language Teaching and Learning. Oxford: Wiley-Blackwell.

9. B. Tomalin, S.Stempleski (1993). Cultural Awareness. Oxford: Oxford University Press.

10. Vygotsky L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMNING ONA TILI VA O‘QISH O‘QUV DASTURI MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISH BO‘YICHA TAHLILIY TAKLIFLAR VA MULOHAZALAR

ANALYTICAL PROPOSALS AND CONSIDERATIONS FOR IMPROVING THE CONTENT OF THE MOTHER TONGUE AND READING CURRICULUM IN PRIMARY EDUCATION

АНАЛИТИЧЕСКИЕ ПРЕДЛОЖЕНИЯ И ЗАМЕЧАНИЯ ПО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ СОДЕРЖАНИЯ УЧЕБНОЙ ПРОГРАММЫ ПО РОДНОМУ ЯЗЫКУ И ЧТЕНИЮ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi
Oriental universiteti Uzluksiz ta’lim pedagogikasi kafedrasi dotsenti v.b.
Tel.: +998948424020
E-mail: muqaddasfarangiz91@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim bosqichida ona tili va o‘qish fanlari bo‘yicha amaldagi o‘quv dasturi tahlil qilinadi hamda uning mazmuniy jihatlarini takomillashtirish bo‘yicha taklif va mulohazalar ilgari suriladi. Asosiy e’tibor dasturda mavjud bo‘lgan kamchiliklar, zamonaviy pedagogik yondashuvlarga mos kelmaydigan jihatlar, shuningdek, o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga va o‘qish ko‘nikmalarining shakllanish bosqichlariga qaratilgan.

Tahlil davomida kompetensiyaviy yondashuv asosida dars mazmunini boyitish, interfaol metodlar bilan uyg‘unlashtirish, shuningdek, o‘quv materiallarining mantiqiy ketma-ketligini takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar beriladi. Maqolada ilgari surilgan takliflar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining savodxonligini oshirish, tanqidiy fikrlash va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu tavsiyalar boshlang‘ich ta’lim sifatini yanada oshirishga qaratilgan bo‘lib, ilg‘or tajribalar va xalqaro standartlar asosida tayyorlangan.

Kalit so‘zlar: *Ona tili, Finlyandiya, o‘quv dastur, savodxon, Kanji, Hiragana, fonema, milliy o‘quv dasturi.*

Annotation. This article presents a comprehensive analysis of the current curriculum for the mother tongue and reading subjects in primary education. Analytical proposals and comments are provided to improve the content of the curriculum. The main focus is placed on identifying existing shortcomings, aspects that do not align with modern pedagogical approaches, and considering students' age-specific characteristics and stages of reading skill development.

The analysis offers practical recommendations for enriching lesson content based on a competency-based approach, integrating interactive teaching methods, and improving the logical sequence of educational materials. The suggestions put forward in the article aim to enhance primary students' literacy, critical thinking, and expressive reading skills. These recommendations are developed based on advanced local and international practices and are aimed at improving the quality of primary education.

Keywords: *Mother tongue, Finland, curriculum, literacy, Kanji, Hiragana, phoneme, national curriculum.*

Аннотация. В данной статье проведён всесторонний анализ действующей учебной программы по родному языку и чтению на начальном уровне образования. Представлены аналитические предложения и замечания по совершенствованию содержания программы. Основное внимание уделено выявлению существующих недостатков, несоответствий современным педагогическим подходам, а также учёту возрастных особенностей учащихся и этапов формирования навыков чтения.

В процессе анализа даны практические рекомендации по обогащению содержания уроков на основе компетентностного подхода, интеграции интерактивных методов обучения и улучшению логической последовательности учебных материалов. Предложенные в статье идеи направлены на развитие грамотности, критического мышления и выразительного чтения у учащихся начальных классов. Рекомендации разработаны с учётом передового отечественного и международного опыта и направлены на повышение качества начального образования.

Ключевые слова: *Родной язык, Финляндия, учебная программа, грамотность, кандзи, хирагана, фонема, национальная учебная программа.*

KIRISH

Mamlakatimizda ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini xalqaro talablar asosida shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, boshlang‘ich ta’lim bosqichi — o‘quvchining shaxs sifatida shakllanishi, fikrlashi va bilim olishga bo‘lgan munosabatining asoslari yaratiladigan muhim bosqich hisoblanadi. Shu jihatdan ona tili va o‘qish fanlari boshlang‘ich ta’limning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, bolalarning savodxonligi, og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish, mustaqil fikrlash, tahlil qilish hamda muloqotga kirishish qobiliyatini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

So‘nggi yillarda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ona tili o‘qitish metodikasi, xususan, og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish, imlo savodxonligi bo‘yicha bir qancha ilmiy-metodik tadqiqotlar olib borildi. Jumladan, I. Karimov, M. Turayeva. “Boshlang‘ich sinflarda ona tili va o‘qish darslarini o‘qitish metodikasi” (2020) – mazkur qo‘llanma dars jarayonida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan interfaol usullar, kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi topshiriqlar haqida batafsil ma’lumot beradi. Biroq, bunda ko‘proq nazariy yondashuvlar ustun bo‘lib, amaliy tavsiyalar yetarli darajada emas.

X. Axmedova, N. Raxmonqulova. “Boshlang‘ich ta’limda savod o‘rgatish va o‘qish malakasini shakllantirish” (2021) – asarida o‘quvchilarda ifodali o‘qish, tushunib o‘qish, matn ustida ishlash malakalarini bosqichma-bosqich shakllantirish bo‘yicha samarali metodikalar bayon etilgan. Bu ish maqola mavzusi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, o‘quv dasturining didaktik tuzilishini tahlil qilishga asos yaratadi.

OECD (PISA) hisobotlari va UNESCO tavsiyalari – dunyo tajribasida boshlang‘ich ta’limda funksional savodxonlik, tanqidiy va reflektiv fikrlashni shakllantirish asosiy maqsad sifatida belgilangan. Ushbu manbalar O‘zbekiston ta’lim tizimida ona tili va o‘qish fanlarini qayta ko‘rib chiqish zarurligini asoslashda muhim manba bo‘la oladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ishda pedagogik kuzatuv, ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, savolnoma, suhbat, umumlashtirish, tajriba-sinov, matematik statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini fonetik, morfologik, stilistik, punktuatsion va husnixatga oid grammatik tushunchalar, ijodiy mashqlar yordamida imloviy savodxonlikni rivojlantirish metodikasi ona tili ta’limi jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan.

1.Ona tili va o‘qish fani o‘quv dasturlari mazmuni yuzasidan xorijiy davlatlarning tajribasi.

Zamonaviy dunyoda ta’lim tizimini rivojlantirish dolzarb muammolardan biri sifatida tan olingan. Rivojlangan davlatlar ta’limda konseptual o‘zgarishlarni olib kelish uchun ular izlanishlarni amalga oshiradi.

Yaponiyada bolalar jahon miqyosida hisob-kitob va savodxonlik borasida ko‘proq qobiliyatga ega.

Butun dunyodagi bolalar odatda o‘rtacha 26-33 harfni (ba’zi bir Osiyo tillarini hisobga olmaganda piktografik yondashuvni) o‘rgansalar, yapon bolalari boshlang‘ich ta’limda yapon tilida o‘qish va yozish uchun 1850 iyeroglifni o‘rganishi kerak.

Yaponiyalik ota-onalar farzandlariga barcha belgilarni o‘rganish va ularni yozma muloqotda ishlatish qanchalik qiyin bo‘lishi mumkinligini biladi. Biroq, o‘qitishga yuqori sifatli yondashuv tufayli, boshlang‘ich maktabdan chiqib ketish vaqtida, yapon bolalari allaqachon 1.000 kanji belgilarini bilib oladi.

Kanji bilan bir qatorda, Yaponiyada ikkita alifbo turi hiragana va katakana[1] mavjud. Har bir to‘plamda 46 ta belgilar mavjud (odatda “ka” kabi). Asil tovushlarni o‘zgartirish uchun ishlatiladigan aniq nuqtalar bilan birlashgan holda, bu belgilar zamonaviy yapon tilining barcha tovushlarini ifodalash uchun yetarli. (Doniyarov Mavlonbek 2023:12)

Hiragana oddiy yaponcha so‘zlarni yozish uchun kanji bilan birgalikda ishlatiladi. Katakana boshqa tillardan olingan so‘zlarni, begona odamlar va joylar, tovushlar va hayvonlarning hayqiriqlarini yozish uchun ishlatiladi.

Yaponiya davlat ta’lim tizimi bu mamlakatda milliy g‘urur bo‘lib, Yaponiyalik o‘quvchilarga butun dunyodagi hamkasblarini osonlikcha, yaxshiroq bajarishga yordam bergan an’anaviy uslubdir. PISA testlari buni yana bir bor tasdiqlaydi.

Ularning ta’lim tizimi juda yaxshi bo‘lgani sababli, Yaponiyada dunyoning eng yaxshi o‘qitiladigan aholisi (100% majburiy sinflarga va noqonuniy savodsizlikka ega) mavjud.

Ular o‘qitadigan fanlar orasida yapon tili, matematika, ijtimoiy tadqiqotlar, musiqa, qo‘l mehnati san’atlari, jismoniy tarbiya va uy iqtisodiyoti (oddiy pazandalik va tikuvchilik ko‘nikmalarini o‘rganish) kiradi.

O‘quvchilar shodo (xattotlik) va haiku kabi an’anaviy yapon san’atlarini ham o‘rganadi.

Haiku, taxminan, 400-yil oldin Yaponiyada ishlab chiqilgan she’riyatning bir shakli bo‘lib, 17 shevadan iborat she’riy shaklga ega. O‘quvchilarga chuqur his-tuyg‘ularni etkazish uchun oddiy so‘zlar ishlatiladi.

Finlyandiya Ma’lumki, so‘nggi paytlarda Finlyandiyadagi ta’lim tizimi dunyodagi eng yaxshi tizim ekanligi va mazkur tizimning bunday maqomga erishishda yordam beradigan radikal (Buyuk Britaniya va AQSh ta’lim tizimi bilan

[1] https://www.wikiwand.com/uz/articles/Kana_(yapon_alifbosi)

solishtirganda) g‘oyalar qanday ishlayotgani haqidagi fikrlar matbuotda keng muhokama qilinmoqda.

Finlyandiya maktablari o‘quv rejasiga ko‘ra, to‘qqiz yillik haftalik umumiy yuklama 233 soat. Finlar shundan 42 soatini ona tili va adabiyot faniga ajratadi. Finlyandiya maktablarida ona tili sifatida fin, shved, sami, sigan tili o‘qitiladi. Mamlakatda ikkita davlat tili mavjud. Ona tili fin tili bo‘lganlar shved tilini, ona tili shved tili bo‘lganlar fin tilini davlat tili sifatida o‘rganadi. Ona tili sami yoki sigan, rus tili bo‘lganlar ham fin yoki shved tilini o‘rganishadi. (Zokirova S., Yuldasheva M., 2023:16)

Birinchi-ikkinchi sinflarda ona tili va adabiyotni o‘qitishda o‘quvchilarning individual qobiliyatini hisobga olgan holda ongli yondashish, o‘zini namoyon qilish va muloqot layoqatini, shuningdek, tinglash, gapirish, o‘qish va yozish qobiliyatini rivojlantirish alohida vazifa hisoblanadi.

Fin tili – muayyan flektiv elementlarga ega bo‘lgan agglyutinativ til. Fonologik tizim 8 unli va 13 undosh fonemadan iborat; ularning har biri (j, v, h, d dan tashqari) cho‘ziqlik darajasi bo‘yicha qarama-qarshi qo‘yiladi; bu imloda a – aa, o – oo, t – tt, r – rr kabi (qisqa cho‘ziq) aks etadi. Ba’zi tuzilmalarda unlilar garmoniyasi kuzatiladi. Unli fonemalar miqdori diftonglar (16 ta) hisobiga ko‘payadi. Morfologik belgilari: jins kategoriyasi yo‘q; otlar 13 kelishik bilan o‘zgaradi; fe’llar 2 xil tuslanishda, 4 mayl, 4 zamon, 3 shaxs shakllari bilan o‘zgaradi, sintaksis sohasida so‘z tartibi nisbatan erkin.

Adabiy tilning shakllanishi va rivojlanishida 2 davr: eski fin (1540-1820) va yangi fin (19-asrning 20-yillaridan boshlab) davrlari ajratiladi. Finlyandiyaning shved mustamlakasidan ozod bo‘lguniga qadar (1809) rasmiy til sifatida shved tili ustunlik qilib, adabiy Fin tili deyarli rivojlanmagan. Yangi Fin tili davri ham 2 bosqichdan: ilk yangi fin (1820-70) va hozirgi fin (1870- yildan) bosqichlaridan iborat. Ilk fin davrida adabiy til og‘zaki til bilan yaqinlashdi. 1863-yildan boshlab Fin tili rasman shved tili bilan teng huquqlarga ega bo‘ldi: maktablar va universitetlarda o‘qitila boshlandi. Gazeta, jurnallar va badiiy adabiyotlar nashr etiladigan bo‘ldi. XIX asrning 70-yillariga kelib hozirgi adabiy Fin tilining asoslari yaratildi. 1919-yil Fin tili Finlyandiyaning rasmiy tili deb e’lon qilindi.

Fransiyada ta’lim tizimi ham qadimiy va boy tarixga ega. Fransiyada ta’limning asosiy maqsadi shaxsning har tomonlama kamol topishini ta’minlash, uni mustaqil faoliyatga tayyorlash, bozor munosabatlari sharoitida o‘quvchilarni tadbirkorlikka, ishbilarmonlik va omilkorlikka o‘rgatish, shunga yarasha kasb-korga ega qilishdan iboratdir. O‘qitiladigan predmetlar ichida fransuz tili va adabiyoti, o‘qish va yozuv alohida ahamiyatga molik. Ular uchun dars vaqtining 30% ajratiladi. Fransuz maktablari boshlang‘ich sinflarida o‘quvchilar ona tilidan,

tushdan keyin esa matematika va boshqa predmetlardan saboq oladilar. Matematika, ona tili va adabiyoti baza predmeti, tarix, geografiya, mehnat, jismoniy tarbiya predmetlari esa rivojlantiruvchi predmetlar hisoblanadi. Fransiya ta'limida bolalarni go'daklik chog'idanoq maktabda o'qitish uchun tayyor holda olib kelish g'oyat muhim masala hisoblanadi. Bolalarni maktabga tayyorlash uchun alohida dastur va darsliklar mavjud. Uning vazifasi o'qish, yozish, hisoblash malakasini berishdir (Sattorov V.N 2023:2833). Boshlang'ich sinflarda o'qish uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. Tayyorlov bosqichi;
2. Elementar kurs (bu bosqich ikki yil davom etadi);
3. Chuqurlashtirilgan bosqich. Dasturlarda o'quv predmetlarning barchasiga uch bosqich bo'yicha aniq, alohida-alohida talablar qo'yiladi.

2. Milliy o'quv dasturning 3-4-sinf boshlang'ich ta'lim o'quv dasturlari mazmunini takomillashtirish bo'yicha tahliliy ma'lumotlar sohadagi mavjud muammolar va kamchiliklar.

Mamlakatimiz rahbari o'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan dasturiy nutqida ta'lim sohasidagi qator kamchilik va muammolarga e'tibor qaratgan edi. Bu muammolardan biri o'quv dasturlari ekanligini ta'kidlab, unga barham berish uchun xorijiy ekspertlar va tajribali o'qituvchilarni keng jalb qilgan holda, umumiy ta'limning Milliy o'quv dasturi loyihasini ishlab chiqish va joriy o'quv yili davomida uni ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasalarida sinovdan o'tkazish taklifini bildirgan edi.

Amaldagi dastur grammatikani tushuntirish va yodlatishga asoslanganligi, yangi dasturga ko'ra esa o'quvchi matnni o'qish orqali nafaqat grammatika, balki uni amalda qo'llay olishiga qaratilganligiga urg'u berilgan. Endi o'quvchilar grammatik bilimlarni nazariy qoidalarni yodlab emas, balki matn va matn asosida berilgan mashqlarni bajarish orqali egallashi belgilangan deb ta'kidlashadi, ammo dasturda ayrim qoidalar kiritib o'tilgan. Ona tilini o'qitish bo'yicha taklif etilayotgan dasturga ko'ra, o'quvchi 4 lingvistik ko'nikma – eshitib yoki o'qib tushunish, og'zaki va yozma nutq malakaga ega bo'lish kerak.

Taklif etilayotgan adabiyotni o'qitish dasturiga ko'ra, darsliklardan badiiy asar tahliliga bag'ishlangan mazkur bo'lim olib tashlangan. Milliy o'quv dasturi asosida ona tili va adabiyot darsliklariga kiritilgan o'zgarishlar yillar davomida shakllangan savod va mustaqil fikrlash bilan bog'liq muammoga yechim bo'la olmaydi. Milliy dastur ilk kommunikativ vaziyatga asoslangan o'quv dasturi. Darsliklar ham shunga mos emas. Topshiriqlar berishda dialog tuzish, ssenariy tuzish kabi metodlardan ham faol foydalanish, so'zga hisobdorlikni oshirishga xizmat qiladigan yozma va og'zaki topshiriqlar berilmagan (Milliy o'quv dasturi, 2017).

Shuningdek, eshitib tushunishni rivojlantirishda mexanik xotirani emas, ko‘proq tafakkur qiladigan, javobini **internetdan topib bo‘lmaydigan topshiriqlar berilmagan.** Darslikda berilgan mashqlar faqat yozma nutqni o‘stirishga uchun o‘quvchining og‘zaki nutqini o‘stirish uchun xizmat qilmaydi. Loyihalar orasida O‘qish fanining dasturi umuman yo‘q. Tushuntirish xatida bu haqida yozilmagan. Xalqaro tajribalar asosida yaratilgan Milliy o‘quv dasturidagi bo‘limlar 1-4 sinf darsliklarida bir xil bo‘lib qolgan. Dastur mazmuniga sustkashlik bilan yondashilgan (D. Baynazarova, M.Toirova 2023).

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich ta’limning ona tili va o‘qish fanlariga oid amaldagi o‘quv dasturlari zamonaviy pedagogik yondashuvlarga to‘liq mos emas. Dastur mazmunida o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari yetarli darajada hisobga olinmagan, topshiriqlarning ko‘p qismi reproduktiv xarakterga ega bo‘lib, mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishga kam e’tibor qaratilgan.

Umuman olganda, boshlang‘ich ta’limda ona tili va o‘qish fanlarining o‘quv dasturini takomillashtirish, uning zamonaviy ta’lim talablariga mosligini ta’minlash orqali o‘quvchilarning til, tafakkur va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish, savodxonlik darajasini oshirishga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI/REFERENCES:

1. Alimi, Fatai Oyekola, Tella, Adedeji, Oyeweso, Musibau. “Impact of Mother Tongue on Primary Pupils’ Literacy and Numeracy Skills in Osun State.” International Online Journal of Primary Education (IOJPE). iojpe.org

2. Doniyarov Mavlonbek Arabovich. (2023) Development of Reading Literacy in Primary School Students as a Priority Objective. Academia Open, № 01-12. acopen.umsida.ac.id

3. Irorita, Marjorie O. (2025) Effectiveness of Culture-Based Literary Text of Mother Tongue-Based Multilingual Education Curriculum. Asian Journal of Language, Literature and Culture Studies, Vol. 8, №.1 pp. 22-39. journalajl2c.com

4. Kh.Madatov, S. A.Matlatipov, (2023) Uzbek text’s correspondence with the educational potential of pupils: a case study of the School corpus.” arxiv preprint O‘zbek tilida boshlang‘ich maktab o‘quv materiallarining o‘quvchilarning ta’lim potentsialiga muvofiqligini tahlil qiladi.

5. M.Bal F.Mete (2019) Cultural Literacy in Mother Tongue Education: An Action Research. Qualitative Research in Education. hipatiapress.com

6. Milliy o‘quv dasturi. Respublika ta’lim markazi. 2017 yil. (Uzbek)

7. R.Niyozmetova, M.Fozilova, (2021) Integrating literature lessons with the subject of mother tongue teaching. Linguistics and Culture Review, Vol. 5, S2. lingcure.org

8. S. M. Zokirova, M. Yuldasheva (2023) The Role of Mother Tongue and Literacy Classes in the Development of Students' Linguistic Abilities. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education, Vol. 1, № 9. pp. 592-595. grnjournal.us

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA IJOBIY FIKRLASH ORQALI MA’NAVIY-MODDIY HAYOT UYG‘UNLIGINI RIVOJLANTIRISH

DEVELOPING HARMONY OF SPIRITUAL AND MATERIAL LIFE IN FUTURE TEACHERS THROUGH POSITIVE THINKING

РАЗВИТИЕ ГАРМОНИИ ДУХОВНОЙ И МАТЕРИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ЧЕРЕЗ ПОЗИТИВНОЕ МЫШЛЕНИЕ

Mirsagatova Nargiza Sayfullayevna
Oriental universiteti,
Uzluksiz ta’lim pedagogikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi
Tel.: +998 90 968-68-78
E-mail: mirsagatovanargiza_@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqola bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiy va kasbiy hayotida ma’naviy qadriyatlar bilan moddiy farovonlik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashda ijobiy fikrlashning markaziy rolini chuqur o‘rganadi. Ijobiy fikrlash nafaqat ruhiy barqarorlik va shaxsiy baxtning kaliti, balki pedagogik samaradorlikni oshiruvchi, talabalarga ilhom beruvchi va kasbiy charchoqni kamaytiruvchi muhim omil sifatida baholanadi. Tadqiqotda ushbu qobiliyatning shakllanishi oila tarbiyasi, oliy ta’lim dasturlari, ijtimoiy muhit va o‘z-o‘zini rivojlantirish imkoniyatlari nuqtayi nazaridan tizimli tahlil etiladi. Xususan, stressli vaziyatlarda ijobiy munosabatni saqlash, kasbiy optimizmni mustahkamlash, o‘quvchilarda ijobiy dunyoqarashni shakllantirish qobiliyatlari e’tiborga olinadi. Pedagogik strategiyalar – refleksiya mashqlari, minnatdorchilik jurnallari, ijobiy psixologiya tamoyillari, guruhli muhokamalar, meditatsiya elementlari – ruhiy salomatlikni mustahkamlash va kasbiy tayyorgarlikni oshirish nuqtayi nazaridan yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *ijobiy fikrlash, ma’naviy hayot, moddiy hayot, bo‘lajak o‘qituvchi, pedagogik strategiya, shaxsiy rivojlanish, stressni boshqarish, kasbiy optimizm, barkamol shaxs, ta’lim-tarbiya*.

Abstract. This article thoroughly explores the central role of positive thinking in ensuring balance between spiritual values and material well-being in the personal and professional lives of future teachers. Positive thinking is evaluated not only as a key to mental stability and personal happiness but also as a significant factor that enhances pedagogical effectiveness, inspires students, and reduces professional burnout. The study systematically analyzes the formation of this ability from the perspectives of family upbringing, higher education programs, social environment, and self-development opportunities. Particular attention is paid to maintaining a positive attitude in stressful situations, strengthening professional optimism, and fostering a

positive worldview in students. Pedagogical strategies – such as reflection exercises, gratitude journals, principles of positive psychology, group discussions, and meditation elements – are highlighted in terms of strengthening mental health and enhancing professional preparedness. The article offers practical recommendations, motivation techniques, and sample lesson plans, serving as a valuable resource for educators, students, and education professionals.

Keywords: *positive thinking, spiritual life, material life, future teacher, pedagogical strategy, personal development, stress management, professional optimism, well-rounded individual, education and upbringing.*

Аннотация. В статье глубоко исследуется центральная роль позитивного мышления в обеспечении баланса между духовными ценностями и материальным благополучием в личной и профессиональной жизни будущих учителей. Позитивное мышление оценивается не только как ключ к психической стабильности и личному счастью, но и как важный фактор, повышающий педагогическую эффективность, вдохновляющий учеников и снижающий профессиональное выгорание. В исследовании системно анализируется формирование данной способности с позиций семейного воспитания, программ высшего образования, социальной среды и возможностей саморазвития. Особое внимание уделяется сохранению позитивного отношения в стрессовых ситуациях, укреплению профессионального оптимизма и формированию позитивного мировоззрения у учащихся. Педагогические стратегии — упражнения на рефлексию, журналы благодарности, принципы позитивной психологии, групповые дискуссии, элементы медитации — освещаются с точки зрения укрепления психического здоровья и повышения профессиональной готовности. Статья предлагает практические рекомендации, техники мотивации и примеры планов уроков, служа ценным ресурсом для педагогов, студентов и специалистов в области образования.

Ключевые слова: *позитивное мышление, духовная жизнь, материальная жизнь, будущий учитель, педагогическая стратегия, личностное развитие, управление стрессом, профессиональный оптимизм, гармоничная личность, образование и воспитание.*

KIRISH

Zamonaviy ta’lim tizimida bo‘lajak o‘qituvchilarning ma’naviy va moddiy hayot uyg‘unligiga erishishi ularning kasbiy va shaxsiy rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Ijobiy fikrlash shaxsning stressni boshqarish, kasbiy optimizmni saqlash va talabalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatish qobiliyatini oshiradi, bu esa ma’naviy va moddiy hayot muvozanatiga xizmat qiladi. Fikrlash inson ongining mahsuli bo‘lib,

shaxsning voqelik va hodisalarga munosabatini shakllantirishda sezgi, his-tuyg‘u, tasavvur, dunyoqarash va hayotiy tajribaga tayanadi (Большая психологическая энциклопедия, 2007: 246).

Fikr shaxs yoki ijtimoiy guruhning umumiy qiziqishlariga doir muammolar yoki hodisalarga munosabatini mulohaza, g‘oya yoki tasavvur shaklida ifodalaydi. Ijobiy fikrlash shaxsning hayotdan qoniqish darajasini oshiradi, stressga qarshi turish qobiliyatini mustahkamlaydi va ma’naviy-moddiy muvozanatni ta’minlaydi. Bo‘lajak o‘qituvchilar uchun ijobiy fikrlashni rivojlantirish nafaqat shaxsiy rivojlanishga, balki talabalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatish orqali ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Ma’naviy va moddiy hayotning uyg‘unligi shaxsning tashkilotchilik, mafkuraviy rag‘batlantirish va samarali faoliyat orqali moddiy farovonlikka erishishi, shu bilan birga ma’naviy ongni rivojlantirishi bilan ta’minlanadi. Bu jarayon shaxsning hayotdan qoniqish darajasini oshiradi va barkamol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi (Mirziyoyev Sh., 2020: b.g.). Ushbu maqola ijobiy fikrlash orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning ma’naviy va moddiy hayot uyg‘unligini rivojlantirishning pedagogik strategiyalarini tahlil qiladi va amaliy tavsiyalar taqdim etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Fikrlash psixologik jarayon sifatida shaxsning ijtimoiy va shaxsiy manfaatlariga doir muammolarni anglash mahsuli sifatida shakllanadi (Большая психологическая энциклопедия, 2007: 246). Fikrning shakllanishi quyidagi bosqichlarda kechadi:

Fikrning paydo bo‘lishi: Shaxs yoki guruhning muayyan voqea yoki hodisaga qiziqishi, unga individual yoki guruhiy baho berishi va axborot manbalariga intilishi.

Fikrning shakllanishi: Subyektlar o‘rtasida fikrlarning o‘zaro almashinishi, bu jarayonda shaxsning dunyoqarashi va tajribasi muhim rol o‘ynaydi.

Fikrning amaliy xarakter kasb etishi: Fikr shaxsning xatti-harakatlari yoki faoliyati orqali amaliy shaklga o‘tadi, bu esa ijobiy yoki salbiy natijalarga olib keladi (Yusupova M.A., 2018: 47).

Ijobiy fikrlash shaxsning ma’naviy va moddiy hayot uyg‘unligiga erishishda muhim ahamiyatga ega. U shaxsning ruhiy barqarorligini ta’minlaydi, stressni boshqarishga yordam beradi va hayotga optimistik yondashuvni shakllantiradi. Tadqiqotchilar ijobiy fikrlashning asosiy xususiyatlarini quyidagicha belgilaydilar:

- Vaziyatdan qat’i nazar, o‘ziga ishonch va ruhiy barqarorlikni saqlash;
- Maqsadlarni aniq belgilash va ularga erishish yo‘llarini bilish;
- Turli shaxslar bilan samimiy va do‘stona muloqot qilish qobiliyati;
- Muammolarni faol bartaraf etish va amaliy harakat qilish (G‘aniyeva M., 2021: 110).

Bundan tashqari, ijobiy fikrlash hayotni sevish, har bir lahzadan zavqlanish, shukronalik bildirish, mehnat va dam olish o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash kabi fazilatlarni o‘z ichiga oladi (Zayniyev R.M., 2019: 34). Pedagogik nuqtayi nazardan, ijobiy fikrlash bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatida muhim rol o‘ynaydi, chunki u stressga qarshi turish, talabalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatish va kasbiy optimizmni mustahkamlash imkonini beradi (Muslimov N.A., va boshq., 2015: 85).

Ijobiy fikrlashni rivojlantirishda ta’lim muassasalari, oila va ijtimoiy muhitning roli muhimdir. Masalan, TRIZ (ixtirochi masalalarni hal qilish nazariyasi) metodologiyasi ijobiy fikrlashni rivojlantirishda samarali vosita sifatida qo‘llanilishi mumkin (G‘aniyeva M., 2021: 108). Shu bilan birga, shaxsning ma’naviy rivojlanishi ijobiy fikrlash orqali mustahkamlanadi, bu esa moddiy farovonlikka erishishga zamin yaratadi (Mirziyoyev Sh.M., 2020). Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijobiy fikrlash shaxsning o‘zini o‘zi anglashi, hayotdan qoniqishi va ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi (Bazarov T.Y., 2014: 88).

Ijobiy fikrlashning shakllanishi shaxsning dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog‘liq. O‘zbekiston ta’lim tizimida ijobiy fikrlashni rivojlantirish bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda muhim strategiya sifatida qaralmoqda (Maxmudov A.X., 2012: 10). Bu jarayon nafaqat shaxsning o‘ziga xos fazilatlarini rivojlantirishga, balki jamiyatda ijobiy o‘zgarishlarga ham hissa qo‘shadi (Хуторского A.B., 2003: 47).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosi dialektik bilish tamoyillari (determinizm, umumiy aloqadorlik, taraqqiyot), shaxsga yo‘naltirilgan va gumanistik yondashuvlarga asoslanadi. O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasiga oid qonunlari, xususan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-sonli “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” va 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-sonli “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmonlar tadqiqotning normativ asosini tashkil etadi.

Tadqiqotda shaxsning ijobiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda oila, ta’lim muassasalari va ijtimoiy muhitning o‘zaro hamkorligi muhim deb topildi. Shu bilan birga, TRIZ metodologiyasi kabi zamonaviy usullar ijobiy fikrlashni rivojlantirishda samarali ekanligi ta’kidlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ijobiy fikrlash shaxsning ma’naviy va moddiy hayot uyg‘unligiga erishishda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotda ijobiy fikrlashning quyidagi xususiyatlari ajratib ko‘rsatildi, ular shaxsning ruhiy barqarorligini ta’minlash, kasbiy

faoliyatini optimallashtirish va ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi:

1. Ruhiy barqarorlik: Shaxs qiyin vaziyatlarda o‘ziga ishonch va xotirjamlikni saqlaydi, bu stress omillarining ta’sirini kamaytiradi va ruhiy tetiklikni oshiradi.

2. Maqsadga yo‘naltirilganlik: Aniq maqsadlarni belgilash va ularga erishish yo‘llarini aniqlash, bu shaxsning motivatsiyasini mustahkamlaydi va moddiy natijalarga erishishga zamin yaratadi.

3. Ijtimoiy muloqot: Turli shaxslar bilan samimiy va do‘stona munosabatlar o‘rnatish, bu ijtimoiy muhitda qo‘llab-quvvatlash tizimini shakllantiradi va ma’naviy qoniqishni oshiradi.

4. Muammoni yechish: Yuzaga kelgan muammolarni faol bartaraf etish, ijodiy yondashuv va amaliy harakatlar orqali salbiy holatlarni ijobiy natijalarga aylantirish.

5. Hayotsevarlik: Hayotdan zavqlanish, shukronalik bildirish va har bir lahzadan rohatlanish, bu ma’naviy ongni yuksaltiradi va moddiy farovonlikka bo‘lgan ishonchni kuchaytiradi.

6. Mehnat va dam olish muvozanati: Mehnatdan qoniqish olish, dam olish vaqtini samarali tashkil etish, bu jismoniy va ruhiy salomatlikni saqlashga yordam beradi.

7. O‘z-o‘zini rivojlantirish: Doimiy o‘qib-o‘rganish va bilimlarni boyitish, bu shaxsning kompetensiyasini oshiradi va kasbiy o‘sishga hissa qo‘shadi.

8. Salbiy holatlarga moslashuvchanlik: Noqulay vaziyatlarni vaqtinchalik deb qabul qilish va ulardan oson o‘tish, bu ruhiy chidamlilikni rivojlantiradi va uzoq muddatli muvaffaqiyatlarga zamin yaratadi.

9. Shukronalik va ezgulik: Atrofdagilarga minnatdorchilik bildirish va yaxshilik qilishga intilish, bu ijtimoiy aloqalarni mustahkamlaydi va ma’naviy qadriyatlar tizimini shakllantiradi (Большая психологическая энциклопедия, 2007: 246).

10. Relaksatsiya qobiliyati: Qisqa tanaffuslar orqali o‘z-o‘zini bo‘shashtirish va ruhiy quvvatni tiklash, bu mehnat samaradorligini oshiradi va moddiy natijalarga erishishni tezlashtiradi.

Ijobiy fikrlash bo‘lajak o‘qituvchilar uchun stressni boshqarish, talabalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatish va kasbiy faoliyatda muvozanatni saqlashda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ijobiy fikrlashni rivojlantirish quyidagi yutuqlarni ta’minlaydi, ular shaxsning barkamol shaxs sifatida shakllanishiga va jamiyatdagi ijobiy o‘zgarishlarga hissa qo‘shadi:

- Stress, ruhiy tushkunlik, qo‘rquv va shubhalardan xalos bo‘lish: Salbiy tuyg‘ularning ta’sirini kamaytirish orqali ruhiy salomatlikni mustahkamlash va kasbiy faoliyatda barqarorlikni ta’minlash.

- Ishchanlik qobiliyatini oshirish va mehnat samaradorligini ko‘tarish: Ijobiy fikrlash ishtiyoqni kuchaytiradi, ijodiy yondashuvni rivojlantiradi va moddiy farovonlikka erishishni tezlashtiradi.

- Hayotsevarlik, xotirjamlik, irodalilik va shukronalik kabi fazilatlarni rivojlantirish: Bu fazilatlar ma’naviy ongni yuksaltiradi, oila va jamiyatdagi munosabatlarni yaxshilaydi (Muslimov va boshq., 2015: 86).

- Ma’naviy yuksalish va moddiy farovonlikka erishish: Ijobiy fikrlash orqali shaxs o‘z imkoniyatlarini to‘la ro‘yobga chiqaradi, bu esa hayotning ikki tomonini muvozanatlashtiradi.

- O‘z-o‘zini anglash orqali hayotning asl mohiyatini tushunish: Shaxs o‘z qadriyatlarini aniqlaydi, maqsadlarini to‘g‘ri belgilaydi va barkamol hayot kechirishga erishadi (Хуторского А.В., 2003: 47).

- Ijtimoiy ta’sirni kuchaytirish: Bo‘lajak o‘qituvchilar talabalarga ijobiy namuna bo‘lib, ularning rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

- Kasbiy optimizmni mustahkamlash: Qiyinchiliklarni imkoniyat sifatida qabul qilish va doimiy o‘sishga intilish.

- Salomatlikni saqlash va uzoq umr ko‘rish: Ruhiy va jismoniy muvozanat orqali salomatlikni bebaho tuhfa sifatida qadrlash.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning ijobiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda ta’lim muassasalari muhim rol o‘ynaydi. Masalan, treninglar, seminarlar va amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘qituvchilar stressni boshqarish va optimistik dunyoqarashni shakllantirish ko‘nikmalarini egallashi mumkin (Muslimov N.A., va boshq., 2015: 86). Shu bilan birga, oila va ijtimoiy muhitning ijobiy fikrlashni rivojlantirishdagi ta’siri muhimdir. Oila a’zolari bilan samimiy muloqot, ijtimoiy muhitda qo‘llab-quvvatlash shaxsning ijobiy fikrlash qobiliyatini mustahkamlashga yordam beradi (Yusupova M.A., 2018: 48). Tadqiqotda oila muhitining roli alohida ta’kidlandi: oilaviy qadriyatlar va tarbiya usullari ijobiy fikrlashning dastlabki poydevorini shakllantiradi, bu esa bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqotda ijobiy fikrlashni rivojlantirish bo‘yicha quyidagi pedagogik strategiyalar sinovdan o‘tkazildi va ularning samaradorligi empirik ma’lumotlar bilan tasdiqlandi:

1. Maqsadga yo‘naltirilgan treninglar: O‘qituvchilar uchun maqsadlarni aniqlash va ularga erishish yo‘llarini o‘rgatish, bu ishtiyoqni 25-30% ga oshirishi mumkin.

2. Stressni boshqarish dasturlari: Meditatsiya, relaksatsiya va psixologik mashqlar orqali stressga qarshi turish ko‘nikmalarini rivojlantirish, natijada ruhiy tushkunlik darajasi 40% ga kamayadi.

3. Ijtimoiy muloqotni mustahkamlash: Talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasida samimiy muhit yaratish, guruhiy mashg‘ulotlar va rol o‘yinlari orqali ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.

4. Amaliy mashg‘ulotlar: TRIZ metodologiyasi kabi ijodiy yondashuvlardan foydalanish, bu muammolarni ijodiy yechish qobiliyatini oshiradi va kasbiy kreativlikni rivojlantiradi.

5. Diagnostik monitoring: Ijobiy fikrlash darajasini baholash uchun psixologik testlar va so‘rovnomalarni qo‘llash, bu jarayonni tizimli nazorat qilishga imkon beradi.

6. Oila-ta’lim hamkorligi: Oilalar bilan seminarlar tashkil etish va pedagogik yordam ko‘rsatish, bu shaxsning ijobiy fikrlashini oilaviy muhitda mustahkamlashga xizmat qiladi.

7. Ijodiy to‘garaklar: Musiqiy, adabiy yoki sport to‘garaklari orqali ijobiy fikrlashni rivojlantirish, bu estetik va jismoniy rivojlanishga hissa qo‘shadi.

8. Raqamli vositalar: Onlayn platformalar va mobil ilovalar orqali ijobiy fikrlash mashqlarini joriy etish, bu yosh avlod uchun qulay va samarali usuldir (Хуторского A.B., 2003:56).

Ushbu strategiyalar bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatida ijobiy fikrlashni mustahkamlashga va ma’naviy-moddiy hayot uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ushbu strategiyalarni muntazam qo‘llash o‘qituvchilarning kasbiy qoniqish darajasini 35% ga oshiradi, talabalarning ta’lim ishtiyog‘ini kuchaytiradi va jamiyatda ijobiy o‘zgarishlarga olib keladi (Muslimov va boshq., 2015: 86). Shu tariqa, ijobiy fikrlash nafaqat shaxsiy rivojlanishning, balki ta’lim tizimining samaradorligini oshirishning kalit omili hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ijobiy fikrlash bo‘lajak o‘qituvchilarning ma’naviy va moddiy hayot uyg‘unligiga erishishda muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, ijobiy fikrlash shaxsning stressga qarshi turish qobiliyatini oshiradi, kasbiy optimizmni mustahkamlaydi va talabalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatish imkonini beradi. Ushbu jarayon tizimli pedagogik va psixologik tadbirlar orqali amalga oshirilishi lozim. Quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- Ta’lim dasturlariga ijobiy fikrlashni rivojlantirish bo‘yicha maxsus modullar kiritilsin.
- O‘qituvchilar uchun stressni boshqarish va optimistik dunyoqarashni shakllantirish bo‘yicha treninglar tashkil etilsin.
- Oilalar va ta’lim muassasalari o‘rtasida hamkorlik mustahkamlanib, shaxsning ijobiy fikrlash qobiliyati rivojlantirilsin.

- Ijobiy fikrlash darajasini baholash uchun diagnostik vositalar ishlab chiqilsin va muntazam monitoring olib borilsin.

- TRIZ kabi ijodiy metodologiyalardan foydalanib, ijobiy fikrlashni rivojlantirish dasturlari joriy etilsin.

- Talabalarga ijobiy fikrlashni targ‘ib qilish maqsadida seminarlar va amaliy mashg‘ulotlar tashkil etilsin.

- O‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida psixologik treninglarga alohida e’tibor qaratilsin.

- Ijobiy fikrlashni rivojlantirish bo‘yicha tajriba almashish platformalari tashkil etilsin.

Ushbu strategiyalar bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga hissa qo‘shadi, ta’lim sifatini oshiradi va jamiyatda ijobiy o‘zgarishlarga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Базаров Т. Ю. (2014) Коллективное определение понятия «компетенции»: попытка извлечения смысловых тенденций из размытого экспертного знания // Вестник Московского университета. Серия 14. №1. – С. 87-88.

2. Большая психологическая энциклопедия (2007). Самое полное современное издание. М.: Эксмо.

3. Формирование общественного мнения // http: //www.grandars.ru/college/sociologiya/formirovanie-obshchestvennogo-mneniya.html.

4. G‘aniyeva M. (2021) Boshlang‘ich sinf darslarida TRIZ (ixtirochi masalalarini hal qilish nazariyasi) dasturini qo‘llashning samarali usullari // Scientific progress. №2(5). – B. 108-112.

5. Makhmudov A.Kh. (2012) Uzluksiz ta’lim jarayoniga kompetentlik yondashuvini joriy qilishning didaktik asoslari // Uzluksiz ta’lim. №4. – B. 8-12.

6. Mirziyoyev SH.M. (2020 dekabr) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

7. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. (2015) Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. Toshkent. 95 b.

8. Хуторского А.В. (2003) Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. №2. – С. 45-49.

9. Yusupova M.A. (2018) Musiqiy ta’limda o‘quvchilarning estetik qiziqishlarini shakllantirishning pedagogik asoslari // O‘zbekistonda ilm-fan va ta’lim. №3. – B. 45-50.

10. Zayniyev R.M. (2019) O‘quvchilarning musiqiy-estetik kompetensiyasini rivojlantirishda to‘garaklarning o‘rni// Ta’lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar. №2. – B. 32-37.

REFERENGES:

1. Bazarov T. Yu. (2014) Kollektivnoye opredeleniye ponyatiya «kompetensii»: popytka izvlecheniya smyslovyx tendensiy iz razmytogo ekspertnogo znaniya // Vestnik Moskovskogo universiteta. Seriya 14. №1. – S. 87-88. (In Russian)

2. Bolshaya psixologicheskaya ensiklopediya (2007). Samoye polnoye sovremennoye izdaniye. M.: Eksmo. (In Russian)

3. Formirovaniye obshchestvennogo mneniya // http://www.grandars.ru/college/sociologiya/formirovaniye-obshchestvennogo-mneniya.html. (In Russian)

4. G‘aniyeva M. (2021) Boshlang‘ich sinf darslarida TRIZ (ixtirochi masalalarini hal qilish nazariyasi) dasturini qo‘llashning samarali usullari // Scientific progress. №2(5). – B. 108-112. (In Uzbek)

5. Maxmudov A.X. (2012) Uzluksiz ta’lim jarayoniga kompetentlik yondashuvini joriy qilishning didaktik asoslari // Uzluksiz ta’lim. №4. – B. 8-12. (In Uzbek)

6. Mirziyoyev SH.M. (2020 dekabr) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. (In Uzbek)

7. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. (2015) Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. Toshkent. 95 b. (In Uzbek)

8. Xutorskoy A.V. (2003) Klyuchevyye kompetensii kak komponent lichnostno-oriyentirovannoy paradigmy obrazovaniya // Narodnoye obrazovaniye. №2. – S. 45-49. (In Russian)

9. Yusupova M.A. (2018) Musiqiy ta’limda o‘quvchilarning estetik qiziqishlarini shakllantirishning pedagogik asoslari // O‘zbekistonda ilm-fan va ta’lim. №3. – B. 45-50. (In Uzbek)

10. Zayniyev R.M. (2019) O‘quvchilarning musiqiy-estetik kompetensiyasini rivojlantirishda to‘garaklarning o‘rni // Ta’lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar. №2. – B. 32-37. (In Uzbek)

AUDIO-LINGVAL METOD ORQALI OG‘ZAKI NUTQ KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH: O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOMSHUNOSLIK AKADEMIYASI TALABALARI MISOLIDA

DEVELOPING ORAL SPEECH SKILLS THROUGH THE AUDIO-LINGUAL METHOD: A CASE STUDY OF STUDENTS AT THE INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY OF UZBEKISTAN

РАЗВИТИЕ УСТНЫХ РЕЧЕВЫХ НАВЫКОВ ЧЕРЕЗ АУДИОЛИНГВАЛЬНЫЙ МЕТОД: НА ПРИМЕРЕ СТУДЕНТОВ МЕЖДУНАРОДНОЙ ИСЛАМСКОЙ АКАДЕМИИ УЗБЕКИСТАНА

Qodirova Mashxura Mirzaakbarovna
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Arab tili va adabiyoti al-Azhar katta o‘qituvchisi,
Oriental universiteti mustaqil tadqiqotchisi
Tel.: +998 90 916-61-16
E-mail: shahira1986shahira@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi talabalari misolida arab tili nutq ko‘nikmalarini audio-og‘zaki (audiolingual) metod orqali o‘qitishning samaradorligini amaliy va nazariy jihatdan aniqlashga qaratilgan. Dolzarbligi shu bilan belgilanadiki, zamonaviy muassasalarda arab tilini tez va aniq o‘zlashtirish talab etiladi. Tadqiqot sifat (kvalitativ) yondashuv asosida olib borilib, kuzatish, intervyu va hujjat tahlili usullari qo‘llanildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, ushbu metod talabalarda talaffuz aniqligi, eshitish differensiasiyasi va nutq tezligini sezilarli darajada oshirdi hamda asosiy dialogik tuzilmalarni avtomatlashtirishga yordam berdi. Xulosa qilib aytganda, audio-og‘zaki metod asos sifatida samarali bo‘lsa-da, uning oqibatini oshirish uchun uni kommunikativ yondashuvlar, gamifikatsiya elementlari va raqamli texnologiyalar bilan integratsiya qilish zarurati asoslab berildi. Tadqiqot natijalari arab tili o‘qitish metodikasini takomillashtirishga nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: *Arab tili, nutq ko‘nikmasi, audio-og‘zaki metod, audiolingual metod, O‘zXIA, kommunikativ kompetensiya, talaffuz, raqamli texnologiyalar*.

Аннотация. Данное исследование направлено на практическое и теоретическое определение эффективности обучения разговорным навыкам арабского языка методом аудио-лингвального (аудиовизуального) подхода на примере студентов Международной исламской академии Узбекистана (МИАУ). Актуальность исследования обусловлена требованием быстрого и точного овладения арабским языком в современных учреждениях. Исследование проводилось на основе качественного (квалитативного) подхода с

использованием методов наблюдения, интервью и анализа документов. Результаты показали, что данный метод значительно повысил точность произношения, слуховую дифференциацию и скорость речи студентов, а также способствовал автоматизации основных диалогических структур. В заключение утверждается, что, хотя аудио-лингвальный метод эффективен в качестве основы, для повышения его результативности необходимо его интегрировать с коммуникативными подходами, элементами геймификации и цифровыми технологиями. Результаты исследования имеют теоретическое и практическое значение для совершенствования методики преподавания арабского языка.

Ключевые слова: *Арабский язык, речевой навык, аудио-устный метод, аудиолингвальный метод, МИАУ, коммуникативная компетенция, произношение, цифровые технологии*.

Abstract. This study is aimed at practically and theoretically determining the effectiveness of teaching Arabic language speaking skills using the audio-lingual method through the example of students at the International Islamic Academy of Uzbekistan (IIAU). The relevance is determined by the requirement for rapid and accurate acquisition of the Arabic language in modern institutions. The research was conducted based on a qualitative approach, utilizing methods of observation, interviews, and document analysis. The results showed that this method significantly improved students' pronunciation accuracy, auditory discrimination, and speech rate, and helped in the automation of core dialogic structures. In conclusion, it is substantiated that although the audio-lingual method is effective as a foundation, its outcomes must be enhanced by integrating it with communicative approaches, gamification elements, and digital technologies. The research findings hold theoretical and practical significance for improving Arabic language teaching methodology.

Keywords: *Arabic language, speech skills, audio-oral method, audiolingual method, IIAU, communicative competence, pronunciation, digital technologies.*

KIRISH

Nutq koʻnikmasi arab tili taʼlimining toʻrtta asosiy komponentidan biri boʻlib, tilni oʻrganish jarayonida markaziy oʻrin tutadi (Almelhes S., 2024: 16). Arab tilini oʻrganuvchi talaba uchun soʻzlashuv malakasi nafaqat aloqa vositasi, balki fikr, his-tuygʻu va ehtiyojlarni toʻgʻri, tabiiy ifoda etish qobiliyatini shakllantiradi (Gharaibeh M., Alhassan A.A., 2023: 92). Shu bois nutqni oʻqitish tildagi kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning asosi sifatida qaraladi (Haleem A., Javaid M., Qadri M.A., Suman R., 2022: 275).

Tadqiqotchilar taʼkidlaganidek, nutqni oʻrgatishning eng muhim jihati — amaliy mashq qilish, talaffuzni modellashtirish va oʻqituvchi namunasi asosida takrorlashdan

iboratdir (Jensen J.L., Holt E. A., Sowards J.B., Heath Ogden T., West R.E., 2018: 523). Bunday yondashuv audio-ogʻzaki (audiolingual) metodning markazida turadi. Ushbu metod tilni tabiiy eshitish, takrorlash va oʻzlashtirish mexanizmlari orqali oʻrgatishni koʻzda tutadi (Hanani A., Naser R., 2020: 691). Shuningdek, u talaffuz, intonatsiya, soʻz birikmalari va muloqot naqshlarini oʻrgatishda yuqori samaradorlikka ega boʻlgan yondashuvlardan biri hisoblanadi (Fudhaili A., 2024: 145).

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar – audio yozuvlar, video lavhalar, onlayn dars platformalari va mobil ilovalar – arab tili nutqini oʻqitishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Ular yordamida talabalar talaffuzni takroriy tinglash, oʻz nutqini yozib tahlil qilish va mustaqil ravishda mashq qilish imkoniyatiga ega boʻlmoqdalar. Bu esa oʻqituvchi bilan oʻquvchi oʻrtasidagi oʻzaro aloqani kuchaytirib, oʻz-oʻzini baholash kompetensiyasini shakllantiradi.

Biroq, soʻnggi yillardagi ilmiy izlanishlar arab tili oʻqitish amaliyotida uchta asosiy muammoni koʻrsatadi:

1. Tabiiy til muhiti yetishmasligi – oʻquv jarayonida arab tilida muloqot muhiti yetarli darajada shakllanmaganligi;
2. Mahalliy tilning fonetik ta’siri – oʻzbek, rus va ingliz tillarining talaffuz tizimi arab tilining fonetik tuzilishiga ta’sir etishi;
3. Darslarning monotonligi va resurslarning cheklanganligi – oʻqitish vositalarining yetishmasligi va takrorlanuvchi mashqlar talabalarda qiziqishning pasayishiga olib kelishi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Soʻnggi yillarda tadqiqotchilar til oʻrgatishda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish uchun audio-ogʻzaki (audiolingual) yondashuvning ahamiyatini Fudhaili A., Tong D. H., Uyen B. P., Ngan L. K. alohida ta’kidlashmoqda. Ritonga M., Armini A., Julhadi J., Rambe M.H., Jaffar M.N. fikricha, ushbu metod tildagi tovush tizimi va talaffuz naqshlarini modellashtirish orqali oʻquvchilarda nutq refleksini shakllantiradi.

Til oʻqitish nazariyasida nutq faoliyati eng murakkab psixolingvistik jarayon sifatida talqin qilinadi, chunki u tinglab tushunish, grammatik qurilma, talaffuz, lugʻat boyligi va ijtimoiy kontekstga mos muloqotni oʻz ichiga oladi deb yozgan Jensen J.L., Holt E.A., Sowards J.B., Heath Ogden T., West R.E. Shu sababli, arab tilini oʻqitishda soʻzlashuv malakasini shakllantirishda oʻqituvchi nafaqat grammatik ma’lumotni, balki tovush naqshlarini, intonatsiyani va muloqot madaniyatini ham oʻrgatishi zarur deb aytadi Hanani A. va Naser R.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning asosiy maqsadi – Oʻzbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi (OʻzXIA) talabalari misolida arab tili nutq koʻnikmalarini audio-ogʻzaki (audiolingual)

metod orqali o‘qitish samaradorligini aniqlash hamda uning qo‘llanishida uchraydigan metodik va tashkiliy muammolarni tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, tadqiqot quyidagi savollarga javob izlaydi:

1. Audio-og‘zaki metod O‘zXIA talabalari uchun arab tilida so‘zlashuv malakasini rivojlantirishda qanday samaradorlik ko‘rsatadi?
2. Mazkur metodni qo‘llashda qanday muammolar va to‘siqlar mavjud?

Tadqiqot sifat (kvalitativ) yondashuv asosida olib borildi, chunki tadqiqot maqsadi son jihatdan o‘lchash emas, balki jarayon va tajribaning chuqur tahlilini talab etadi (Ritonga M., Armini A., Julhadi J., Rambe M.H., Jaffar M.N., 2023: 244). Kvalitativ metod o‘qitish jarayonini tabiiy sharoitda o‘rganish, ishtirokchilarning fikr-mulohazalarini bevosita tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqotda ma’lumotlar kuzatish, intervyu va hujjat tahlili orqali to‘plandi (Ritonga M., Armini A., Julhadi J., Rambe M.H., Jaffar M.N., 2023: 244).

- Kuzatish: Arab tili fanidan 8 ta dars seansi muntazam kuzatilib, ularning davomida audio-og‘zaki metodning bosqichlari (model → drill → qo‘llash) tahlil qilindi. Kuzatishlar orqali o‘qituvchi va talabalar o‘zaro munosabati, talaffuz mashqlari va og‘zaki muloqot dinamikasi o‘rganildi.
- Intervyu: 3 nafar arab tili o‘qituvchisi, 1 nafar fakultet rahbariyati vakili va 28 nafar turli bosqichdagi talaba bilan yarim tuzilgan suhbatlar o‘tkazildi. Intervyular o‘qituvchilarning metodik yondashuvlari, talabalar tajribasi va muammoli nuqtalar haqida sifatli ma’lumotlar berdi.
- Hujjat tahlili: O‘quv jarayonida qo‘llanilayotgan “*Durus al-Lughah al-‘Arabiyyah*”, “*Al-‘Arabiyyah Bayna Yadayka*” hamda “*at Takallum*” darsliklari o‘rganildi (Azhar M., Wahyudi H., Promadi P., 2022: 92). Ushbu manbalar dialogik mashqlar, talaffuz modellarining takrorlanish darajasi va mashg‘ulotlar tuzilmasini tahlil qilish imkonini berdi.

Olingan ma’lumotlar reduksiya → taqdim → talqin bosqichlarida tahlil qilindi.

- Reduksiya bosqichida ortiqcha ma’lumotlar qisqartirilib, faqat tadqiqot maqsadiga oid holatlar ajratib olindi.
- Taqdim bosqichida dars kuzatuvlari, intervyu javoblari va darslik tahlili natijalari tematik bloklar bo‘yicha tizimlashtirildi.
- Talqin (interpretatsiya) bosqichida olingan dalillar umumlashtirilib, audiolingual metodning samaradorligi va cheklovlari aniqlab berildi.

Natijalarning ishonchliligini ta’minlash uchun triangulyatsiya usuli qo‘llanildi, ya’ni kuzatish, intervyu va hujjat tahlilidan olingan ma’lumotlar o‘zaro solishtirilib, bir-birini to‘ldiruvchi tarzda tahlil qilindi. Bu yondashuv ma’lumotlarning obyektivligini ta’minladi va natijalarni tasdiqlash imkonini berdi.

Tadqiqot obyekti sifatida O‘zXIAning Arab tili va islomiy manbalar fakulteti talabalari hamda ushbu fakultetda faoliyat yuritayotgan arab tili o‘qituvchilari tanlandi. Umumiy hisobda 32 nafar ishtirokchi (28 talaba, 3 o‘qituvchi, 1 rahbar) tadqiqot jarayonida qatnashdi. Tadqiqot 2024–2025 o‘quv yili davomida o‘tkazildi.

Ishtirokchilarning barchasi yozma roziligi bilan tadqiqotda qatnashgan bo‘lib, anonimlik va ma’lumotlarning maxfiyligi tamoyillari to‘liq saqlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasida (O‘zXIA) arab tili darslari audio-og‘zaki (audiolingual) metod asosida olib boriladi. Ushbu metodning markaziy g‘oyasi — “tinglash va takrorlash” tamoyiliga tayanib, nutqni avtomatik shakllantirish, talaffuz va muloqot naqshlarini tabiiy o‘zlashtirishni ta’minlashdir (Hanani A., Naser R., 2020: 691).

O‘zXIAda olib borilgan kuzatishlar natijasida arab tili darslari quyidagi 7 bosqichli metodik sikl asosida tashkil etilgani aniqlandi:

1. Mavzu e’loni va salomlashuv. Dars boshida o‘qituvchi o‘quvchilarning diqqatini jamlab, mavzuni kirish qismi bilan e’lon qiladi.
2. Namunaviy dialog taqdimoti. O‘qituvchi yoki audio-video yozuvlar orqali model dialogni eshittiradi, bu bosqich “modelling” funksiyasini bajaradi.
3. Mazmun va talaffuz izohi. O‘qituvchi talaffuz, grammatik struktura va so‘z ma’nolarini tushuntiradi.
4. Talabalar tomonidan takrorlash (drill). Talabalar o‘qituvchidan keyin birgalikda yoki yakka tartibda so‘z va iboralarni takrorlaydilar.
5. Grammatik va leksik mashqlar. O‘rganilgan so‘z va strukturani mustahkamlash uchun mashqlar bajariladi.
6. Mustaqil nutq mashqlari (dialog va hikoya). Talabalar o‘z muloqotlarini tuzadilar, yangi vaziyatlarga mos gap tuzishni mashq qiladilar.
7. Yakuniy refleksiya va xulosa. O‘qituvchi dars yakunida umumiy xatolarni tahlil qiladi, ijobiy misollarni ko‘rsatadi va tavsiyalar beradi (Hanani A., Naser R., 2020: 691).

O‘qituvchilar darslarda mobil telefon yozuv moslamalaridan faol foydalanadilar. Talabalar o‘z talaffuzlarini yozib olib, qayta tinglash va o‘z-o‘zini tahlil qilish (self-monitoring) orqali nutqdagi xatolarni aniqlab tuzatadilar. Bu jarayon o‘z-o‘zini baholash va refleksiv fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, audio-og‘zaki (audiolingual) usul O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi (O‘zXIA) talabalari uchun arab tili nutq ko‘nikmalarini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Ushbu yondashuv

talabalarni talaffuz, eshitish differensiasiyasi, so‘z boyligi va og‘zaki ifoda aniqligi bo‘yicha ijobiy natijalarga olib keldi. Dars jarayonida modellashtirish, takrorlash va o‘yin asosidagi faoliyatlar talabalar motivatsiyasini oshirganini kuzatish mumkin bo‘ldi (Hanani A., Naser R., 2020: 691).

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, audio-og‘zaki (audiolingual) metod O‘zXIA talabalari uchun arab tili nutq ko‘nikmalarini shakllantirishda samarali pedagogik yondashuv hisoblanadi. Ushbu metod yordamida talabalar talaffuz, eshitish differensiasiyasi, so‘z boyligi hamda og‘zaki ifoda aniqligi bo‘yicha sezilarli natijalarga erishdilar (Hanani A., Naser R., 2020: 691). Dars jarayonida tinglash, takrorlash va muloqot asosidagi mashqlar nutqni avtomatlashtirishga yordam berdi. Shu bilan birga, motivatsion o‘yin elementlari, mobil texnologiyalar va raqamli vositalardan foydalanish darsning interaktivligini oshirdi (Hasibuan R., Jundi M., Ali I., Febriani S. R., Bedra K. G., 2024: 16).

Biroq metodning to‘liq samaradorligini ta’minlash uchun quyidagi shart-sharoitlar zarur deb hisoblanadi:

1. Arab tili muhitini shakllantirish. Tabiiy muloqot muhiti arab tilida so‘zlashuvni uzluksiz rivojlantiradi. Shu maqsadda O‘zXIAda muntazam “Arabic Day” tadbirlarini o‘tkazish, arab tili klublari tashkil etish hamda audio-laboratoriyalarni yo‘lga qo‘yish zarur.

2. Metodik va raqamli tayyorgarlikni kuchaytirish. O‘qituvchilar uchun zamonaviy metodika, kommunikativ yondashuvlar va raqamli pedagogika bo‘yicha malaka oshirish treninglarini tashkil etish lozim. Bu jarayon o‘qituvchilarga audiolingual metodni kommunikativ model bilan integratsiyalash imkonini beradi (Hanani A., Naser R., 2020: 691).

Gamifikatsiya va reflektiv baholash tizimini kengaytirish. Arab tili ta’limida o‘yinlashtirish (gamifikatsiya) elementlari va reflektiv baholash mexanizmlarini tatbiq etish talabalar motivatsiyasini oshirib, ularning mustaqil o‘rganish faoliyatini faollashtiradi (Hasibuan R., Jundi M., Ali I., Febriani S. R., Bedra K. G., 2024: 16).

Umuman olganda, audiolingual metod O‘zXIA sharoitida arab tili o‘qitishning amaliy, psixolingvistik va kommunikativ jihatlarini uyg‘unlashtiruvchi samarali tizim sifatida o‘zini oqladi. Kelgusida bu metodni raqamli ta’lim texnologiyalari va kommunikativ yondashuvlar bilan integratsiyalash arab tili ta’limining sifatini yanada oshirish hamda xalqaro standartlarga moslashtirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI/ REFERENCES:

1. Almelhes S. (2024). Enhancing Arabic Language Acquisition: Effective Strategies for Addressing Non-Native Learners’ Challenges // Education Sciences, vol. 14, №10. - P. 16.

2. A.Haleem, M.Javaid, M.A.Qadri, R.Suman (2022). Understanding the Role of Digital Technologies in Education: A Review // Sustainable Operations and Computers, vol. 3, P.275-285.

3. A.Hanani, R.Naser (2020). Spoken Arabic Dialect Recognition Using X-Vectors // Natural Language Engineering, vol. 26, №6. – P. 691-700. [Online]. Available: https://doi.org/10.1017/S1351324920000091

4. Fudhaili A. (2024). Dialectics and Madurese Language Accent in the Perspective of Psycholinguistics and Sociolinguistics // Lensa: Kajian Kebahasaan, Kesusastraan, dan Budaya, vol. 14, №1. – P. 145-160. [Online]. Available: https://doi.org/10.26714/lensa.14.1.2024.145-160

5. M.Gharaibeh, A.A. Alhassan (2023). Role of Teachers in Teaching Arabic Letters to Young Children of UAE: Exploring Criteria of Arabic Letters Teaching // Cogent Education, vol. 10, №1. – P. 92.

В статье проведен анализ психологических особенностей лжецов, с акцентом на различия между систематическими и случайными обманщиками. Систематические лжецы демонстрируют устойчивое поведение, рационально оправдывая свои действия и обладая низким уровнем эмпатии. Случайные лжецы, напротив, склонны к саморефлексии, испытывают чувство вины и стремятся восстановить моральное равновесие. Коррекция лживого поведения требует индивидуального подхода, включающего профилактические тренинги,

консультирование и психотерапию. Культурный контекст, уровень социального давления и личностные ресурсы играют ключевую роль в формировании склонности к обману. Развитие эмпатии и нравственного самосознания является основным фактором снижения патологической лживости.

На основе анализов представлены следующие выводы:

1. Систематические обманщики отличаются устойчивым, рационально оправданным, низкоэмпатийным типом поведения;

2. Случайные обманщики склонны к саморефлексии, чувствуют вину и стремятся к восстановлению морального равновесия;

3. Коррекция лживого поведения требует индивидуального подхода: от профилактических тренингов и консультирования до психотерапии;

4. Необходимо учитывать культурный фон, уровень давления, личностные ресурсы;

5. Развитие эмпатии и нравственного самосознания – ключ к снижению уровня патологической лживости.

Для эффективного выявления и коррекции лживого поведения предлагаются следующие практические меры. Эти рекомендации направлены на укрепление нравственного воспитания и психологической поддержки в образовательном процессе, способствуя предотвращению и преодолению лживого поведения.

1. В вузах создать условия для открытого диалога, где ошибки не наказываются жестко, а рассматриваются как опыт;

2. Включить модули по этике и нравственному выбору в учебные курсы;

3. Проводить регулярные психологические тренинги по распознаванию и преодолению внутренних конфликтов, связанных с ложью;

4. Разработать диагностические анкеты по выявлению манипулятивных стратегий поведения у студентов.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Бандура А. (2000). Теория социального научения. – Санкт-Петербург: Евразия.

2. Бехтерев В. М. (2007). Объективная психология. – Санкт-Петербург: Наука.

3. Кудрявцев В. Т. (2015). Ложь как социально-психологический феномен // Вопросы психологии, (2), 45–52.

4. Кулагина И. Ю. (2012). Возрастная психология. – Москва: Академия.

5. Леонтьев А. Н. (2005). Деятельность, сознание, личность. – Москва: Смысл.

6. Лурия А. Р. (1999). Основы нейропсихологии. – Москва: Издательство МГУ.

7. Rogers C. (1961). On Becoming a Person: A Therapist's View of Psychotherapy. – Boston: Houghton Mifflin.

8. Vrij A. (2008). Detecting Lies and Deceit: The Psychology of Lying and the Implications for Professional Practice. – Chichester: Wiley.

9. Фрейд З. (2020). Защитные механизмы психики. Введение в психоанализ. – Москва: АСТ.

10. Экман П. (2003). Психология лжи. Обман, ложь и лицо. – Санкт-Петербург: Прайм-Еврознак.

REFERENCE:

1. Bandura A. (2000). Teoriya sotsialnogo naucheniya. – Sankt-Peterburg: Evraziya. (In Russian)

2. Bekhterev V. M. (2007). Obyektivnaya psikhologiya. – Sankt-Peterburg: Nauka. (In Russian)

3. Ekman P. (2003). Psikhologiya lji. Obman, loj i litso. – Sankt-Peterburg: Praym-Evroznak. (In Russian)

4.Freyd Z. (2020). Zashitnie mekhanizmi psikhiki. Vvedenie v psikhoanaliz. – Moskva: AST. (In Russian)

5. Kudryavsev V. T. (2015). Loj kak sotsialno-psikhologicheskiy fenomen // Voprosi psikhologii, (2), 45–52. (In Russian)

6. Kulagina I. Yu. (2012). Vozrastnaya psikhologiya. – Moskva: Akademiya. (In Russian)

7. Leontev A. N. (2005). Deyatelnost, soznanie, lichnost. – Moskva: Smisl. (In Russian)

8. Luriya A. R. (1999). Osnovi neyropsikhologii. – Moskva: Izdatelstvo MGU. (In Russian)

9. Rogers C. (1961). On Becoming a Person: A Therapist's View of Psychotherapy. – Boston: Houghton Mifflin.

10. Vrij A. (2008). Detecting Lies and Deceit: The Psychology of Lying and the Implications for Professional Practice. – Chichester: Wiley.

MENTAL XUSUSIYATLARNING TIL BIRLIKLARIDA NAMOYON BO‘LISHI

MANIFESTATION OF MENTAL CHARACTERISTICS IN LANGUAGE UNITS

ПРОЯВЛЕНИЕ МЕНТАЛЬНЫХ ХАРАКТЕРИСТИК В ЯЗЫКОВЫХ ЕДИНИЦАХ

Alimbayeva Shahlo Tursunovna
Oriental universiteti, Uzluksiz ta’lim pedagogikasi kafedrasi dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi.
Tel.: +998 97 765-01-17
E-mail: shahloalimbayeva86@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola turli xalqlarda qo‘llaniluvchi turlicha o‘xshatish timsollarini etnopsixologik jihatdan o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqotning maqsadi mental xususiyatlarning til birliklarida, jumladan folklorda, o‘xshatish vositalarida namoyon bo‘lishini tadqiq etishdan iborat. Maqolada o‘zbek, rus, ingliz tillaridagi til birliklarining namoyon bo‘lish shakllari asosida shu xalq vakillariga xos bo‘lgan etnopsixologik xususiyatlar psixolingvistik vositalar yordamida qiyosiy tahlil qilindi. Tilda mental xususiyatlarning aks etishiga oid mavjud ilmiy ishlarni o‘rganish natijasida o‘zbek, rus, ingliz tillariga xos bo‘lgan milliy xususiyatlarning o‘ziga xos jihatlari aniqlandi. Shuningdek, maqolada xalqlarning milliy xususiyatlarini o‘zida mujassam etuvchi asosiy vosita sifatida tillar o‘z grammatik tuzilishi jihatidan ham bir-biridan tubdan farq qilishi va bu o‘ziga xos etnopsixologik xususiyatlar aksi ekanligi isbotlandi. Tadqiqot natijalari o‘sib kelayotgan yosh avlodda milliy mental xususiyatlarni shakllantirishga, milliy iftixor tuyg‘usini rivojlantirishga asos bo‘la oladi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek, rus, ingliz tillari, o‘xshatish timsoli, gap tuzilishi, mental munosabatlar, etnopsixologik xususiyatlar.

Abstract. This study examines the ethnopsychological dimensions of metaphors employed across diverse cultural groups. Its primary objective is to investigate how mental characteristics are manifested in linguistic units, particularly metaphors, within folklore. The research conducts a comparative analysis of ethnopsychological traits among speakers of Uzbek, Russian, and English, utilizing psycholinguistic methodologies to explore the expression of linguistic units in these languages. Through a review of existing scholarly literature on the reflection of mental attributes in language, distinct national characteristics specific to Uzbek, Russian, and English were identified. The study further demonstrates that languages, as primary vehicles for

expressing national identity, exhibit fundamental differences in grammatical structure, reflecting their unique ethnopsychological profiles. The findings provide a foundation for fostering national mental characteristics in younger generations and cultivating a sense of national pride.

Keywords: *Uzbek language, Russian language, English language, metaphor, sentence structure, mental attributes, ethnopsychological characteristics.*

Аннотация. Данная статья направлена на изучение этнопсихологических аспектов различных метафор, используемых разными народами. Целью исследования является изучение проявления ментальных особенностей в языковых единицах, в том числе фольклорных, в метафорах. В статье дается сравнительный анализ этнопсихологических особенностей представителей этих народов с использованием психолингвистического инструментария на основе форм проявления языковых единиц в узбекском, русском и английском языках. В результате изучения существующих научных работ по отражению ментальных особенностей в языке были выявлены специфические аспекты национальных особенностей, присущие узбекскому, русскому и английскому языкам. В статье также доказывается, что языки, как основные средства воплощения национальных особенностей народов, принципиально отличаются друг от друга по своему грамматическому строю, и это является отражением их собственных этнопсихологических особенностей. Результаты исследования могут служить основой для формирования национальных ментальных особенностей у подрастающего молодого поколения и развития чувства национальной гордости.

Ключевые слова: *узбекский, русский, английский языки, метафора, структура предложения, ментальные отношения, этнопсихологические характеристики.*

KIRISH

Til shu tilda so‘zlashuvchi millat, xalq vakillarining madaniyati, dini, e’tiqodi, tarixi, o‘tmish tajribalari, urf-odat va an’analarini o‘zida mujassam etuvchi muhim xilqatdir.

Etnopsixologiyada turli xalqlarning ma’lum bir hodisaga turlicha o‘xshatish vositasini qo‘llashiga qarab, shu millatga xos bo‘lgan psixologik xususiyatlar haqida xulosa chiqarish mumkin. Xalqning dunyoni o‘ziga xos, milliy tarzda ko‘rishi o‘xshatish semantikasida aks etadi (Маслова М., 2001).

Adabiy tilning tasviriy vositasi bo‘lgan o‘xshashlikda leksik birliklar bilan ifodalangan ikki narsa, hodisa yoki tushuncha o‘zining ma’lum bir belgi, xususiyati asosida bir-biriga obrazli qiyoslanadi. O‘xshatishda leksik birliklar bilan qiyoslanayotgan narsa-hodisa belgilari muhim rol o‘ynaydi. Biror maqol yoki undagi

so‘zning ko‘chma ma’nosini, unda yashiringan g‘oyani aniqlash uchun maqolda keltirilgan obrazlarning mohiyatini anglash lozim. Xalq og‘zaki ijodining boshqa janrlari kabi maqollarda ham ijtimoiy munosabatlar, hodisa va holatlarni soddaroq ifodalashda tabiatdagi o‘z xususiyati bilan shunga muvofiq keluvchi narsalar, hayvonlar gavdalantiriladi, fikr metaforik ko‘rinishda ifodalanadi. Ana shu narsalarning har biridan timsol sifatida mohirona foydalanilgan bo‘lib, ular vositasida shu xususiyatga ega insonlar obrazlari yoki voqea-hodisa mohiyati ochib beriladi. Turli xalqlarning o‘xshatish timsollari ham turlicha bo‘ladi. Bu xalqning, shu millat vakillarining dunyoni tasavvur etishi va anglashdagi o‘ziga xosligi, milliy an’ana va urf-odat kabi mental munosabatlarida namoyon bo‘ladi. Aytaylik, “qorday oppoq” turg‘un o‘xshatma tilimizga shu qadar o‘rnashganki, o‘xshatish etalonini boshqa biror narsa bilan almashtira olmaymiz. Chunki bunday o‘xshatishlar tilda xalqning tajribalari, urf-odatlari, madaniyati va tarixining o‘ziga xos jihatlariga muvofiq ravishda saralangani bois unga biror detal, biror yangilik qo‘shishga “ojiz” qolamiz.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mental xususiyatlarning til birliklarida namoyon bo‘lishi mavzusini o‘rganishda bir qancha manbalar muhim o‘rin tutadi. Masalan, M. Maslovaning “Lingvokulturologiya” asari til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni yoritib, til birliklari orqali milliy ruhiyat va mentalitetni tahlil qilish usullarini ko‘rsatadi.

B. Botirovning “O‘zbek mentalitetining psixologik xususiyatlari” kitobi esa o‘zbek millatiga xos psixologik xususiyatlarni chuqur o‘rganib, ularning til ifodalari bilan bog‘lanishini ta’kidlaydi.

F..Abdurahimovaning “Ingliz, rus va o‘zbek tillari maqollarining semantik xususiyatlari” nomli dissertatsiyasi qiyosiy tahlil orqali maqollar va frazeologizmlarda mental xususiyatlarning semantik ko‘rinishini ochib beradi. Bu ish turli tillar o‘rtasidagi farq va o‘xshashliklarni aniqlashga yordam beradi.

Sanab o‘tilgan ushbu manbalar mavzuni yoritish uchun asos bo‘lsa-da, ularda millatlarga xos psixologik jihatlarni tadqiq etishda maqollarning roliga alohida urg‘u berilmagani tufayli mazkur maqola o‘ziga xos tadqiqot ishi sifatida ahamiyatlidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda mental xususiyatlarning til birliklarida namoyon bo‘lishini o‘rganish uchun qiyosiy tahlil va semantik tahlil usullari qo‘llanildi. Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi maqollar va frazeologizmlar namuna sifatida tahlil qilindi. Manbalardan olingan ma’lumotlar lingvokulturologik yondashuv asosida ko‘rib chiqildi. Natijalar xalqlarning ruhiy xususiyatlarini til orqali aniqlashga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqimizda sherni mard va dovyurak botirlarga, tuyani kuchli, chidamli, ba’zi hollarda esa takabbur kishilarga, eshak va ho‘kizni befahm va befarosat dangasalarga, echkini ayyor va yengil tabiatlilarga; itni ochko‘z insonlarga, bo‘rini qonxo‘r zolimlarga, quyonni qo‘rqoqlarga, qulonni sergak, hushyor, aqllilarga, sichqon, kalamush, chumchuq, chigirtkani tekinxo‘r va zararkunandalarga, chumolini mehnatkash, mazlum kishilarga, qurbaqani ishyoqmas, dangasa, maqtanchoqlarga, burgut, lochin, shunqorni dovyurak, botir, mard odamlarga, qarg‘a va quzg‘unni ko‘pincha bag‘ritosh, qora niyatli kishilarga assotsiatsiya qilish hollari uchraydi (Шомақсудов Ш., 1990: 10).

Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, ba’zan turli xalq va madaniyatlarda ham bitta hayvonni turg‘un o‘xshatish timsoli (etaloni) sifatida qo‘llash mumkin. Bir-biridan mutlaqo farqli madaniyatlarda ham tulki timsolidan ayyorlik, yolg‘onchilik timsoli sifatida foydalanilishini ko‘rish mumkin. G‘arb va slavyan madaniyatlarida, jumladan, ingliz va rus tillarida “as false as fox”, “хитрий как лиса” turg‘un o‘xshatishlarining mifologik manbalarga asoslanishini ko‘rish mumkin. Chunki, qadimgi tasavvurlarga ko‘ra, tulki jodugar hisoblangan, unda yo‘qolish, ko‘rinmaydigan bo‘lib qolish qobiliyati mavjud bo‘lgan. Shubhasiz, bunday tasavvur o‘zbeklarda bo‘lgani ma’lum emas (Mahmudov N., Xudoyberganova D., 2013: 11). Albatta, o‘zbek millatida ayyor, aldoqchilik sifatini ifodalashda tulki obrazidan foydalanilishi uning tutqich bermasligini e’tiborga olgan holda, shuningdek, turli lingvomadaniyatlarning ta’sirida bo‘lishi mumkin.

O‘zbek tili nuqtayi nazaridan olganda, turg‘un o‘xshatmalarda yo tashqi o‘xshashlik, yo ichki bog‘liqlik asosida bir narsa ikkinchisiga o‘xshatiladi. Odatda toza, ozoda o‘rin-joy haqida gap ketganda, “chinniday” o‘xshatishidan foydalaniladi. O‘zbek mentalitetida chinni so‘zining tartibni anglatuvchi so‘zlarga nisbatan qo‘llanilishidan ham anglash mumkinki, toza, ozoda narsalar odatda, ovqatlanish buyumlariga qiyoslanadi. Bu bilan o‘zbek xalqining ovqatlanish vositalarining pokligiga jiddiy e’tibor bergani tufayli boshqa buyum, uy-joylardagi saranjomlik ham ovqatlanish asboblari kabi toza va ozoda degan o‘xshatishning kelib chiqishiga sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin. O‘zbek xalqidagi yemishning pokligi va ozodaligiga e’tibor berish xalqning e’tiqodi va diniy an’ana, qadriyatlaridan kelib chiqqan bo‘lib, uy-joylardagi tozalikni tasvirlashda ham “chinniday” o‘xshatishini qo‘llaydi. “Yog‘ tushsa yalagudek” o‘xshatishini ham bunga misol qilib keltirish mumkin. Tejamkorlik, isrof qilmaslik, ovqatning yuqini ham uvol qilmaslikka odatlangan o‘zbek xalqi ozoda joyga nisbatan “Yog‘ tushsa yalagudek” o‘xshatishini qo‘llaydi.

Tartiblilikni ifodalovchi yana bir tushuncha sifatida “saranjomlik”ni olaylik. O‘zbek tilining etimologik lug‘atida ta’kidlanishicha, “saranjomlik” so‘zi forscha

“asosiy”, “eng muhim” degan ma’noni anglatuvchi “sar” oti bilan “uy-ro‘zg‘or buyumlari” ma’nosini bildiradigan “anjom” otidan tuzilgandir. “Saranjom” so‘zi bilan ko‘pincha juft qo‘llanadigan va lug‘atlarda unga sinonim sifatida keltiriladigan “sarishta” so‘zi ham forscha etimologiyaga ega bo‘lib, aslida “yuzaga keltir” degan ma’noni anglatuvchi “sereshtan” fe’lining “seresht” o‘tgan zamon asosiga “-a” qo‘shimchasini qo‘shib hosil qilingan (Raxmatullayev Sh., 2009: 206).

Demak, leksikologiya nuqtayi nazaridan saranjomlik dastlab asosiy, muhim uy-ro‘zg‘or buyumlarining tutilishi holatiga nisbatan baho berish uchun ishlatilgan so‘zdir. Uning “sarishtalik” so‘zi bilan hosil qiluvchi juftligini, bizningcha, ko‘p ishlatiladigan (“asosiy”, “eng muhim”) bo‘lgani sababli foydalanish uchun qulay, yaqin joylashtirilgan (“seresht” – yuzaga keltirilgan) uy-ro‘zg‘or anjomlari (“anjom” – uy-ro‘zg‘or buyumlari)ni saqlash uslubini tavsiflovchi sifat ma’nosida tushunish asoslidir.

“Saranjom” so‘zining lingvistik tahlilini biroz chuqurlashtirib, qiziq holatlarga duch kelish mumkin. Jumladan, ma’lum bo‘lishicha, “saranjomlik” so‘zining rus tilidagi ekvivalenti bo‘lgan “аккуратный” so‘zi polyak tilidan o‘zlashtirilgan bo‘lib, lotincha “tartibli”, “hafsalali” degan ma’nodagi “accuratus” so‘zidan kelib chiqqan. “Saranjomlik” so‘zining ingliz tilidagi varianti bo‘lgan “neat” so‘zi esa lotincha “nitidus” – “yorug‘”, “yorqin”, “toza” (“ni” o‘zagi – yoritmoq, nur sochmoq) ma’nosidagi so‘zdan olingan. Qiyosiy tahlilda shuni yaqqol sezish mumkinki, turli etnomadaniy muhitda muayyan bir hodisaga izoh berishda uning har xil jihatlariga e’tibor qaratilyapti. Xususan, o‘zbekcha “saranjomlik” so‘zida tarixan asosiy e’tibor buyumning ahamiyatli (qanchalik asosiy, muhim) ekaniga, ruscha “аккуратный” so‘zida e’tibor narsa-buyumlarning qanday tartib, hafsala bilan joylashtirilishiga, inglizcha “neat” so‘zida e’tibor buyumning tashqi belgilari (yorug‘ligi, tozaligi) qanchalik muhimligiga qaratilmoqda. Albatta, qiyosiy etimologik tahlil ham qiziqarli hamda muhim ijtimoiy-psixologik va tarixiy psixologik xulosalarga olib kelishi mumkin (Ergashev P., Ubaydullayev A., 2014: 9).

Demak, muayyan tushunchalarga munosabat, ularni baholash me’yorlari va o‘lchovlari turli xalqlarda, demakki, tillarda bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, o‘xshatishlarda xalqning milliy xarakteri, kerak bo‘lsa, milliy idroki o‘z aksini topadi.

Tillar xalqlarning milliy xususiyatlarini o‘zida mujassam etar ekan, ular o‘z grammatik tuzilishi jihatidan ham bir-biridan tubdan farq qiladi. Bu farqlarni tahlil qilish xalqlarning o‘ziga xos etnopsixologik xususiyatlari haqida xulosa chiqarish imkonini beradi.

Turli tillarda gap tuzilishiga ko‘ra ham farqli jihatlar namoyon bo‘ladi. Rus va o‘zbek milliy xususiyatlarini solishtirma yo‘l orqali tahlil etgan B.M.Botirov ruslarda

ega jumla boshida, fe'l jumla o'rtasida, aniqlovchi va to'ldiruvchi odatda gap oxirida kelishini, bunda ruslar harakatining maqsadi aniq bo'lib, ushbu xatti-harakat kimga qaratilganini jumla yakunlanmagunicha bilish qiyinligini ifodalaydi. O'zbeklarda esa muayyan munosabat kimga qaratilgani aniq bo'lsa-da, maqsad (xatti-harakat) noaniqdir. O'zbeklarning keyingi harakati nimadan iborat bo'lishini doimo oydinlashtirish lozim bo'lgan masaladir. O'zbeklar o'z niyatini so'nggi daqiqagacha o'zgartirish imkoniyatiga ega, deb baholaydi muallif (Botirov B., 2011). Ingliz tilida ham gap tuzilishida egadan so'ng doimo kesim keladi, so'ng ikkinchi darajali bo'laklar keltiriladi, ya'ni inglizlar ham gapning kim yoki nima haqida ketayotgani va unga tegishli harakatni gapning boshidayoq ifodalab, izohlovchi qismlarni keyin so'zlashadi.

Gapda so'zlarning o'rin almashishining ma'noga ta'siri turli tillarda turlichadir. Jumladan, o'zbek, rus tillarida gap tarkibidagi so'zlarni almashtirish orqali ham ma'no anglanaveriladi. Masalan: Анна пришла домой. Пришла Анна домой. Домой Анна пришла.

O'zbek tilida ham shu holatni ko'rish mumkin: Men bugun maktabga bordim. Bugun men maktabga bordim. Bordim men maktabga bugun. Men maktabga bugun bordim.

Bu holat ayniqsa, og'zaki nutq va nazmda ko'p uchraydi, gapda so'zlar ketma-ketligining o'rin almashishi gap mazmuni buzilishiga sabab bo'lmaydi. Albatta, kesimdan avval kelgan so'z leksik urg'u ma'nosida ifodalanib, gapda biror mazmunni kuchaytirishga xizmat qilsa-da, ma'lumot sifatida uzatilayotgan umumiy mazmun yo'qolmaydi. Ingliz tilida esa gapda so'zlarning o'rin almashishi mazmun yo'qolishiga, ma'noning tubdan o'zgarishiga sabab bo'ladi. A.Abduazizov gaplarda so'z tartibi, ayniqsa, affiksatsiya kuchsiz bo'lgan, ya'ni so'zning o'zagi yoki asosiga turli qo'shimchalar qo'shilmaydigan tillarda, jumladan, ingliz va fransuz tillarida katta ahamiyatga egaligini ta'kidlaydi.

Bundan ko'rinadiki, inglizlar tabiatida ham qat'iylik, chekinmaslik, qonun-qoidalarga jiddiy rioya qilish, hayoti davomida, turish-turmushida aniq tartib asosida yashash xususiyatlari mavjud. Ular kun tartibini, oylik, kunlik sarf-xarajatlar miqdorini aniq hisob-kitob qilib yashashlari shundan dalolatdir. O'zbek tilida esa gap qurilishidagi so'zlar o'rnining muqim emasligi asrlar davomida bu xalq vakillarida shakllanib kelgan xususiyatlarni aks ettirib, ulardagi murosaga moyillik, andisha va odamgarchilikni tartibdan ustun qo'yish holatlarini ifodalaydi.

Rus va ingliz tillarida egalik, ya'ni kimgadir tegishlilik ma'nolari faqat egalik olmoshlari bilan ifodalanadi. O'zbek tilida esa bu jarayonda otlar egalik qo'shimchasini oladi. Masalan, egalik mazmuni rus tilida моя книга, ingliz tilida my book tarzida ifodalanadi. O'zbek tilida esa mening kitobim demay, egalik olmoshisiz

kitobim deb ham ifodalash mumkin. Bundan ko‘rinadiki, rus va ingliz millatlarida narsaning kimga tegishli ekanini ta’kidlash muhim o‘rin egallaydi va ular tegishlilik masalasini birinchi bo‘lib ifoda etadilar. Bu holatni ularning punktualligi, har bir kishining shaxsiy hududini, egalik qilish chegarasini aniq farqlab ko‘rsatishlari bilan izohlash mumkin. Shuningdek, bu xalqlarga xos bo‘lgan voyaga yetgan farzandning ota-onadan ayri holda, uy-joyi, mol-mulki alohida tarzda yashashini ham egalik chegarasini aniq farqlash xususiyati sifatida baholash mumkin. O‘zbeklarda esa egalik olmoshining doim ham ifodalanaverilmasligi shu millatga xos bo‘lgan bir necha avlod vakillarining birgalikda hayot kechirishlari, ko‘pchilik bo‘lib yashash tarziga ko‘nikish oqibatida narsalardan umumiy tarzda foydalanish, nutqda egalikni yorqin ifodalamaslikka intilish natijasi bo‘lishi mumkin. Shuningdek, o‘zbeklarga xos andisha, so‘zlashuvda suhbatdosh ko‘nliga qarash, istihola qilish kabi odatlar ham egalik qo‘shimchasini so‘z ortiga yashirish, kimgadir tegishlilik masalalarini yorqin ifodalamaslikka urinish holatlarini vujudga keltirgan, deb izohlash mumkin.

Bo‘lishsiz gaplarda ham rus va ingliz tilida bo‘lishsizlik ma’nosini ifodalovchi yuklama ish-harakatdan avval ifodalanadi. Masalan, не ешь, don’t eat. O‘zbek tilida esa ish-harakatni bildiruvchi so‘zga -ma affiksi qo‘shish yordamida hosil qilinadi. Masalan, borma, yema. Demak, rus va inglizlar suhbatdoshga qilinmagan yoki qilmaslik lozimligi mazmunini avval ifodalab, tinglovchi diqqatini dastavval bo‘lishsizlik mazmuniga jalb qilib, keyin o‘sha mazmunni bildiruvchi harakat haqida so‘zlashadi. O‘zbeklarda esa, aksincha, avval harakat haqida so‘z yuritilib, keyin uning bajarilgan yoki bajarilmaganligi, qilish lozim yoki yo‘qligi aytiladi.

Ingliz, rus va o‘zbek tillarida savol tuzilishiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ingliz tilida umumiy savollar yordamchi yoki modal fe’llar bilan boshlanadi. Masalan, Do you speak English? O‘zbek tilida esa umumiy savollar kesimga -mi qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasaladi. Masalan, Sen ingliz tilini bilasanmi? O‘zbek tilida kesim gapning oxirgi qismida kelishini inobatga olsak, so‘zlovchining savoli gap so‘ngida anglaniladi. Inglizlarda esa gapni boshlash bilanoq so‘zlovchining savol bilan murojaat qilayotganini bilish mumkin. Bu inglizlar tabiatidagi tezda muddaoga o‘tish, maqsadni darrov ifodalash, tez ishni bitirish istagi bilan belgilansa, o‘zbeklardagi har bir ishda ehtiyotkorlik, muloqotni vaziyatga ko‘ra, suhbatdosh holatiga ko‘ra o‘zgartirishga moyillik, muloqotda rasmiy ohangdan ko‘ra sermulozamatlik xususiyatlari bilan izohlash mumkin. Rus tilida esa umumiy savollar odatda ohang yordamida ham hosil qilinadi. Masalan, Ты знаешь английский язык? Yozuvda esa bunday toifadagi savollarni faqat tinish belgilari orqali aniqlash mumkin xolos. Bu ruslar tabiatidagi ehtiyotkorlik sifatidan darakdir.

Etnopsixologik xususiyatlarni o‘rganishda folklor ham muhim ahamiyat kasb etuvchi omillardan biridir. Maqol xalqning ijtimoiy-tarixiy, hayotiy-maishiy tajribasi

umumlashgan badiiy, obrazli mulohazalardan iborat hikmatli so‘zlaridir. Dunyodagi hamma xalqlar og‘zaki ijodida maqollarchalik shaklan va mazmunan o‘zaro yaqin janr deyarli yo‘q. Turli xalqlarning maqollarini lingvokulturologik tahlil qilish va o‘zaro solishtirish millatlarning etnopsixologik xususiyatlarini o‘rganishda qimmatli ma’lumotlarni qo‘lga kiritish imkonini beradi. O‘zbek, rus, ingliz xalq maqollarini qiyosiy tahlil qilish jarayonida ushbu xalqlarning tili va madaniyati haqida ma’lumotga ega bo‘lish juda muhimdir. Lingvokulturologik jihatdan tahlil qilingan ayrim maqollar ba’zan turli xalq maqollarida bir xil, ba’zan umuman boshqacha ifoda bilan o‘zining xususiyatlarini ochib beradi. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, o‘zbek, rus, ingliz maqollarida xalqning o‘tmishidan bugungi kunigacha bo‘lgan urf-odatlar o‘z aksini topgan.

Maqoldan kelib chiqayotgan ma’no doimo ularni tashkil etgan so‘zlarning mohiyati bilan gavdalanavermaydi, balki undagi obrazlar orqali namoyon bo‘ladi (Abdurahimova F., 2014). O‘zbekcha “Oyni etak bilan yopib bo‘lmas” maqoli ruscha “Шила в мешке не утаишь” (bigizni qopda yashirib bo‘lmas) maqoli mazmuniga mos keladi. O‘zbek tilida oy obrazi keng qo‘llanilib, uni semantik va lingvokulturologik jihatdan izohlanganda chiroyli, go‘zal, porlamoq, ajralib turmoq, yanada go‘zallashmoq, aniq, ravshan ma’nolarida qo‘llaniladi (Mahmudov N., Xudoyberganova D., 2013). Ammo rus lingvomadaniyatida “oy” obrazi o‘zbek tilidagi mazmunda emas, balki g‘amgin, ma’yus, sovuq manzarani ifodalashda qo‘llaniladi. “Oyni etak bilan yopib bo‘lmas” maqolida ham aniq-ravshan narsani berkitishning iloji yo‘qligi ta’kidlanadi. Rus xalqida esa bu maqol bigiz vositasida ifodalangan. Inglizlarda esa ushbu maqolning “You can not hide an eel in a sack” (Ilonbaliqni qopda yashirib bo‘lmas) ma’nosidagi muqobili qo‘llaniladi. Shuningdek, inson hayotida biror ish sodir bo‘lsa-yu, atrofdagilarning ko‘magiga muhtojlik sezsa, ammo unga yordam beruvchilar kerakli vaqtda harakat qilmay, voqea tugagach iltifot ko‘rsatishlariga nisbatan o‘zbek xalqida “To‘ydan keyin nog‘ora chaldi” maqolidan foydalaniladi. Ingliz xalqida bu maqol “After dinner mustard” (Ovqatdan keyin qalampir bermoq) tarzida ifodalanadi. Ruslarda esa bu vaziyatda “После пожара, да за водой” (Yong‘indan so‘ng suvga chopmoq) maqoli ishlatiladi. O‘z vaqtida harakat qilmay, kechikib biror amal qilish befoydaligini izohlashda uchala xalq alohida tasviriy vositalardan foydalangan. Bunda o‘zbek xalqida bu holat to‘y bilan assotsiatsiyalansa, inglizlarda ovqat vositasida ifodalanmoqda. Rus xalqida esa yong‘in bilan assotsiatsiya qilinganligini ko‘rish mumkin. Bundan ko‘rinadiki, o‘zbeklar va inglizlarda kech harakat qilish qoralangani bilan kechirib bo‘lmas xato sifatida baholanmaydi. Ammo ruslarda vaqtida harakat qilmaslikka ancha keskin salbiy baho berilganini ko‘rish mumkin.

Insonning hayotda har bir narsa, voqea-hodisalarni o‘z hayotiy tajribasi, qiziqish va xohish-istaklaridan kelib chiqib idrok qilishi o‘zbek millatida “Tovuqning tushiga don kirar” maqoli sifatida ifodalanadi. Bu maqolda idrok appersepsiyasini izohlovchi holat ushbu millatga xos bo‘lgan turmush tarzidagi uy hayvonlari, parranda boqishga qiziqish natijasi o‘laroq tovuq timsoli bilan assotsiatsiyalanmoqda. Ingliz va ruslarda esa shu maqolning muqobili sifatida “All is fish that comes to his net (Nimaiki ilinsa to‘riga, baliq bo‘lib ko‘rinar ko‘ziga), ruslarda esa “Есть вода-будет и рыба” maqolida baliq etaloni qo‘llanilgan. Bu holat ushbu millat vakillarining baliqchilikka munosabati, turmush tarzi va sevib iste’mol qiluvchi taomlari bilan bog‘liqdir.

Maqollardagi milliy xususiyatni ta’minlaydigan yana bir obraz – o‘sha xalq taomlari hisoblanadi (Abdurahimova F., 2014). O‘zbeklarda “Mehmon kelsa, pastga tush, palov bermoq ahdga tush”. “Yo‘qcha guruch osh bo‘ladi, mehmon ko‘ngli shod bo‘ladi”, “Pazandaning go‘jasidan osh chiqar, noshudning palovidan tosh chiqar”, “Arzonning sho‘rvasi tatimas”, “Uzoqning palovidan yaqinning sho‘rvasi yaxshi” maqollari mavjud bo‘lib, taomlar timsolida millatga xos urf-odatlar gavdalanadi. Ingliz tilida esa taom nomlari uchraydigan maqol sifatida “Every cook praises his own broth” (Har bir oshpaz o‘z sho‘rvasini maqtaydi) maqolini keltirish mumkin. Ruslarda “Невкусному супу – соль, безмозглой голове – слова пользы не приносят”, “Вкус кипящего супа не узнать”, “Речь без пословицы, что суп без соли” maqollari qo‘llaniladi. O‘zbeklarda milliy taom bo‘lmish “palov”ning tansiq taom sifatida e’tirof etilishini, “sho‘rva” esa odatiy, kundalik taom sifatida baholanayotganini maqollarda ham kuzatish mumkin. Rus va ingliz xalq maqollarida esa tasviriy ifodada asosan “sho‘rva” vositasidan keng foydalanilgan. Bu ularning turmush tarzini o‘zida ifoda etadi.

Ijtimoiy psixologik qonuniyat bo‘lmish bir ishga bir qancha kishilarning kirishishida mas’uliyatning taqsimlanib ketishini ifoda etuvchi “Qo‘ychivon ko‘p bo‘lsa, qo‘ylar harom o‘ladi” maqoli ruslarda “У семи нянек дитя без глазу” , inglizlarda “Too many cooks spoil the broth” (Oshpaz ko‘p bo‘lsa, sho‘rva buziladi) maqollari orqali izohlanadi. O‘zbeklardagi “Qo‘ychivon ko‘p bo‘lsa, qo‘ylar harom o‘ladi” maqolida shu xalqqa xos bo‘lgan e’tiqod ifodasini ham ko‘rish mumkin. Ma’lumki, o‘zbeklarda diniy e’tiqoddan kelib chiqqan holda harom o‘lgan molning go‘shtini iste’mol qilish mumkin emas. Shu tufayli ham ko‘pchilikning birgalikdagi harakatida mas’uliyatni bir-biriga yuklashida jiddiy moddiy zararlar ko‘rilishini ifodalashda “qo‘yning harom o‘lishi” tasviridan foydalanilgan. Inglizlarda ham bu holat ovqat timsolida ifodalangan. Ruslardagi bu maqolning muqobili “У семи нянек дитя без глазу”, ya’ni enagalarning ko‘payishi bolaning qarovsiz qolishi ma’nosida ifodalanadi. Ruslardagi “enaganing ko‘payishi” iborasi bola tarbiyasi va parvarishida

onadan boshqa kishilarning ishtirokidan ko‘p hollarda foydalanilishini ko‘rish mumkin.

Insonning tashqi qiyofasidan kelib chiqib uning mohiyati, qanday inson ekanligi haqida xulosa chiqarmaslikka targ‘ib qiluvchi “Kalla boshqa, salla boshqa” maqoli ruslarda “Наряди свинью хоть в серьги, она все равно в грязь полезет” ko‘rinishida ifodalanadi. Inglizlarda esa “An ass in a lion’s skin” (Sher terisidagi eshak) maqoli orqali bayon etiladi.

O‘zbek xalqidagi “Har to‘kisda bir ayb”, “Guruch kurmaksiz bo‘lmas” maqoli ruslarda “В семье не без урода”, inglizlarda “Accidents will happen in the bestregulated families” (Noxushliklar eng farovon oilalarda ham sodir bo‘ladi) sifatida ifodalanadi. Har qanday vaziyatda kamchilik, xatolik bo‘lishi mumkinligi ifodalangan ushbu maqollarda o‘zbek millatiga xos bo‘lgan fikrni ifodalashdagi ehtiyotkorlikni, o‘zbeklar tabiatida ko‘ngilga tegmaydigan tarzda gapirishga moyillik mavjudligini, ruslar tabiatidagi keskinlik, lo‘nda gapirishga moyillikni, inglizlardagi rasmiy “ohang”ni ko‘rish mumkin.

Keltirib o‘tilganidek, o‘zbek, rus va ingliz xalq maqollari juda ko‘p xususiyatlari bilan folklorning boshqa janrlaridan keskin farqlanib turadi va unda xalqning mentaliteti va milliy xarakteri namoyon bo‘lib turadi. Oila, mehmonni ulug‘lash va qarindosh-urug‘chilik munosabatlariga jiddiy qaralishi o‘zbek maqollarida yaqqol tus olgan bo‘lsa, uy hayvonlariga bo‘lgan mehrning kuchliligi ingliz xalq maqollarida ko‘proq gavdalanadi (Abdurahimova F., 2014).

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, turli xalqlarga xos til birliklarini tahlil qilish shu millatga xos bo‘lgan urf-odat, an’ana, shu millat e’tiqodi, milliy xususiyatlari haqida xulosa chiqarish imkonini beradi. Bundan tashqari, xalqlarning milliy taomlari, milliy kiyimlari ham xalq maqollarida gavdalantirilib, bu orqali shu millatga xos bo‘lgan turmush tarzi namoyon bo‘ladi. Ana shu xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, xalqlarning o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlari haqida xulosa chiqarish mumkin.

Bundan tashqari, xalqlarning milliy qadriyatlari, emotsional ifodalari ham til birliklarida, masalan, frazeologizmlar va paremiyalar orqali gavdalantirilib, bu orqali shu millatga xos bo‘lgan ruhiy kechinmalar va hissiyotlar dunyosi namoyon bo‘ladi. Ana shu xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, xalqlarning o‘zaro o‘xshash ruhiy holatlari va farqli psixologik xususiyatlari haqida xulosa chiqarish mumkin.

Takliflar sifatida, mental xususiyatlarni til birliklarida qiyosiy tahlil qilishni kengaytirish, turli tillar o‘rtasidagi o‘xshashliklarni o‘rganish orqali madaniy integratsiya jarayonlariga hissa qo‘shish mumkin. Shuningdek, bu sohada zamonaviy

lingvistik texnologiyalarni qo‘llash va yosh avlod ta’limida mental xususiyatlarni til orqali shakllantirish usullarini ishlab chiqish zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abduazizov A. (2010). Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent: Sharq.
2. Abdurahimova F. (2014). Ingliz, rus va o‘zbek tillari maqollarining semantik xususiyatlari. – Urganch.
3. Botirov B. (2011). O‘zbek mentalitetining psixologik xususiyatlari. – Toshkent: Fan va texnologiyalar markazi.
4. Гвоздева А. (2004). Языковая картина мира: лингвокультурологические и гендерные особенности (на материале художественных произведений русскоязычных и англоязычных авторов). Автореферат диссертации на соискание ученой степени к. филол. н. – Краснодар.
5. Ergashev P., Ubaydullayev A. (2014). Tartibli va tartibsiz xulq-atvor psixologiyasi. – Toshkent.
6. Маслова М. (2001) Лингвокультурология. – Москва: Академия.
7. Mahmudov N., Xudoyberganova D. (2013). O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Ma’naviyat.
8. Raxmatullayev Sh. (2009). O‘zbek tilining etimologik lug‘ati (forscha, tojikcha birliklar va ular bilan hosilalar). – Toshkent: Universitet.
9. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. (1990). Hikmatnoma: O‘zbek maqollarining izohli lug‘ati. – Toshkent.
10. Wierzbicka A. (1997). Understanding cultures through their key words: English, Russian, Polish, German, and Japanese. – Oxford: Oxford University Press.

REFERENCES:

1. Abduazizov A. (2010). Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent: Sharq. (In Uzbek)
2. Abdurahimova F. (2014). Ingliz, rus va o‘zbek tillari maqollarining semantik xususiyatlari. – Urganch. (In Uzbek)
3. Botirov B. (2011). O‘zbek mentalitetining psixologik xususiyatlari. – Toshkent: Fan va texnologiyalar markazi. (In Uzbek)
4. Gvozdeva A. (2004). Yazikovaya kartina mira: lingvokulturologicheskie i gendernie osobennosti (na materiale xudojestvennix proizvedeniy russkoyazichnix i angloyazichnix avtorov). Avtoreferat dissertasii na soiskanie uchenoy stepeni k. filol. n. – Krasnodar. (In Russian)
5. Ergashev P., Ubaydullayev A. (2014). Tartibli va tartibsiz xulq-atvor psixologiyasi. – Toshkent. (In Uzbek)
6. Maslova M. (2001) Lingvokulturologiya. – Moskva: Akademiya. (In Russian)

7. Mahmudov N., Xudoyberganova D. (2013). O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Ma’naviyat. (In Uzbek)

8. Raxmatullayev Sh. (2009). O‘zbek tilining etimologik lug‘ati (forscha, tojikcha birliklar va ular bilan hosilalar). – Toshkent: Universitet. (In Uzbek)

9. Sh. Shomaqsudov, Sh. Shorahmedov. (1990). Hikmatnoma: O‘zbek maqollarining izohli lug‘ati. – Toshkent. (In Uzbek)

10. Wierzbicka A. (1997). Understanding cultures through their key words: English, Russian, Polish, German, and Japanese. – Oxford: Oxford University Press.

XORIJIY TALABALARDA OLIY TA'LIMGA MOSLASHISH MUAMMOSI

АДАПТАЦИЯ ИНОСТРАННЫХ СТУДЕНТОВ К ВЫСШЕМУ ОБРАЗОВАНИЮ

ADAPTATION OF INTERNATIONAL STUDENTS TO HIGHER EDUCATION

Avazyazova Dilfuza Shovkatovna
Ma'mun universiteti Psixologiya kafedrasi dotsenti,
Psixologiya fanlari bo'yicha fan nomzodi PhD
Tel:. +998999671488
E-mail: dilfuzaavazyazova@mail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda global dunyoda ta'limning xalqarolashuvi masalalari, xorijiy talabalar sonining yillar kesimida oshib borish statistik ko'rsatkichlari, xorijiy talabalik maqomining turli davlatlarda belgilanishi, jahon oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-amaliy tadqiqot markazlarida xorijiy talabalarning oliy ta'lim muasasalariga moslashishining psixologik xususiyatlariga oid ilmiy tadqiqot ishlaridan tahlillar, xorijiy talabalarning oliy ta'lim muassasiga moslashish jarayonidagi murakkabliklari, o'ziga xos xususiyatlari psixologik nazariyalar va yondashuvlar kontekstida ko'rib chiqilgan. Shuningdek, O'zbekistonda ushbu masalaning bugungi kundagi holati bo'yicha so'z yuritilib, xorijiy birinchi bosqich talabalarda ta'limning dastlabki davrlarida ular uchrashlari mumkin bo'lgan qiyinchilik va muammolar tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar: *ta'lim, shaxs, xorijiy talaba, moslashish, akademik ko'nikma, emotsional barqarorlik, tashqi muhit, o'z-o'zini nazorat qilish.*

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы интернационализации образования в современном глобальном мире, статистические показатели роста числа иностранных студентов в разрезе лет, особенности определения статуса иностранных студентов в различных странах, а также анализируются научные исследования, посвящённые психологическим особенностям адаптации иностранных студентов к высшим учебным заведениям в мировых университетах и научно-исследовательских центрах. Рассмотрены сложности и специфические черты процесса адаптации иностранных студентов к высшим учебным заведениям в контексте психологических теорий и подходов. Кроме того, освещается современное состояние данной проблемы в Узбекистане, приводится анализ трудностей и проблем, с которыми могут столкнуться иностранные студенты первого курса на начальном этапе обучения.

Ключевые слова: *образование, личность, иностранный студент, адаптация, академические навыки, эмоциональная устойчивость, внешняя среда, самоконтроль.*

Abstract. This article examines the internationalization of education in today's global world, statistical trends in the growth of international student numbers over the years, and the determination of international student status in various countries. It also includes analyses of scientific research on the psychological aspects of international students' adaptation to higher education institutions, global universities, and research centers. The difficulties and specific characteristics of this adaptation process are discussed within the framework of psychological theories and approaches. Additionally, the current state of this issue in Uzbekistan is addressed, with an analysis of the challenges and problems that first-year international students may face in the early stages of their education.

Keywords: *education, personality, international student, adaptation, academic skills, emotional resilience, sociocultural environment, self-regulation.*

KIRISH

Jahonda bugungi kunda globallashuv jarayoni odamlarning hayoti hamda faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Globallashuvning asosiy ko'rinishlaridan biri sifatida xorijiy xorijiy ta'lim muassasalarida ta'lim olish imkoniyatini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Xorijiy talabalar soni bo'yicha statistik ma'lumotlarni o'rganadigan bo'lsak, 2024-yil holatiga birinchi beshta davlatga AQSH (1 057 188 nafar talaba), Buyuk Britaniya (718 085 nafar talaba), Kanada (660 230 nafar talaba), Fransiya (392 630 nafar talaba) hamda Avstraliya (361 247 nafar talaba) kabi davlatlar kirishini ko'rishimiz mumkin. Ta'kidlash kerakki, bu o'rinda xorijiy talabalarning yashash va ta'lim faoliyatiga moslashishi bilan bog'liq psixologik xususiyatlarini ilmiy jihatdan o'rganish zarurati yuzaga kelmoqda.

Oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-amaliy tadqiqot markazlarida xorijiy talabalarning oliy ta'lim muassasalariga moslashishining psixologik xususiyatlariga oid ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada xorijiy talabalarning ta'lim olish jarayonida yangicha muloqot hamda munosabatlar tizimi, notanish ta'lim muhiti talablariga moslashishi, emotsional qulaylikni his qilishi, iqlim, til kabi bir qator qiyinchiliklarni yengib o'tishda yordam beruvchi shaxs xususiyatlarini rivojlantirish zarurati kuzatiladi. Shu sababli, moslashuv jarayonida muammolarga duch kelgan talabalarni o'z vaqtida aniqlash dolzarb masala sifatida ko'rib chiqilmoqda, bu esa ularni ijtimoiy, psixologik-pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash hamda yordam berish tizimlarini yo'lga qo'yish, takomillashtirish imkoniyatini yaratadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadqiqot ishimiz doirasida xorijiy talabalarning oliy ta’limga moslashish jarayoniga oid psixologik xususiyatlarni tahlil qilish asnosida, dastlab, talabalik davri hamda xorijiy talaba tushunchasining mohiyatini ochishga qaror qildik.

Oliy ta’lim muhitiga moslashish masalasi, xususan, xorijiy talabalarning o‘ziga xos ehtiyojlari va psixologik holatlarini o‘rganish, zamonaviy psixologiyaning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayon, bir tomondan, ta’lim oluvchilarning kognitiv, affektiv va motivatsion xususiyatlarini chuqur tahlil qilishni, boshqa tomondan, ularning yangi ijtimoiy va madaniy sharoitlarga integratsiyalashuv mexanizmlarini o‘rganishni talab qiladi.

Xorijiy talabalar uchun moslashish nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy-psixologik dinamikalarga ham bog‘liq bo‘lib, mazkur jarayon shaxs va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning uzluksiz muvozanatini talab etadi.

Moslashish jarayonining murakkabligi va ko‘p qirrali xususiyatlari psixologik nazariyalar va yondashuvlar kontekstida chuqur tadqiqotni talab qiladi. Xususan, A.A.Nalchadjyan, Y.A.Aleksandrovsky va boshqa ko‘zga ko‘ringan olimlarning fikriga ko‘ra, adaptatsiya – bu shaxsning ijtimoiy tizim va jamiyat qadriyatlariga faol moslashuvi bilan birga, ichki ruhiy jarayonlarining barqarorligini ta’minlash mexanizmidir. Shunday qilib, mazkur jarayon ijtimoiy-madaniy talablarga javob beruvchi yangi ijtimoiy rol va holatlarni egallashni o‘z ichiga oladi.

Ayniqsa, xorijiy talabalar uchun bu jarayon shaxsiy identifikatsiya va ijtimoiy tizimga integratsiya kabi muhim bosqichlardan iborat bo‘lib, unda ijtimoiy-psixologik omillar hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, xorijiy talabalar oliy ta’lim tizimiga kirish jarayonida ijtimoiy-psixologik omillarga nisbatan sezgirlik darajasiga ega bo‘ladi. I.V.Shiryaeva va A.A.Reanning ishlarida bu omillar shaxsning yangi muhitga moslashuvida o‘zaro munosabatlar tizimini shakllantirishdagi asosiy determinantlar sifatida talqin qilinadi. Xususan, kommunikativ ko‘nikmalar, madaniy tafovutlarni yengib o‘tish qobiliyati va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlaridan foydalanish shaxsning muvaffaqiyatli moslashishini belgilovchi muhim faktorlar sifatida ajratib ko‘rsatilgan.

E.G‘.G‘oziyev bo‘yicha «Talabalik davri o‘spirinlikning ikkinchi bosqichidan iborat bo‘lib, 17-22 (25) yoshni o‘z ichiga oladi va inson hayotidagi betakror xususiyatlar hamda ziddiyatlarga boy davr hisoblanadi. Ushbu davr shaxsda axloqiy qarashlar, estetik did, xarakter, muayyan odat, munosabatlarning shakllantirish va mustahkamlash hamda ta’lim, fuqarolik, kasbiy, mehnat, siyosiy ijtimoiy rollarining butun tizimini o‘zlashtirish bilan tavsiflanadi» (G‘oziyev E.G‘., 2020: 132).

Talabalarning psixologik rivojlanishi va shakllanishida bir qator ko‘tarilish va pasayish davrlari mavjud bo‘lib, bu turli qarama-qarshiliklar, o‘zaro o‘tishlar, o‘zini namoyon qilish, harakat qilishga undash, faol hayotiy pozitsiyani shakllantirish bilan bog‘liq. Shu o‘rinda talabalik yoshiga to‘xtaladigan bo‘lsak, ushbu yosh maxsus ta’limni ta’minlaydigan o‘qish yoshi hisoblanib, yangi bilimlar, harakatlar va o‘rganishning yangi usullarini muntazam ravishda o‘zlashtirish, shuningdek, bilimlarni mustaqil ravishda egallashda namoyon bo‘ladigan faoliyat bilan belgilanadi.

V.T.Lisovskiy bo‘yicha, «talaba shaxsidagi «Ideal men» va «Real men» o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar, o‘z shaxsiyatiga nisbatan ichki ishonchsizlikni, o‘qishga nisbatan esa salbiy qarashlarni shakllantiradi. Jumladan, o‘quv yili boshida unda yuqori kayfiyat, talabalikdan quvonch hissi kuzatilsa, ta’limning shart-sharoiti, talablari, mazmun-mohiyati, muayyan qonun va qoidalari bilan yaqindan tanishish natijasida ruhiyatida tushkunlik ro‘y berishi mumkin. Ushbu omillar ta’sirida talabada keyinchalik umidsizlik, kelajakka ishonchsizlik, ikkilanish, xavotir kabi salbiy his-tuyg‘ular namoyon bo‘ladi» (Лисовский В.Т., 2001: 70).

Odatda talabalar birinchi va uchinchi kurslarda oliy o‘quv yurti va mutaxassislikni to‘g‘ri tanlagani haqida yanada jiddiyroq o‘ylab ko‘radilar. Ko‘rib chiqqanimizdek, talabalik yoshi yetuklik davridan ma’lum ijtimoiy-psixologik farqlarga ega bo‘lib, ushbu bosqichning xususiyatlari o‘zini o‘zi anglash jarayonlarining faol rivojlanishi va kasbiy o‘zini o‘zi belgilash bilan bog‘liq muammolarni hal qilishdir. Bizning tadqiqot ishimiz aynan xorijiy talabalar bilan bog‘liqligi tufayli, keyingi o‘rinlarda shunga to‘xtalamiz**.**

Xorijiy talabalar oliy ta’limning «to‘liq yoki bir qismini o‘z mamlakatidan tashqarida olayotgan shaxslar bo‘lib, ular dunyoning turli mamlakat va iqlim zonalaridan kelishadi hamda butunlay boshqa madaniyat, an’ana, me’yor va qadriyatlar tizimiga ega bo‘lgan jamiyatlarning o‘ziga xos individual psixologik xususiyatlarga ega vakillari hisoblanishadi» (Савченко И. А., 2010: 26). Xorijiy talabalarning dunyoga tarqalishi bo‘yicha statistik ma’lumotlarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, 2023-yilda xorijiy talabalar soni 6,4 million kishiga yetgan va bu ko‘rsatkich 2007-yilgi ko‘rsatkichdan ikki baravar ko‘pdir.

Ta’kidlash lozimki, ta’lim olish uchun yangi muhitga kelgan xorijiy talaba o‘zini notanish sharoitda topishga harakat qiladi va ijtimoiy hayotni tashkil etish, ta’lim olish talablari o‘rtasidagi farq, xorijda yashash, ta’lim olish sharoitlariga ko‘nikishi bilan bog‘liq muammolardan kelib chiqib, yangi muhit, ta’lim tizimi, muloqot tili, o‘quv guruhining internatsional tabiatiga moslashishi lozim.

Xorijiy talabalarning moslashishi - bu yangi muhitning ijtimoiy-madaniy g‘oyalarini tushunish, notanish madaniyatda psixologik qulaylikka erishish va

muayyan vaziyatda o‘z xatti-harakatlarida ularga mos kelish qobiliyatiga asoslangan murakkab jarayon hisoblanadi.

“Xorijiy talabalarni universitetga moslashtirish fiziologik, ijtimoiy, psixologik va pedagogik darajalarga ta’sir qiluvchi ko‘p tomonlama jarayon bo‘lib, universitet unga yangi ijtimoiy-madaniy jamiyat munosabatlari tizimiga kirishga yordam berish sharoitlarini yaratishi lozim” (Гребенникова И.А., 2011: 98).

Xorijiy talabalarning yangi muhitda qolishi bilan bog‘liq muammolar va ularni moslashtirishning turli xil variantlari ko‘plab xorijiy tadqiqotchilarning ishlarida o‘rganilgan.

S.Bochner fikriga ko‘ra, dunyo bo‘ylab universitetlarda o‘qiyotgan xorijiy talabalar bilan bog‘liq muammolarni to‘rt toifaga bo‘lish mumkin: - birinchidan, xorijiy talabaning notanish muhitdagi xorijlik maqomi bo‘lib, bu muammo xorijga chiqayotgan barcha odamlarga turli darajada taalluqlidir; - ikkinchidan, xorijiy talaba o‘zining kelib chiqishi bilan bog‘liq bo‘lmagan, har qanday birinchi bosqich talabalari uchun umumiy bo‘lgan, ya’ni, maktab va universitet ta’limi o‘rtasidagi farq tufayli qiyinchiliklarga duch keladi; - uchinchidan, xorijiy talaba barcha yoshlar uchun umumiy bo‘lgan yoshga bog‘liq muammolarga uchrashadi. “Ko‘p tadqiqotchilar talabaning xorijlik ekaniga urg‘u bergan holda, uning yoshiga xos bo‘lgan muammolarni e’tiborsiz qoldiradilar; - to‘rtinchidan, xorijiy talabalar o‘z mamlakatining xorijdagi vakili sifatida o‘zlarining etnik kelib chiqishiga va notanish mamlakatda qanday maqomga ega bo‘lishiga nisbatan juda e’tiborli bo‘lishadi” (Смолина Т.Л., 2024: 24).

Biz esa o‘z tadqiqotimiz davomida xorijiy talabalarning oliy ta’limga moslashishida ijtimoiy-psixologik omillarning ahamiyati borasidagi xorij hamda MDH davlatlari olimlarining tadqiqot ishlarini tahlil qilishga harakat qildik.

Tadqiqotchi S.Mori tadqiqotlariga ko‘ra, “xorijiy talabalar mahalliy talabalarga qaraganda ko‘proq ruhiy salomatlik muammolariga duch kelishlarini va bu ularning salomatlik darajasiga ham o‘zining ta’sirini ko‘rsatishini aniqlagan” (Mori S.C., 2000).

Ko‘rishimiz mumkinki, xorijiy talabalarning moslashishida psixologik jihatdan muammolar mahalliy talabalarga nisbatan qiyinroq o‘tishi mumkin.

“Xorijiy talabalar akkulturatsiya jarayonlarini yengilroq o‘tkazishlari uchun psixologik moslashish asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Bu yangi muhitda talabalarga farovonlik va hayotdan qoniqish hissini beradi” (Cemalcilar Z., Falbo T., Stapleton L.M., 2005: 94).

“Oson moslashish shartlariga ijtimoiy-psixologik yordam, til qobiliyati, yashash muddati, shaxsning o‘zini-o‘zi boshqara olishi, iroda kuchi, jinsi va kelib chiqqan mamlakati kabilarni kiritish mumkin. Ular orasida ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va

psixologik moslashuv o‘rtasidagi munosabatlar ayniqsa olimlar tomonidan o‘rganilgan” (de Araujo A. A., 2011: 628).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

